

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI
O`ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI**

«Himoyaga ruxsat etilsin»

Fakultet dekani _____ D.Z.Rajabov

«_____» _____ 2019-y.

**BITIRUVCHI KURS MAGISTRANTI
QUDARTOVA MUBORAK SHUXRATOVNAning**

**XX ASR BOSHLARIDA O`ZBEK NAVOIYSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI
(A.FITRAT, SADRIDDIN AYNIIY VA OLIM SHARAFIDDINOV
TADQIQOTLARI ASOSIDA)
mavzusidagi**

*5A 120101 – Adabiyotshunoslik (o`zbek adabiyoti) yo`nalishida magistr akademik
darajasini olish uchun yozgan*

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI

(2017-2019o`quv yili)

Ilmiyrahbar :

F.f.n, dotsent RAJABOVA M. B.

Rasmiyhakamlar:

F.f.d, professor AHMEDOVA SH. N.

Buxoro tibbiyot instituti dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

QURBONOVA G. N.

Buxoro – 2019

«Ma'qullayman»

Ilmiy rahbar: f.f.n,dotsent

M.Rajabova

« » _____ 2019-y.

«Tasdiqlayman»

O'zbek adabiyoti kafedrası

mudiri Sh.N.Ahmedova

« » _____ 2019-y.

BuxDU filologiya fakulteti bitiruvchi kurs magistranti Qudratova Muborak Shuxratovnaning "XX asr boshlarida o'zbek navoiyshunosligi taraqqiyoti (Fitrati, Sadridin Ayniy va Olim Sharafiddinov tadqiqotlari asosida) mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi ustida olib borishi lozim bo'lgan ishlar yuzasidan

TOPSHIRIQLAR REJASI

Faoliyat nomi	Ishning qisqacha mazmuni	Bajarilish vaqti	Bajarilgan ishlar haqida ilmiy rahbar xulosasi (imzo)	Magistrant (imzo)
Nazariy faoliyat	1. Mavzu bo'yicha zaruriy ilmiy, ilmiy-metodik materiallarni to'plash, o'rganish	2018-yil, sentabr		
	2. Ilmiy adabiyotlarni mavzu nuqtayi nazaridan o'rganish	2018-yil, oktabr-dekabr		
	3. Mavzu bo'yicha ilmiy manbalarni taqqoslash. Adabiyotlar ustida ishlash. To'plangan materiallarni sistemalashtirish	2019-yil, yanvar		
MD ustida ishlash	1. MD rejasini tuzish. Tadqiqotning kirish qismini tayyorlash	2019-yil, fevral-mart		
	2. I bob paragraflari ustida ishlash (yig'ilgan nazariy ma'lumotlarni ishga kiritish)	2019-yil, aprel-iyul		
	3. II bob paragraflari ustida ishlash (nazariy ma'lumotlarasosida ishning amaliy qismini shakllantirish)	2019-yil, avgust-noyabr		
	4. III bob paragraflari ustida ishlash (nazariy ma'lumotlar asosida ishning amaliy qismini shakllantirish)	2019-yil, dekabr-		
	5. Ishni yakunlash, tahrir etish va oqqa ko'chirish	2019-yil, mart		
	6. Xulosa (tahlillar natijasida umumlashmalar va xulosalarni yoritish)	2019-yil, aprel		
	7. Adabiyotlar ro'yxatini tartibga solish			
MDni rasmiylashtirish	Dastlabki himoya jarayonida qatnashish	2019-yil, may		
MDni himoya qilish		2019-yil, iyun		

Bitiruvchi kurs magistranti :

Qudratova Muborak Shuxratovna

Ilmiy rahbar :

f.f.nomzodi, dotsent M. B. Rajabova

Buxoro davlat universiteti Filologiya fakulteti
o`zbek adabiyoti kafedrasining 1-yig`ilishi bayonnomasidan
KO`CHIRMA

Buxoro shahri

__-_____, 20__-y.

Qatnashdi: kafedraning barcha a`zolari va I bosqich magistrantlari hamda ularning ilmiy rahbarlari

K U N T A R T I B I

Magistrlik dissertatsiyalari mavzularining muhokamasi, tasdig`i hamda ilmiy rahbarlarni tayinlash.

Kafedra qaror qiladi:

5A120101 –*Adabiyotshunoslik (o`zbek adabiyoti)* mutaxassisligi magistranti Qudratova Muborak Shuxratovnananing magistrlik dissertatsiyasi mavzusi “XXasr boshlarida o`zbek navoiyshunosligi taraqqiyoti (Fitrat, Sadriddin Ayniy va Olim Sharafiddinov tadqiqotlari asosida)” etib tasdiqlansin.

5A120101 – *Adabiyotshunoslik (o`zbek adabiyoti)* mutaxassisligi magistranti Qudratova Muborak Shuxratovnaning XXasr boshlarida o`zbek navoiyshunosligi taraqqiyoti (Fitrat, Sadriddin Ayniy va Olim Sharafiddinov tadqiqotlari asosida) magistrlik dissertatsiyasiga f.f.nomzodi, dotsent **M.B. Rajabov** ilmiy rahbar etib tayinlansin.

Yig`ilish raisi:

Sh.N.Ahmedova

Yig`ilish kotibasi:

G.Y. Samandarova

Buxoro davlat universiteti Filologiya fakulteti
o`zbek adabiyoti kafedrasining 6-yig`ilishi bayonnomasidan
KO`CHIRMA

____-_____, 20____-y.

Qatnashdi: kafedraning barcha a`zolari

K U N T A R T I B I

5A120101–*Adabiyotshunoslik (o`zbek adabiyoti)* yo`nalishi magistranti Qudratova Muborak Shuxratovnaning “XX asr boshlarida o`zbek navoiyshunosligi taraqqiyoti (Fitrat, Sadriddin Ayniy va Olim Sharafiddinov tadqiqotlari asosida)” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi muhokamasi

Kafedra qaror qiladi:

1.5A120101–*Adabiyotshunoslik (o`zbek adabiyoti)* mutaxassisligi magistranti Qudratova Muborak Shuxratovnaning “XXasr boshlarida o`zbek navoiyshunosligi taraqqiyoti (Fitrat, Sadriddin Ayniy va Olim Sharafiddinov tadqiqotlari asosida)” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi «sinov himoyasidan o`tdi» deb hisoblansin va rasmiy himoyaga tavsiya etilsin.

2. Mazkur magistrlik dissertatsiyasiga ichki taqrizchi etib o`zbek adabiyoti kafedra mudiri, f.f.doktori, professor Sh.N.Ahmedova hamda tashqi taqrizchi etib Buxoro tibbiyot instituti dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi G.N. Qurbonova tayinlansin.

Yig`ilish raisi:

Sh.N. Ahmedova

Yig`ilish kotibasi:

U.R. To`rayeva

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI
O`ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

Qo`lyozma huquqida

UDK

BITIRUVCHI KURS MAGISTRANTI
QUDRATOVA MUBORAK SHUXRATOVNAning

“XX ASR BOSHLARIDA O`ZBEK NAVOIYSHUNOSLIGI
TARAQQIYOTI (A. FITRAT, SADRIDDIN AYNIIY VA OLIM
SHARAFIDDINOV TADQIQOTLARI ASOSIDA)”

mavzusidagi

*5A 120101– adabiyotshunoslik (o`zbek adabiyoti) yo`nalishida magistr
akademik darajasini olish uchun yozgan*

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI

(2017-2019- o`quvyili)

ILMIY RAHBAR:

M.B. RAJABOVA,

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Buxoro – 2019

BuxDU filologiya fakulteti 5A120101 – Adabiyotshunoslik (o'zbek adabiyoti) mutaxassisligi magistranti Qudratova Muborakning **“XX asr boshlarida o'zbek navoiyshunosligi taraqqiyoti (A. Fitrat, Sadriddin Ayniy va Olim Sharafiddinov tadqiqotlari asosida)”** mavzusidagi magistrlik ishiga DAK

XULOSASI

No	Belgilangan me'yorlar			
1	MDning hajm va talab bo'yicha rasmiylashtirilganligi (me'yor: 70 betdan kam bo'lmasligi kerak)	talabga javob beradi –10 ball	talabga qisman javob beradi–7 ball	talabdan chetga chiqish holatlari mavjud–4 ball
2	Mavzuning davlat va universitet grant dasturlari asosida yoki dolzarb muammolar bo'yicha tanlanganligi	davlat dasturiga kirgan–8 ball	grant loyihasi bo'yicha – 7 ball	BuxDU dasturi bo'yicha–6 ball yoki dolzarb muammolar bo'yicha–5 ball
3	Mavzu dolzarbligining asoslanganligi	yeterli darajada asoslangan–5b.	yeterli asoslan-magan–3b.	noaniq -2 ball
4	Maqsad va vazifalarning aniq ifodalanganligi	aniq - 7 ball	to'liq aniq emas – 5 ball	aniq emas – 3 ball
5	MDda ilmiy tekshirish metodlaridan foydalanganlik darajasi	to'la– 7 ball	qisman – 5 ball	yeterli emas-3 ball
6	Olingan natijalarning yangiligi va ishonchlilik darajasi	natija yangi – 8 ball	ilgari olingan – 6 ball	to'la ishonchli emas–3 ball
7	MDning xulosa qismida tavsiyalar berilganligi:, ijtimoiy sohada qo'llashga (ta'lim, atrof-muhitni himoya qilish, ma'naviy-ma'rifiy...)	bevosita ishlab chiqishga tavsiyasi bor -6 ball	tavsiya qilingan-5 ball	tavsiyayo`q– 3 ball

8	Bitiruvchining mavzu bo'yicha olingan natijalarini baholanganligi darajasi	aniq-8 ball	to'la aniq emas – 6 ball	tanqidiy baholanmagan- 4 ball
9	Ishning ilmiy xarakteri	ilmiy tadqiqotlar asosida - 8 ball	aralash shaklidan - 5 ball	Referativ xarakterdan - 3 ball
10	Adabiyotlardan foydalanganlik darajasi	ilmiy-amaliy jurnallar, monografiya, yetakchi olimlar asarlaridan to'la foydalanilgan - 8 ball	ilmiy adabiyotlar kam foydalanilgan – 6 ball	faqat darslik, ma'ruza matnlari, o'quv qo'llanma va ma'lumotno malardangina foydalanilgan - 4 ball
11	Bitiruvchi taqdimotiga baho	a'lo – 10 ball	yaxshi – 7 ball	qoniqarli – 6 ball
12	Berilgan savollarga javobi	to'liq – 8 ball	o'rta – 6 ball	qoniqarli- 4 ball
13	MDning ichki va tashqi taqrizchi tomonidan baholanishi	a'lo – 7 ball	yaxshi – 6 ball	qoniqarli – 5 ball
14	MDga qo'yilgan yakuniy ball:		Bahosi:	

Eslatma: Har bir me'yor bo'yicha aniqlangan ballning tagiga chizib belgilanadi.

DAK raisi: Mengliyev B.

A'zolari:

1. f.f.d. Rajabov D. Z.

2. prof.Ahmedova Sh.N.

3. f.f.n. Safarova H. O.

4. f.f.d. Murodov G`. N.

5.Bozorova M.-Buxoro TI litseyi o'qituvchisi

6.Samiyeva H.- Buxoro sh. 35-maktab o'qituvchisi

Dissertatsiya Buxoro davlat universiteti

Filologiya fakulteti

O`zbek adabiyoti kafedrasida bajarilgan

Ilmiy rahbar:

(Ilmiy darajas va unvoni, Ism-sharifi)

Rasmiy opponent:

(Ilmiy darajas va unvoni, Ism-sharifi)

Kafedra mudiri:

(Ilmiy darajas va unvoni, Ism-sharifi)

Magistratura bo`limi boshlig`i: _____

(Ilmiy darajas va unvoni, Ism-sharifi)

Magistrant:

(Ilmiy darajas va unvoni, Ism-sharifi)

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Fakultet: Filologiya

Magistratura talabasi: Muborak Qudratova

Kafedra: o`zbek adabiyoti

Ilmiy rahbar: f.f.n, dotsent Ma`rifat Rajabova

O`quv yili: 2018 – 2019

Mutaxassislik: 5A120101–Adabiyotshunoslik

(O`zbek tili)

XX asr boshlarida o`zbek navoiyshunosligi taraqqiyoti
(Fitrat, Sadriddin Ayniy va Olim Sharafiddinov tadqiqotlari asosida)

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI ANNOTATSIYASI

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va dolzarbligi. Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy sohalarida jiddiy o`zgarishlarga qo`l urildi. Shular qatoriga sho`rolar davri adabiyotiga ham munosabat tubdan o`zgardi. Ayniqsa, sho`rolar davridagi ijodkorlar faoliyatini qayta baholash, ularning o`zbek adabiyoti taraqqiyoti yo`lidagi ishlarini qayta tiklashga katta e`tibor berildi. Jumladan Fitrat, Sadriddin Ayniy va Olim Sharafiddinov va boshqalar ijodini xalqimizga bor bo`yicha qaytarish ishlariga kirishildi. Istiqlol yillarida ijtimoiy-iqtisodiy sohada bo`layotgan o`zgarishlar badiiy adabiyot va adabiyotshunoslikda aks etmasligi mumkin emas edi. Mustaqillik yillarining dastlabki kunlaridan boshlab sho`rolar davri adabiyotini qayta o`rganish, jumladan shoirlar va yozuvchilar bo`yicha adolatsizliklarni bartaraf etish masalalari kun tartibiga qo`yilgan. Fitrat, S. Ayniy, Olim Sharafiddinov va yana o`nlab shoirlar va yozuvchilar ijodini milliy mustaqillik va milliy mafkura manfaatlari nuqtai nazaridan qayta o`rganishga kirishildi. Natijada ularning asarlari qayta nashr qilindi, yangi qarashlar asosida ilmiy maqolalar paydo bo`la boshladi, kitoblar chop etildi. Bu jarayonni o`rganish uchun yetarlicha material to`plangan. Endi bu materiallarni yangicha qarashlar asosida o`rganish, umumlashtirish o`zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalaridan biri bo`lib turibdi. Bizning magistrlik dissertatsiyamiz ham aynan mana shu dolzarb masalani o`rganishga bag`ishlangan.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Mazkur magistrlik dissertatsiyasini yozishda, asosan, Fitrat “Tanlangan asarlar”ining ikkinchi va to`rtinchi jildlaridan, Sadridin Ayniy “Tanlangan asarlarining” 8-jildidan va Olim Sharafiddinovning “Tanlangan asarlar”i obyekt qilib olingan.

Dissertatsiya ishining maqsad va vazifalari. Mazkur dissertatsiyani yozishdan maqsad – Fitrat, Ayniy va O.Sharafiddinovning navoiyshunoslik sohasidagi faoliyatlarini yaxlit holda tadqiq etishdan iborat. Shu maqsadni amalga oshirish uchun esa quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- XX asr boshlarida navoiyshunoslik sohasida amalga oshirilgan ishlarni o`rganish;
- Fitrat, Ayniy, Olim Sharafiddinovlarning Navoiy ijodiga oid tadqiqotlarini tasnif qilish;
- Mazkur olimlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarni qiyosiy o`rganish;
- Fitrat, Ayniy, Olim Sharafiddinovlarning tadqiqotlarining Navoiyshunoslikdagi o`rniga baho berishga intilish.

Tadqiqot uslubi. Mazkur mavzuni yoritishda, asosan, qiyosiy metoddan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Magistrlik dissertatsiyasida XX asr boshlarida Alisher Navoiy shaxsi va ijodiga bag`ishlangan tadqiqotlarning badiiy qimmatini tahlil qilingan. Ishda erishilgan natijalar o`zbek mumtoz adabiyoti muammolari, jumladan, Alisher Navoiy ijodi bo`yicha ish olib borayotgan mutaxassislar, filologik yo`nalishdagi oliy o`quv yurtlarining o`qituvchi va talabalari uchun zarur deb hisoblaymiz. Oliy va o`rta maxsus ta`lim muassasalarida o`zbek adabiyoti tarixidan ma`ruzalar, amaliy mashg`ulotlar va maxsus kurslar o`qitishda, darslik, qo`llanma va dasturlar yaratishda ushbu dissertatsiya mazmuni va natijalaridan amaliy foydalanish mumkin.

Dissertatsiyaning ilmiy yangligi. Tadqiqotimizning asosiy yangiligi XX asr navoiyshunosligida Fitrat, Ayniy va Ayn faoliyati monografik yo`nalishda tahlil

qilindi. Ularning navoiyshunoslikda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlariga munosabat bildirish va qiyoslash ishning ilmiy yangiligini belgilaydi.

Dissertatsiya tarkibi. Dissertatsiya kirish, uch bob, umumiy xulosalar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, hajmi 86 sahifani tashkil etadi

Ilmiy rahbar: _____

M. B. Rajabova

Magistratura talabasi: _____

M. Sh. Qudratova

**REPUBLIC OF UZBEKISTAN
MINISTRY OF HIGHER AND
SECONDARY SPECIALIZED EDUCATION
BUKHARA STATE UNIVERSITY**

Faculty: Philology

Department: Uzbek Literature

Academic year: 2018 - 2019

M.A.Student: Quدراتова Муборак

Supervisor: M. Rajabova

Specialty: 5A120101 - Literature
(Uzbek)

**The development of the study of Navoi in the early 20th century
(based on the studies of Fitrat, Sadriiddin Aini and Olim Sharafiddinov)**

ANNOTATION OF THE DISSERTATION

The significance and basis of the theme of research paper. After gaining independence, our country has undergone significant changes in socio-political and economic spheres. The attitude to the literature of the soviet period has radically changed. Particularly, much attention was paid to re-evaluating the activities of Soviet-era artists and restoring their work for the development of Uzbek literature. In particular, we started to work on our people's creative work, including Fitrat, Sadriiddin Aini and Olim Sharafiddinov. Criticism focused on this issue, and began to publish a series of articles, even books. O.Sharafiddinov, M.Kozhonov, U.Normatov, N.Karimov, H.Boltaboev, B.Nazarov, K.Yuldoshev, B.Karimov and other dozens of Uzbek literary critics and critics were published. the books published in the book can be justified.

During the years of independence, changes in the socio-economic sphere could not have been reflected in literary literature and literature. Since the early days of independence, the issue of Soviet literature revision, including the elimination of injustices on poets and writers, has been put on the agenda. Fitrat, S. Aini, Olim Sharafiddinov, and dozens of poets and writers have been re-examined in terms of national independence and national ideology. As a result, their works have been re-published, and new scientific papers have emerged, books were published. Sufficient material has been collected to examine this process. Now, learning and summarizing these materials on a new basis is one of the topical issues of Uzbek literature. Our master dissertation is dedicated to studying the current issue.

Object and subject of the research. In his master's dissertation, Fitrat received the second and fourth chapters of Selected Works, Sadriiddin Aini's 8th edition of Selected Works, and Olim Sharafiddinov's "Selected Works".

In addition, during the master dissertation PhD, Aini and O. Sharafiddinov were also referred to research and scientific articles related to naval studies. In

particular, it was relied on and relied upon the scientific works of such scholars as O.Sharafiddinov, U.Normatov, H.Boltabayev, A.Rasulov, A.Hayitmetov.

Objectives and tasks of the dissertation. The purpose of this dissertation is to study the works of Fitrat, Aini and O.Sharafiddinov in the field of navonaology and to determine their scientific value. To achieve this goal, the following tasks have been identified:

- To determine the amount of works done in the field of navo-research in the early 20th century;
- Classification of works by Fitrat, Ayniy, Olim Sharafiddinov on Navoi's creativity;
- Comparative study of research conducted by these scientists;
- Responding to achievements and shortcomings in the research;
- To clarify the place of research of Fitrat, Ayniy, Olim Sharafiddinov in Navoi studies;

Research Methods. The comparative method was used to cover this topic.
Theoretical and practical significance of the research results. At the beginning of the 20th century master's thesis was analyzed the artistic value of the research devoted to Alisher Navoi's personality and creativity. We believe that the results of the work are necessary for the problems of the Uzbek classic literature, including the works of Alisher Navoi creators, teachers and students of the philological direction. It is possible to use the content and results of the dissertation in the teaching of lectures, practical exercises and special courses in the history of Uzbek literature in the higher and secondary specialized educational institutions, textbooks, manuals and programs

Scientific novelty of dissertation. The main findings of our study were analyzed in monographical directions in Fitrat, Ayniy and Ayn in Navoi in the 20th century. Attribution to and evaluation of their naval studies is the scientific finding of the case.

Structure of the dissertation. The dissertation consists of introduction, three chapters, general conclusion, and a list of used literature, with a size of 86 pages.

Supervisor: _____ M. B. Rajabova

M.A.Student: _____ M. Sh. Qudratova

REJA:

KIRISH. ISHNING UMUMIY TAVSIFI.

I BOB. FITRAT TADQIQOTLARIDA NAVOIY IJODIGA MUNOSABAT

- 1.1. Alisher Navoiyning forsiy devoni va Farhodu Shirin dostoni to'g'risida Fitrat qarashlari
- 1.2. Fitratning "O'zbek adabiyoti namunalari" majmuasi hamda ilmiy maqolalarida Alisher Navoiy ijodining o'rganilishi

II BOB. SADRIDDIN AYNIIY – NAVOIYSHUNOS

- 2.1. Sadriddin Ayniy tadqiqotlarida Navoiy va tojik adabiyoti masalalariga munosabat
- 2.2. Ayniy – "Xamsa" tadqiqotchisi
- 2.3. "Alisher Navoiy" monografiyasi – yaxlit tadqiqot sifatida

III BOB. OLIM SHARAFIDDINOV – NAVOIY IJODI TADQIQOTCHISI

- 3.1. Alisher Navoiy biografiyasi va poetikasiga doir munosabatlar Olim Sharafiddinov talqinida
- 3.2. "Alisher Navoiy hayoti va ijodi" monografiyasining navoiyshunoslikdagi ahamiyati

UMUMIY XULOSALAR

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

KIRISH. ISHNING UMUMIY TAVSIFI.

Mening fikrimcha, yozuvchilik – bu oddiy kasb emas, xudo bergan iste’doddur. Bu – qismat, peshonaga yozilgan taqdir. Bu kasbga hech qayerda o`qitib, o`rgatib bo`lmaydi. Yozuvchilikning maktabi ham, dorulfununi ham bitta. U ham bo`lsa, bir umr hayotning ichida bo`lish, o`z xalqi bilan hamdard-u hamnafas bo`lib yashash, haqiqat va adolatga sadoqat bilan xizmat qilishdir.

ISLOM KARIMOV

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va dolzarbligi. Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy sohalarida jiddiy o`zgarishlarga qo`l urildi. Shular qatoriga sho`rolar davri adabiyotiga ham munosabat tubdan o`zgardi. Ayniqsa, sho`rolar davridagi ijodkorlar faoliyatini qayta baholash, ularning o`zbek adabiyoti taraqqiyoti yo`lidagi ishlarini qayta tiklashga katta e`tibor berildi. Jumladan Fitrat, Sadridin Ayniy va Olim Sharafiddinov va boshqalar ijodini xalqimizga bor bo`yicha qaytarish ishlariga kirishildi.

Istiqlol yillarida ijtimoiy-iqtisodiy sohada bo`layotgan o`zgarishlar badiiy adabiyot va adabiyotshunoslikda aks etmasligi mumkin emas edi. Mustaqillik yillarining dastlabki kunlaridan boshlab sho`rolar davri adabiyotini qayta o`rganish, jumladan shoirlar va yozuvchilar bo`yicha adolatsizliklarni bartaraf etish masalalari kun tartibiga qo`yilgan. Fitrat, S. Ayniy, Olim Sharafiddinov va yana o`nlab shoirlar va yozuvchilar ijodini milliy mustaqillik va milliy mafkura manfaatlari nuqtai nazaridan qayta o`rganishga kirishildi. Natijada ularning asarlari qayta nashr qilindi, yangi qarashlar asosida ilmiy maqolalar paydo bo`la boshladi, kitoblar chop etildi. Bu jarayonni o`rganish uchun yetarlicha material to`plangan. Endi bu materiallarni yangicha qarashlar asosida o`rganish, umumlashtirish o`zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalaridan biri bo`lib turibdi. Bizning magistrlik dissertatsiyamiz ham aynan mana shu dolzarb masalani o`rganishga bag`ishlangan.

**Dissertatsiya mavzusining o`rganilishi:** XX asrdagi navoiyshunoslik o`z ko`lamining kengligi va bosib o`tgan yo`lining o`ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Mustaqillik yillarining dastlabki kunlaridan boshlab shoʻrolar davri adabiyotini qayta oʻrganish, ularga toʻgʻri baho berish, bu sohadagi adolatsizliklarni bartaraf etish masalalari kun tartibiga qoʻyildi. Fitrat, S. Ayniy va Olim Sharafiddinov kabilarning ijodiy, ilmiy merosiga milliy mafkura manfaatlari nuqtai nazaridan qayta oʻrganishga kirishildi. Fitrat ijodini oʻrganish XX asrda, asosan, 80-yillardan boshlandi. Izzat Sulton, Salohiddin Mamajonov, Baxtiyor Nazarov, Erik Karimov, Naim Karimov, Ozod Sharafiddinov, Begali Qosimov, Ahmad Aliyev, Sherali Turdiyev, Hamidulla Boltaboyev singari olimlar adib ijodining turli qirralarini oʻrgandilar. Fitratning navoiyshunoslik faoliyatiga doir Sodir Erkinovning “Fitrat – navoiyshunos”¹, “Fitratning “Farhod va Shirin” dostoniga oid tadqiqotlari haqida”², Hamidulla Boltaboyevning “Alisher Navoiy merosi Fitrat talqinida”³ kabi maqolalar mavjud.

Sadriddin Ayniy merosini oʻrganishda uning farzandlari Xolida Ayniy va Kamol Ayniylarning yigʻuvchilik va tadqiqotchilik ishlarini taʼkidlab oʻtish lozim. Oʻzbek adabiyotida esa Toʻra Mirzayev⁴, Ibrohim Haqqul, Abduqodir Hayitmetov⁵, Botirxon Valixojayev⁶, S.Aliyev, Oxunjon Safarov, R. Vohidov⁷, singari adabiyotshunoslar qator maqola va monografiyalarini S.Ayniyga bagʻishlaganlar.

Olim Sharafiddinovning navoiyshunoslik faoliyatiga Abdugʻafur Rasulov⁸, Muborak Ataniyozova⁹larning tadqiqotlarida munosabat biladirilgan.

Biz yuqorida taʼkidlangan tadqiqotlarga tayangan holda asr boshida navoiyshunoslik borasida amalga oshirilgan ishlarning koʻlami, mazkur tadqiqotlarning navoiyshunoslikdagi oʻrni va ahamiyatini Fitrat, Ayniy va Olim Sharafiddinov faoliyati misolida tahlil qilishga harakat qildik.

¹ Erkinov S. Fitrat – navoiyshunos. //Ўзбек тили ва адабиёти. 1990 й. 3-сон

² Erkinov S. Fitratning «Farhod va Shirin» dostoniga oid tadqiqoti haqida.//Ўзбек тили ва адабиёти. 1993 й. 1-сон

³ Болтабоев Х. Алишер Навоий мероси Фитрат талкинида. //Ўзбек тили ва адабиёти. 1992 й. 1-сон

⁴ Мирзаев Т. С.Айний иждоини ўрганишнинг айрим масалаларига доир.//Ўзбек тили ва адабиёти. 2003 й. 5-сон

⁵ Хайитметов А. Забардаст навоийшунос.//Ўзбек тили ва адабиёти. 2003 й. 5-сон

⁶ Валихўжаев Б. Устоз Айний мероси. //Ўзбек тили ва адабиёти. 2003 й. 5-сон

⁷ Вохидов Р., Валихўжаев Б. Навоий ижоди – илҳом манбаи. Тошкент. «Фан» нашриёти 1981.

⁸ Расулов А. Олим Шарафиддинов.//Ўзбек тили ва адабиёти. 2004 й. 5-сон

⁹ Атаниезова М. Олим Шарафиддинов - навоийшунос.//Ўзбек тили ва адабиёти. 2010 й. 3-сон

Tadqiqot obyekti va predmeti. Mazkur magistrlik dissertatsiyasini yozishda, asosan, Fitrat “Tanlangan asarlar”ining ikkinchi va to`rtinchi jildlaridan, Sadriddin Ayniy “Tanlangan asarlarining” 8-jildidan va Olim Sharafiddinovning “Tanlangan asarlar”i obyekt qilib olingan.

Dissertatsiya ishining maqsad va vazifalari. Mazkur dissertatsiyani yozishdan maqsad – Fitrat, Ayniy va O.Sharafiddinovning navoiyshunoslik sohasidagi faoliyatlarini yaxlit holda tadqiq etishdan iborat. Shu maqsadni amalga oshirish uchun esa quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- XX asr boshlarida navoiyshunoslik sohasida amalga oshirilgan ishlarni o`rganish;
- Fitrat, Ayniy, Olim Sharafiddinovlarning Navoiy ijodiga oid tadqiqotlarini tasnif qilish;
- Mazkur olimlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarni qiyosiy o`rganish;
- Fitrat, Ayniy, Olim Sharafiddinovlarning tadqiqotlarining Navoiyshunoslikdagi o`rniga baho berishga intilish;

Tadqiqot uslubi. Mazkur mavzuni yoritishda, asosan, qiyosiy metoddan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Magistrlik dissertatsiyasida XX asr boshlarida Alisher Navoiy shaxsi va ijodiga bag`ishlangan tadqiqotlarning badiiy qimmatini tahlil qilingan. Ishda erishilgan natijalar o`zbek mumtoz adabiyoti muammolari, jumladan, Alisher Navoiy ijodi bo`yicha ish olib borayotgan mutaxassislar, filologik yo`nalishdagi oliy o`quv yurtlarining o`qituvchi va talabalari uchun zarur deb hisoblaymiz. Oliy va o`rta maxsus ta`lim muassasalarida o`zbek adabiyoti tarixidan ma`ruzalar, amaliy mashg`ulotlar va maxsus kurslar o`qitishda, darslik, qo`llanma va dasturlar yaratishda ushbu dissertatsiya mazmuni va natijalaridan amaliy foydalanish mumkin

Dissertatsiyaning ilmiy yangligi. Tadqiqotimizning asosiy yangiligi XX asr navoiyshunosligida Fitrat, Ayniy va Ayn faoliyati monografik yo`nalishda tahlil

qilindi. Ularning navoiyshunoslikda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlariga munosabat bildirish va qiyoslash ishning ilmiy yangiligini belgilaydi.

Dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi va sinovdan o'tishi. Mavzu yuzasidan 2018-yil 2 – 6-may kunlari Buxoro davlat universitetida o'tkazilgan professor-o'qituvchilar va talabalarning “Faol tadbirkorlik va innovatsion g'oyalar va texnologiyalar” yiligi bag'ishlangan an'anaviy 60-ilmiy-nazariy anjumanda hamda 2018-yil 15-16-aprel kunlari o'zbek filologiyasi kafedrası tomonidan o'tkazilgan professor Abdurauf Fitrat tavalludiga bag'ishlangan ilmiy-nazariy konfrensiyada ma'ruza qilindi.

Mavzu bo'yicha to'rtta maqola (Тафаккур ва талқин//Дурдона – Бухоро – 2018, 122 б.) “Cho'lpon – navoiyshunos”; (Садриддин Айний ва ўзбек насри таракқиёти//Илмий-амалий анжуман – Бухоро – 2018, 50 б.) “Навоий ва тожик адабиёти намуналари Садриддин Айний талқинида”; (Истиқлол ва Фитрат// Илмий-амалий анжуман – Бухоро – 2018, 85 б) “Fitratning “Farhodi Shirin” dostoni to'g'risida nomli maqolasi haqida”; (Тафаккур ва талқин//Дурдона – Бухоро – 2019, 126 б.) “Olim Sharafiddinov – navoiyshunos” nomlari bilan chop etildi.

Dissertatsiya tarkibi. Dissertatsiya kirish, uch bob, umumiy xulosalar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, hajmi 86 sahifani tashkil etadi.

I BOB.

FITRAT TADQIQOTLARIDA NAVOIY IJODIGA MUNOSABAT

1.1. Alisher Navoiyning forsiy devoni va Farhodu Shirin dostoni to'g'risida Fitrat qarashlari

Alisher Navoiyga voris ijod ahli orasida Abdurauf Fitrat o'ziga xos alohida o'ringa ega. Chunki bu adib har tomondan Navoiyga munosib shogird va sodiq izdoshdir. Fitratning aytishicha, Navoiy turkiy adabiyot tarixida va san'at dunyosida mo'jiza ko'rsatib, evrilishlar qilgan qahramonlardandir. Chindan ham turkiy tildagi adabiyotni Navoiy nihoyatda yuksak bosqichga ko'tarib, uni hayotga, davr, zamon va inson manfaatlariga yaqinlashtirishga favqulodda jasorat ko'rsatgan edi.

Navoiyning til, madaniyat, adabiyot va san'at tarixidagi xizmatlarini juda yuqori baholagan Fitrat "Chig'atoy adabiyoti" nomli maqolasida shunday yozadi: "Navoiyning shoirlig'i, san'atkorlig'i hamma chig'atoy shoirlaridan yuqori turadi. Buni Bobur ham tasdiq qiladir... Navoiy yolg'iz shoir, yozuvchi emas, ilm va san'at hodimidir. Ko'b muhim kitoblar uning buyrug'i bilan yozilgan. Eng katta rassomlar, musiqa olimlari, xattotlar uning himoyasida o'sdilar".¹⁰

O'tgan asrda Navoiy shaxsini teran tasavvur eta olgan ikki-uch alloma o'tgan bo'lsa, shuning bittasi Fitratdir. U birinchi navbatda, Navoiyning ilm va ma'rifat maktabidan saboq olib, uning olimligi, mutafakkir va orifligiga havas qilgan. Chunki Navoiydan keyin yashab ijod qilgan qaysi talantli shoir yoki adibni olmang, hammasining adabiy shaxsiyati va dunyoqarashi ilm, ma'rifat bo'stonida shakllanib, kamol topgan. Fitratda ham xuddi shunday. Ehtimol, shu sababdan ham u o'zbek olimlari orasida birinchi bo'lib Navoiyga bag'ishlab maqola yozib, yangi navoiyshunoslik ilmining asoschilaridan biri bo'ldi.

Navoiyning yurt, millat, til, tarix, din, davlat, adabiyot oldidagi xizmatlarini butun mohiyat qirralari bilan mushohada etganligi tufayli ham Fitratning tadqiqotlari navoiyshunoslikning o'ziga xos bir bosqichini tashkil etishi shubhasizdir.

¹⁰ Фитрат. Танланган асарлар. II жилд. Тошкент: Маънавият, 2000, -Б.37

Fitrat adabiyotga doir risola, qo'llanma va tadqiqotlarida mublag'a, jonlantirish, undash, ruju' singari badiiy tasvir usul va san'atlariga e'tiborni qaratganda ham yoki aruz vazni qonun-qoidalari hamda tuyuq, muammo, tarjiband, tarkibandga o'xshash lirik janrlardan bahs yuritganda ham qayta-qayta Navoiy asarlariga murojaat etib, tahlil va talqin uchun ulardan misollar tanlaydi. Uning "Navoiyning forsiy shoirlig'i ham uning forsiy devoni to'g'risida" nomli maqolasi alohida ilmiy ahamiyatga egadir. Ushbu mazmundor maqolada Navoiyning "fors tilida ham teran usta bir san'atkor ekani" bilag'onlik bilan asoslab berilgan. Va haqli ravishda Navoiyning forsiyda "kuchsiz bo'lg'ani to'g'risida Boburning ma'lumoti"ga e'tiroz bildirilgan.

Navoiyning 500 yillik yubileyiga tayyorgarlik ishlarining kun tartibiga chiqishi bilan bu haqda Fitrat, Cho'lpon, A.Zohiriy va Vadud Mahmud maqolalari e'lon qilingan bo'lib, ular orasida Fitratning bu maqolasi o'zining chuqurligi, ilmiy asoslarining izchilligi va mavzuning dolzarbligi bilan ajralib turadi. Navoiyshunoslikda uning forsiy adabiyotning ulkan vakili ekani hali tadqiq etilmagan bir paytda, nafaqat Foniyni, balki ushbu taxallusni qo'llagan boshqa shoirlarning ijodini yoritishda ham salmoqli hissa qo'shgan. Maqola ilk bor "Maorif va o'qitg'uchi" jurnalining 1925-yil 12-sonida (38-41-betlar) chop etilgan. 1993-yili "Sharq mash'ali" ilmiy majmuasining 1-sonida qayta nashr etilgan.

Fitratning ushbu maqolasida quyidagi masalalar aks etgan:

1. Navoiyning fors tilida yozilgan asarlarining forsiy adabiyotdagi o'rni masalasi;
2. Navoiyning forscha asarlarida qo'llagan taxallusi;
3. Navoiy va adabiy ta'sir masalalari;
4. Navoiyga nisbat berilgan "Devoni Foni" haqida Fitrat tekshirishlarining natijalari.

Davlatshoh Samarqandiy, Abdurahmon Jomiy, Som Mirzo, Rizo Qulixon Hidoyat, Husayn Voiz Koshifiy kabi fors tazkiranavislarining fikrlariga tayangan holda Fitrat Navoiyning forsiy devoniga baho beradi va shoirning fors tilida ham barakali ijod qilish sabablarini "Muhokamat ul-lug'otayn" asaridagi ma'lumotlar bilan isbotlab beradi: "Navoiy o'n besh yasharlikdan qirq yasharlikkacha fors

adabiyoti bilan kuchli sur'atda mashg'ul bo'lgan, zamonida mavjud fors devonlarining hammasini bo'lmasa ham ko'pini ko'rgan. Mavlono Jomiydan boshlab, u zamonning eng katta fors shoirlari o'z she'rlarini ko'rsatgan, tuzatib berishini so'raganlar"¹¹. Fitrat bu fikrlar bilan Navoiy fors adabiyotining chuqur bilimdoni va ijodkori, "eng ulug' fors shoirlarining eng mashhur, eng qiyin asarlariga forsiycha javob yozgan usta bir san'atkor" ekanligini asoslaydi. Fitratning bu kuzatishlari keyinroq boshqa navoiyshunoslar tomonidan davom ettirilib, maxsus tadqiqotlar yordamida isbot etilgan¹².

Navoiyning ko'b forsiy qasidalarini javobiya tarzida bitilganligini, jumladan, "Tuhfat ul-afgor" qasidasi Xusrav Dehlaviyning "Bahr ul-abror" hamda Abduraxmon Jomiyning "Lujjat ul-asror"iga o'xshatma tarzida yozilganligini ta'kidlaydi va bu orqali Fitrat uning qasidanavislik mahoratiga baho beradi. Olim maqolada "Muhokamat ul-lug'otayn"dagi shoirning "Ruh ul-quds", "Ayn ul-hayot", "Minhoj un-najot", "Qut ul-qulub", "Fusulu arba" singari o'z qasidalarini haqidagi ma'lumotlarga ham murojaat qiladi. "Sittai zaruriya" turkumi tarkibidagi har olti qasidaning dastlabki baytlarini keltirib, Navoiy forsiy so'z o'yinlarining ham ustasi bo'lganligini ta'kidlaydi. Hatto fors mumtoz adabiyotida qasidanavis sifatida tanilgan Jaloliddin Salmon Sovajiy(1300-1375)ning tarsi'da (she'rda bir misradagi so'zlarning ikkinchisidagilar bilan ohangdosh, vazndosh va qofiyadosh bo'lib kelishi. Bu haqda Fitrat "Adabiyot qoidalarini"da alohida to'xtaladi) bitilgan qasidasining bir baytiga nisbatan Navoiy "tarsi' tugal emas" deya o'rinli e'tiroz bildirganligini qayd etish orqali shoir fors adabiyotining nozik bilimdoni va munaqqidi bo'lganligiga ishora qiladi.

Bir qancha tahlillariga tayanib Fitrat quyidagicha xulosaga keladi: "Demak tekshirib turganimiz bu kitob ko'bdan beri bir ko'b kishilar tomonidan Navoyining forscha devoni deb tanilgan. Kotiblar uni bizga Navoyining forscha devoni deb taqdim etganlar. Buning qimmatini orttirmak uchun Navoyining turkcha she'rlaridan tanlab, munga qo'shganlar. Hatto biz ham shularga ishondik-da,

¹¹ Фитрат. Танланган асарлар. II жилд. Тошкент: Маънавият, 2000,-Б.5

¹² Исхоқов Ё. Навоий ва Хусрав Дехлавий. Т.: "Фан", 1968, 88-106-бет

“Navoyining forscha devoni topildi” deb shodlandiq. Baxtga qarshi buning Navoyining forscha devoni bo`lmag`ani maydong`a chiqdi”<sup>13</sup>. So`ngra Fitrat tomonidan devonning matn va uslub jihatlari o`rganilib, uning mulla Muhsin Foniya tegishli ekani, shoir asli Buxoroning Karmanasidan bo`lib, Kashmirda muqim yashab qolgani aniqlangan. Shunday qilib, Fitrat kichik bir maqola bilan navoiyshunosligimizni chalkash xulosalardan qutqargan va keyinroq haqiqiy “Devoni Foniy” topilishida bu maqolaning ma`lum ma`noda ilmiy xizmati bor. Shu bilan birgalikda ushbu maqolasida Navoiyning forsiy merosini keng suratda o`rganish, tadqiq etish, uning fors shoirlarining qaysilaridan ko`proq ta`sirlanganini aniqlab olish adabiyotimiz tarixi uchun juda muhimligini e`tirof etadi. Navoiy forsiy merosining boy va sarmazmun ekanligini asoslashga bag`ishlangan mazkur maqolada qarashlarni ishonchli ma`lumotlar orqali dalillash rad etib bo`lmaydigan darajada kuchli. Bu Fitrat ilmiy uslubining asosiy xususiyatidir. Yetuk adabiyotshunos asarlarining hali-hanuz o`z qimmatini saqlab qolgan omillaridan biri, shubhasiz, ana shu hayotbaxsh fazilatga egaligidir.

Fitratning “Farhod va Shirin” dostoni to`g`risida”, “XVI asrdan so`ng o`zbek adabiyotiga umumiy bir qarash” muammoviy xarakterdagi maqolalari ham mavjud. Ularda turli ijodkorlarga mansub ayrim asarlarni Sharqda ilk bor qiyosiy yo`sinda o`rgandi. Muayyan davr ijodkorlarining o`ziga xosligini, adabiyot tarixida tutgan o`rnini yoritdi. Turkiy adabiyotga mansub shoh asarlardan birini nainki bir xalq badiiy adabiyoti ravnaqi, balki umuman kishilik falsafiy-estetik tafakkuri tarixida tutgan o`rnini birinchilardan bo`lib yechib berdi.

Fitratning alohida olingan asar tahliliga bag`ishlangan maqolalaridan biri “Farhod va Shirin” dostoni to`g`risida”<sup>14</sup> maqolasidir. Muallif “adabiyotimizda jiddiy suratda tekshirishga muxtoj bo`lgan ko`b nuqtalarning navbat kutib turgani”ni eslatgan holda adabiyotshunoslikda ilk bor qiyosiy-tipologik metodni ishlab chiqdi. Navoiy dostonining syujetini ushbu mavzuda asarlar bitgan Firdavsiy, Nizomiy, Dehlaviy dostonlari bilan muqoyasa qilib chiqib, o`zining

¹³ Фитрат. Танланган асарлар. II жилд. Тошкент: Маънавият, 2000, 9 б.

¹⁴ Фитрат. Танланган асарлар. II жилд. Тошкент: Маънавият, 2000, 105 б. Bundan keyingi iqtiboslar ham shu nashrdan olinadi va sahifalar qavsda ko`rsatiladi.

dostoni bilan sharq xamsachiligida yangi bir maktabga asos solgani olim tomonidan isbot qilingan. Maqola “Alanga” oynomasining 1930-yil 1-2-sonlarida bosilgan. Fitrat shu mavzuda yozilgan Nizomiy, Xusrav va Navoiy dostonlarini tahlil qilar ekan, asosiy diqqatni Navoiy dostoniga qaratadi. Olim izchil tahlil yo`lidan boradi, dostonlarni voqeama-voqea tahlil qiladi, o`rni kelganda tarixiy manbalarga ham murojaat qilib boradi. Fitrat bunda Navoiy “Xamsa”sining ikkinchi dostonini Sharqda keng yoyilgan “Farhodu Shirin” syujeti bilan chog`ishtirib, bu syujet dastlab Firdavsiyning “Shohnoma”sida, so`ngra Nizomiy va Xusrav Dehlaviyning “Xamsa”larida qo`llanganini aytish bilan cheklanmay, asosiy e`tiborni Navoiy dostonining o`ziga xos jihatlarini o`rganishga qaratadi. Og`zaki va yozma adabiyot tarixida “Farhodu Shirin” syujetining paydo bo`lishi hamda uning og`zaki adabiyotda rivoyat, ertak va cho`pchak shaklidagi ko`rinishlari Firdavsiy “Shohnoma”si tufayli ilk bor yozma adabiyotga kirib kelganligini o`rinli qayd qiladi. Sharq adabiyotining ulug`lari sanalgan Nizomiy, Dehlaviy, Jomiy va Navoiy “Xamsa”larida ko`ringan bu doston nisbatan o`rinli kiritilgani, ularning o`zaro qiyosi natijasida kuzatiladi. Fitrat bunday qiyosiy tahlil natijasida Farhod va Shirinlarning asl vatani, voqea sodir bo`lgan hududlar hamda Farhod obrazining asosiy qahramon darajasiga ko`tarilish yo`llarini chuqur tushuntirib beradi.

Fitratning bu ilmiy ishining yaratilishiga yigirmanchi yillarning o`rtalarida sahnalarimizdan o`rin olgan Shamsiddin Xurshidning “Farhod va Shirin” musiqali dramasi turtki bo`lgan. 1925-yilda chop etilgan bu sahna asari uchun yozilgan matnda Arman manbaalari bilan aloqadorligi aytilsa-da, sahna asari uchun Mirzacho`l ustidagi Farhod tog`i, Shirin soyi atrofida paydo bo`lgan afsonalar asos qilib olinganligi qayd qilingan edi. Fitrat maqolasida “Xurshidga ko`ra, Shirinning yurti Arman otinda qishloq bo`lib, xalqi ham bari o`zbek, ya`ni Shirin ham bir o`zbek qizi bo`lib qolganligini” adabiyot tarixi hodisalarini “yangilish tushunish” sifatida qoralab, mavzu tarixiga kengroq nazar tashlash niyatida bo`ladi. Shu munosabat bilan olim bu maqolada “mening maqsad qilib olganim nuqtalar dostonning asl yurti, dostonning qayerda deb tushunilgani, dostonning bizning

adabiyotimizdagi o`rni va o`zgarishlaridan iboratdir”(106-bet) deb yozgan edi. Maqolada qayd qilinishicha, Fitratda shunday bir ilmiy asar yozish fikri ilgariroq tug`ilgan, “Farhod va Shirin pyesasining maydonga kelishi munosabati bilan esa uni amalga oshirish zarurati paydo bo`lgan edi.”¹⁵

Dastlab shuni aytish kerakki, Fitratning mazkur maqolasi Alisher Navoiy g`oyaviy-badiiy olamining insoniyat uchun ahamiyati haqidagi qarashlar endigina barqarorlashib borayotgan bir davrda yaratildi. Yigirmanchi yillardan boshlab o`zbek adabiyoti tarixining qator namunalari va birinchi navbatta, Alisher Navoiy ijodiga oid ilmiy asarlari bilan tanilgan Fitrat endilikda ulug` shoir qalamiga mansub alohida asarlarning keng tadqiqiga ham kirishgan edi. Buning yaqqol misoli olimning “Farhod va Shirin dostoni xususida” maqolasi bo`ldi.

Maqolada tahlil etilgan Umar Boqiyning “Farhod va Shirin” o`zlashtirma bayoni, Mahzunning “Qissasi Farhod va Shirin” qissasi aynan olim yashagan davr adabiy jarayonida faol iste`molda bo`lgan, xalqning Navoiy asarlariga bo`lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qilgan bayonlar edi. Fitrat maqolada ularning o`quvchisi emas, xolis tanqidchisi sifatida yondashadi, bor kamchiliklari va yutuqlarini ko`rsatib, xalq orasida dostonlarning tarqalishi va nasriylashtirishga sabab bo`lgan omillarni quyidagicha qisqa ta`kidlab o`tadi: “O`rta Osiyo turklari orasida bu dostonning Navoiydan burun qaysi darajada mashhur bo`lg`ani haqida qo`limizda material yo`q. Har holda Navoiydan keyin bu dostonning bizda shuxrat topib, ko`b o`qulg`ani onglashiladir. Hatto Navoiy tilining eskirgani, onglashilmas bir holg`a kirgani bilan doston eskirmaydir. Yangi-yangi yozuchilar bu dostonni soddaroq til bilan yangidan ishlab chiqarishni lozim ko`rarlar”(128). Xislat nashrga tayyorlagan Umar Boqiyning “Farhod va Shirin” nasriy bayoni o`z davrida mashhur bo`lib, nashriyotlarda qayta-qayta nashr etilgan. Fitrat maqolani yozish davomida qancha qo`lyozma, toshbosma nusxalarni diqqat bilan o`rganib chiqadi. Bu o`rinda maqolaning ilmiy qimmati bilan birga yanada qadrlirog`i bu – Fitrat yashagan davr va adabiy muhit. Toshbosma matbaalarda kitoblar muttasil chop

¹⁵ Xurshid “Farhod va Shirin” dramasi ustidagi ishini davom ettirib, keyinchalik uning Navoiy dostoni asosidagi yangi talqinini yaratdi. *Qarang:* Хуршид. Танланган асарлар. Тошкент, 1967.

etilayotgani, qizg`in borayotgan adabiy jarayon, shahar ziyolilarining nashr etilayotgan asarlarga munosabati va Fitrat ularni qay darajada tanigan, bilgan, munosabat bildirgan, ularni tasavvur qilishning o`zi ham kishini yaqin tarix sari eltadi. Xolisona tanqidchi Umar Boqiy asarlarini asliyatga qiyoslab tahlil qiladi, Mahzun qissasida esa she`riy parchalarda shoirning she`rlaridan aralash foydalangani, ayrim so`zlar kotib tomonidan buzib yozilganiga o`z e`tirozini bildiradi. Olim sof adabiyotshunos sifatida Navoiy dostonidan uzoqlashish va talqinlardagi noaniqlikni hazm qilolmaydi. Qo`lyozmalar zaxirasida Umar Boqiy bayonlarining manbalari bir qancha. Mahzun qissasining yagona toshbosma nusxasi mavjud. Fitrat ushbu manbani ko`zdan kechirib, hijriy 1335-yil nashr qilingani va muallifi haqidagi o`z taxminlarini ma`lum qilib o`tadi: “Asarning kim, qachon va qayda yozilg`ani ma`lum emas. Biroq she`rlardag`i Mahzun taxallusi bu asarning shu taxallusda bo`lg`an bir shoir tomonidan yozilg`anini ko`rsatadir. Biroq, bu Mahzunning kim ekanini tayin qilish qiyin. Asar juda juda yomon bir kotib tomonidan yozilg`an nusxaning bosmasi bo`lgani uchun yangilishi juda ko`b. Shuning uchun shoirning uslubi bilan yaxshi tanishib, uning, masalan, Umarxon zamonidagi Mahzun bo`lib qolmag`anini aniqlash ham mumkin bo`lmaydir”(129).

Keyingi yillardagi tadqiqotlarda Fitrat bergan ma`lumotlarga tayaniladi va asar muallifi Mahzun deb aniq aytiladi. Olim asar bilan shunchaki varaqlab emas, batafsil tanishib chiqqan. Syujetni asliyatga qiyoslab, Nizomiy, Dehlaviy dostonidan ta`sirlangan o`rinlarini muhokama qiladi. Fitrat bergan qimmatli ma`lumotlardan yana biri “Nasri Xamsai benazir” haqidagi fikrlar bo`lib, maqolada ushbu manbaga ham qisqacha to`xtaydi: “bulardan boshqa yana bir “Farhod va Shirin” dostoni bor. U so`nggi zamonlarda Mir Mahmud ibni Shoh Yunus tomonidan “Nasri Xamsai benazir” unvoni bilan nasrga aylantirilgan Navoiy “Xamsa”sining aynan nasrga aylantirilgani bo`lib, ayricha hech bir ahamiyatli nuqtasi yo`qdir”(131).

E`tibor berilsa, qisqa xulosada Fitrat qo`shimcha o`zgartirishlarsiz, Navoiy asaridan chetga chiqmagan “Xamsa”ning aynan nasrga aylantirilgan bayoni ekanligini nazarda tutmoqda. Mazkur jihatlariga ko`ra uni xalq og`zaki ijodidagi

boshqa variantlarga qiyoslashning hojati yo`q, kabi fikrlarni bildiradi. Olim bergan ma'lumotlar, bildirgan fikrlar alohida qimmatga ega. Sababi mazkur asarlarga bizdan ko`ra yaqinroq vaqt va masofada bo`lib, munosabat bildirib o`tishining o`zi ham bugun juda muhim. Fitratning mumtoz adabiyotni o`rganishga bag`ishlangan har bir tadqiqoti keyingi bajarilgan ishlarga tayanch, boshlang`ich manba bo`lib xizmat qilgan.

Fitrat tadqiqotda Xusrav, Shirin, Farhod nomlari bilan mashhur afsonalarning paydo bo`lish o`rnini, ularga asos qilib olingan voqealarning manzillari masalalarini oydinlashtirishga kirishar ekan, Firdavsiy, Nizomiy, Xusrav Dehlaviy va Navoiy dostonlarining tahlili davomida mavzu tarixiga oid har bir noaniqlikka diqqat qiladi. Afsona va uning qahramonlarining o`zgarib, takomillashib borishiga e`tiborni tortadi. Olimning bu xususdagi kuzatuvlari va xulosalarining ilmiy ahamiyati keyinchalik shu mavzuni davom ettirgan olimlarning ilmiy ishlarida ham ko`rinadi.

Fitrat "Xusrav va Shirin" dostonining dastlabki manbalari haqida bahs etganda Xusrav "melodiy VII asrda eron shohi edi. Bizning mavzumiz bo`lgan doston mana shu Xusrav Parviz bilan uning xotinlaridan Shirin haqida maydonga chiqqandir", - deb qayd etadi. Bu o`rinda Fitrat Xusrav Parviz va Shirin haqida VIII-X asrlarda xalq o`rtasida paydo bo`lgan va Abu Ja'far Muhammad Tabariyning "Tarixi rusul val-muluk", Ibn al-Foqih Hamadoniyning "Kitob ul-buldon", Shahobiddin Abu Abdulloh Yoqutning "Mu'jam ul-buldon", Muhammad Bal'amiyning "Tarixi Tabariy" kabi asaridan o`rin olgan rivoyat va afsonalarni ko`zda tutayotganligi anglashiladi.

Yigit Farhod va qiz Shirin haqidagi afsona asrlar bo`yicha yashab kelmoqda. Go`zal xalq afsonasiga aylanib ketgan bu hikoya "Xisrav va Shirin" nomi bilan shuhrat topgandir. Tarix kitoblarida shunday ma'lumotlar bor: Xisrav Eronning Sosoniy hukmdorlaridan bo`lgan mashhur No`shiravonning nabirasidir. Xisrav milodiy VII asrda Eron shohi bo`lgan. Muhammad payg`ambar qo`shni hukmdorlarga xatlar yuborib, musulmonlikni qabul qilishga chaqirganda ana shu Xisrav Parvezga xat yuborgan ekan. Tarixchilar Xisrav Parvez Muhammad

payg`ambarning bu xatini yirtib tashlagan edi, deb yozadilar. “Xisrav va Shirin” haqidagi doston esa VII-X asrlar o`rtasida yaratilgandir. Bu haqida Fitrat shunday yozadi: “Bizning mavzu`imiz bo`lg`an doston mana shu Xusrav Parvez bilan uning xotinlaridan Shirin haqida maydong`a chiqg`andir. So`ngralar Eron shoirlari bu dostonni xalq shoirlaridan olib bu mavzu`da turli dostonlar yozdilar. Dostonning bizga ma`lum bo`lg`an eng birinchi yozuvchisi 10-asrning mashhur fors shoirlaridan Abulqosim Hasan Firdavsiydir.”(106).

Firdavsiyning qadim Eron dostonlarini biluvchi va shu qadimiy dostonlardan foydalanib o`zining buyuk “Shohnoma” asarini yaratganligini bilamiz. Fitrat “Shirinu Xusrav” dostoni ham Firdavsiyga mustaqil doston sifatida yetishgan deb hisoblaydi. Chunki dostonda dastlab Xusrav Parvezning shahzodaligidan boshlab shoh bo`lishiga qadar hikoya qilinadi: uning shahzodalikda otasidan qochib Ozarbayjonga borgani, u yerdan qaytib otasi o`rnida shoh bo`lgani, Bahrom bilan urushib yengilgani, Sharqiy Rumo imperatoriga sig`ingani, imperatorning Maryam ismli qiziga uylanib, yordam bilan qaytib, Eron taxtiga yana o`tirgani kabi Xusrav Parvez hayotiga doir ancha narsalar yozganidan keyin “Dostoni Xusravi Parvez va Shirin” nomi bilan doston quyidagacha boshlanadi:

Kanun doston ko`hn nuknam,
Suhaxoi Shirin Xusrav ko`nam.
Ko`hn gashte in noma boston,
Z-i go`ftoru kardoron doston.

(Emdi eski dostonni yangilatay. Shirin bilan Xusravdan so`zlar so`zlay, ul to`g`ri kishilarning so`z va ishlaridan iborat bo`lg`an bu qadim doston eskirgandir.)

Dostonning boshlanish qismiga qarab Fitrat shunday xulosa chiqaradi: “mana shu boshlanish ko`rsatadirki, “Shirinu Xusrav” dostoni Firdavsiyga ayrim bir mustaqil doston shaklida yetishgan. U Xusrav Parvez haqida boshqa dostonlardag`i ma`lumotni bergandan keyin ayrim bir doston bo`lg`an “Shirinu Xusrav” dostonig`a (yuqoridag`i boshlang`ich bilan) kirishadir. Firdavsiyga ko`ra bu doston tubandagichadir ” deb voqealar bayonini keltiradi.

“Shohnoma”da Firdavsiy bizda mashhur boʻlgan Farhod haqida hech narsa bilmaydi. Eron shohi Xisrav ovda yurib Shirinni koʻrib qoladi, sevadi va uylanmoqchi boʻladi. Lekin Shirin podsholar naslidan emas edi. Shuning uchun Xisrav atrofidagi kishilar shohning unga uylanishiga qarshi turadilar. Dostonning oʻzida Firdavsiy Shirinni “goʻzal choʻpon qizlaridan” deb taʼriflaydi va Fitrat bunga quyidagicha izoh beradi: “Firdavsiyning shu soʻzidan Shirinni eronli bir choʻpon qizi deb qabul qilgʻani onglashilmaydirmi? Firdavsiy dostonida Xusrav Shiringa uylanmoqchi boʻlgʻanda Eron ulugʻlarining “aslzoda emas” deb qarshiliq koʻrsatishlari ham shuni quvvatlaydir”(134).

Xisrav yurt kattalarini majlisga chaqirib, ularni koʻndiradi va Shiringa uylanadi. Xisravning avvalgi xotini Maryamdan boʻlgan oʻgʻil Shiruya oʻz otasi Xisravni oʻldirib, Eron shohligini oʻz qoʻliga oladi va Shiringa uylanmoqchi boʻladi. Shirin esa Xisrav qabrida zahar ichib oʻladi. Firdavsiyning dostonida Farhod boʻlmagani kabi Shopur ham yoʻqdir.

Fitrat “Shohnoma”da “Xusrav va Shirin” hikoyatiga muayyan oʻrin bergan Firdavsiyni tarix va afsonalarning katta bilimdoni sifatida xarakterlaydi. Darhaqiqat, Eron shohlari va baxodirlari haqidagi manbalarni koʻzdan kechirgan va “Shoxnoma”da ularni mahorat bilan badiyat olamiga olib kirgan Firdavsiyning Xusrav va Shirin sarguzashtiga oid boy maʼlumotlarga egaligi ham shubhasizdir. Fitrat tadqiqotda Firdavsiy “Shohnoma”sidan oʻrin olgan “Xusrav va Shirin” dostonidan xarakterli bir lavhaga diqqatni tortadi.

Xusrav Shirin bilan tanishganidan keyin toju-taxt kurashlari va shoxona aysh-ishratlar bilan boʻlib bir muddat Shirindan uzoqlashadi. Maqolada shu munosabat bilan Shirinning Xusravga qarata aytgan xitobnomasi keltirilgan:

Bedon abdori va on nikuyi,
Zabon tizb kushod bar Paxlavi.
Ke shoxo, haj baro siphabd tino,
Hajaste kavo, kard shir ovajno.
Ki jo on hame ruz kardan bashab,
Dilu dide giryon va handon du lab.

Ki jo on hame harupiu nadmo,

Ki jo on hame ahdu sugand mo.

Mazmuni: Shirin suluvligi va go`zalligi bilan o`tkur til ochib qadim forsiychada: “Ey podshoh, ey yo`lbars, ey askar boshlig`i, ey muborak botir, ey arslondan yuqori polvon, yig`lab-kulibtun-kunni o`tkarganlarimiz qani? Bir-birimizga muhabbatimiz, bog`lanishimiz qani? Ahdlarimiz, ontlarimiz qayoqqa ketdi?”(108)

Fitrat bu misralarda asosli ravishda katta muhabbat dostonining belgilarini ko`radi va Firdavsiy o`z dostonida mavzuga oid qo`lida mavjud bo`lgan hamma materialni istifoda etmagan, degan fikrga keladi. Darhaqiqat, ko`proq o`tmishning qahramonlik sahifalarini jonlantirish yo`lidan borgan Firdavsiy Xusrav bilan Shirin o`rtalaridagi muhabbat tarixiga keng yondashmadi.

Firdavsiydan so`ng undan ikki yuz yil keyin XII asrda yashagan mashhur Ozarbayjon shoiri Nizomiy Xisrav va Shirin to`g`risidagi hikoyani yangidan ishlab, zo`r bir doston yaratgan. “Xisrav va Shirin” dostoni Nizomiy “Xamsa”sidagi dostonlarning biridir. Nizomiyning bu go`zal dostonida qahramonlar yana Xisrav bilan Shirindir. Farhod obrazi ikkinchi darajada turadi. Shopur obrazi esa bir usta rassom va hiylakor sayyoh sifatida bo`lib, Xisravning suhbatdoshidir. Shirin haqidagi xabarni ham Xisravga Shopur yetkazadi.

Fitrat adabiyotda an`anaga aylanib borayotgan mavzu tarixida ulug` ozarbayjon shoiri Nizomiy “Xusrav va Shirin”ini muhim bir bosqich sifatida baholaydi. Dostonning qadimgi manbalari masalasiga to`xtab, “Nizomiy Eronda Firdavsiydan ilgari ma`lum bo`lgan bu dostonning hammasini oladir va o`zi, shubhasiz, san`atkor o`tkir qalami bilan chiroyli bir shaklga solib, buning fors va turk adabiyotidagi muhim mavqeini ta`min etgan bo`ladir” deb yozadi. Nizomiy asariga berilgan ana shu munosib bahodan keyin Fitrat “Xusrav va Shirin”dagi Shirin va Farhod obrazlari haqida bahs etadi.

Fitratning qayd qilishicha, Xurshid tomonidan yaratilgan “Farhod va Shirin” dramasining dastlabki talqinida “Shirinning yurti Arman otindagi bir qishloq, Shirin ham bir o`zbek qizi” bo`lib qolgan edi. Fitrat tarixdan, tarixiy haqiqatdan bu

zaylda uzoqlashishni nuqson deb biladi va Shirinni Nizomiyning “Xusrav va Shirin”idan boshlab arman qizi sifatida ko`rsatilishini alohida masala qilib qo`yadi. Bu dostonga Sharq adabiyoti qamrovida keng nazar bilan qarash edi. O`z fikrlarini asardan quyidagi parchani keltirish orqali isbotlaydi: Dostonda usta bir rassom va aldamchi (hiylagar) bir sayyoh tipida ko`rsatilgan Shopur Xusravning nodimi, suhbatdoshidir. U Xusravga o`zining sayohat xotiralaridan gapirib turg`anda Shamiro ismli bir xotun podshohdan so`z ochadir va tubandagicha ma`lumot beradir:

Zi on ko`histon manzili chand,
Kabo shud Farhod rioi darband.
Zani farmond xast az nasli shohon,
Shuda jush sirohash to sipohon.
Shamiro nom dorad on jahongir,
Shamiro ramhin bo navad tavsid.
Neshast xuyish ro dar har havo,
Behar fasli muhayyo karde joi.
Be kasalgil be muqon ast joyash,
Ke to sirsabz boshad hok poyash.
Be tobiston shaved bar ko`h arman,
Xuromad kal bakal xiromon be xirmon.
Be hangom g`azon oyid bob a joz,
Ko`nad bor gardon naxjir parvoz.
Zimistonash be bo`rde` mayl siyrost,
Ke bo`rdi`ro havo karmsir ast.

Mazmuni: “Tog`larning narigi tomonida Derband daryosig`a yaqin bir necha joylar bor. Onda ko`p askarlari bor bir xotun bor. Oti Shamirodir. Shamironing forsiycha tarjimasi Mehinbonu bo`ladir. Bu xotun podshoh yilning har faslida boshqa joyda yashamoq uchun o`runlar tayyorlag`an: bahorda Muqonda, yozda Arman tog`ida, kuzda Anchazda, qishda esa Bardada yashaydir, chunki Bardaning havosi issig`dir.”(134)

“Xusrav va Shirin”da Mehinbonu (Shamiro) hukmronligiga oid keltirilgan ushbu misollarga asoslanib, Fitrat “bundan yaxshi ko`rinadiki, Nizomiy Shirinni arman qizi deb bilgan”(111) deb yozadi.

Shirinni arman qizi sifatida atash an`anasi Nizomiy dostonidan boshlandi. Shuning uchun bo`lsa kerak, Fitrat bu xususda Nizomiygacha bo`lgan manbalarga murojaat etmaydi va o`z xulosalarida Nizomiydan boshlab shakllangan va keyincha Xusrav Dehlaviy va Alisher Navoiy tomonidan davom ettirilgan an`anaga asoslanadi.

Nizomiyning “Xusrav va Shirin” dostonidan boshlab hikoyaga Farhod obrazining kirib kelishi munosabati bilan uning manbalari masalasi ham ko`pchilikni qiziqtirar edi. Nizomiy dostonida Farhod oddiy toshtarosh hunarmand. U “Xusrav va Shirin” dostoniga qo`shilgungacha ham 10-asrdan boshlab shoirlarning she`rlarida “ko`hkan”, “xorokan” sifatlari bilan qo`llanib keldi. Farhod tog` ishlarining ustasidir. Nizomiy dostonida ham u Shirin uchun sut arig`i qazib beradi. Xusravning topshirig`i bilan Besutun tog`i orqali yo`l ochishga kirishadi. Toshlarga Shirinning suratini chizadi. Farhodning qadimgi tasavvurda tog` ishlarining homiysi, toshtaroshlar xudosi sifatida mifologiya bilan bog`lanishi haqida ilmiy adabiyotlarda fikrlar mavjud. Badiiy adabiyotda esa u ko`pincha Besutun tog`i bilan aloqador qahramon tarzida tasvirlanadi. Bu hol Nizomiy dostonining yuzaga kelishi bilan mustahkam an`anaga aylanadi. Fitrat o`z maqolasida Farhod obrazining manbalarini shu Besutun tarixidan izlash kerak, degan fikrda bo`ladi va “Nizomiy va butun fors adabiyotidagi an`anaga ko`ra, go`yo Farhod tomonidan qazilgan tog` Eronning g`arbidagi osori atiq – qadimgi Eron tarixiga oid suratlari bilan ma`lum bo`lgan Besutun tog`idir, Farhod ko`hkan afsonasining Eronda chiqishi Besutun tog`idagi shul ajoyib suratlar sabababini o`ymoqqa bog`laydir”, - deb yozadi.

Besutun tog`i devorlariga ishlangan suratlar haqida Nizomiygacha ham turli rivoyat va afsonalar mavjud edi. Ularni Nizomiy ham “Xusrav va Shirin”da eslab o`tadi. Fitratning Farhod obrazining shakllanishiga zamin bo`lgan Besutundagi suratlar haqidagi ta`kidlarida yuqoridagi manbalar ko`zda tutiladi, deyishdan oldin

olimning soʻzlariga yana bir bor diqqat qilamiz. Fitrat maqolada Farhod – Koʻhkan afsonasining paydo boʻlishi Besutun togʻidagi rasmlar bilan bogʻliq holda tugʻilgan boʻlsa kerak, degan fikrni bildirar ekan, bir oʻrinda “tarixiy rasmlar” iborasini qoʻllaydi. Maʼlumki, manbalar Besutun togʻi devorlaridagi “Xusrav va Shirin” hikoyati bilan aloqali afsonaviy suratlardan tashqari uzoq tarix bilan bogʻliq yana anchagina odam shakllari va yozuvlar borligi haqida ham xabar beradilar. Ulardan anglashilishicha, Eronda hukmronlik qilgan ahamoniylardan Doro oʻz hokimiyatini mustahkamlab, Midiya, Sattagiya, Parfiya kabi bir necha chekka oʻlkalarni ham oʻz tasarrufiga oladi. Shunda Doro hokimiyatiga boʻysinishni istamagan qator shaharlarda isyon koʻtariladi. Margʻiyonada koʻtarilgan shunday junbushlardan biriga Fraga ismli bir kishi rahbarlik qilgan edi. Doro ikki oʻrtadagi koʻp jangu jadallardan keyin Fragani asir oladi va uni qiynoq bilan oʻldiradi¹⁶. Doro oʻzining shu gʻalabasi tafsilotlarini turli tasvirlar bilan Besutun togʻiga yozib qoldirib, shon-shuhrat orttirmoqchi boʻladi. Lekin togʻ-toshlariga surati chizilgan jasur Fraganing shuhrati uzoqlarga yoyiladi, rivoyat va afsonaga aylanadi. Tarixda Doro bilan Fraga oʻrtasida boʻlib oʻtgan toʻqnashuv afsonalarga goʻyo Xusrav va Farhod oʻrtalaridagi ziddiyat tarzida koʻchadi. Tabiiyki, bu talqinlarda farazlarga ham yoʻl qoʻyilgan. Lekin Besutundagi surat va yozuvlar tarixdir, haqiqatdir. Hozir Fitratning oʻz tadqiqotida Besutundagi qaysi suratlarni koʻzda tutayotganligini aytish qiyin boʻlsa-da, olimning Oʻrta Osiyo, Yaqin Sharq tarixidan mukammal xabardorligini aytish juda muhimdir.

Fitrat Farhodi – Koʻhkan afsonasining Besutundagi suratlar bilan aloqali ravishda paydo boʻlishi haqidagi fikrlarini uzil-kesil qilib qoʻymaydi, kelgusi tadqiqotlar uchun zamin yaratadi, turtki beradi.

Oʻtgan asrning oxirlari va asrimizning boshlarida Alisher Navoiy merosiga murojaat etgan rus gʻarbiy Ovrova sharqshunoslari u yashagan davr, uning hayoti, ijtimoiy faoliyatiga oid bir qator ahamiyatli kuzatishlari bilan birga koʻp hollarda shoirning asarlari haqidagi tasavvurni mavhumlashtirib yubordilar. Navoiyni “taqlidchi”, “tarjimon” degan asossis qarashlar yuzaga keldi. Bu ishlardan Fitrat

¹⁶ Древние авторы о Средней Азии. Ташкент, 1940, с 33.

yaxshi xabardor edi, albatta. Ehtimol, olim ushbu maqolasining o`sha qarashlarga javob bo`lishini ham ko`zda tutgandir. Fitrat xolis yo`l tutib “taqlidchi emas”, “tarjimon emas” degan gaplardan chekinadi. Uning asarida hech qayerda Navoiyning Nizomiydan, Nizomiyning esa Firdavsiydan ustunligini da’vo qiluvchi fikrlarga yo`l berilmaydi. Olim Sharq adabiyotining katta bilimdoni sifatida bir-biriga yaqin ijodiy prinsiplar asosida rivojlanib kelgan turkiy va forsiy tillardagi adabiyotlarning boy olami ichiga kirib borib, “Farhod va Shirin” qissasining ildiz va novdalarigacha, shu novdalardan bahra olgan payvandlarini xolis ko`zdan kechiradi.

Fitrat Alisher Navoiy “Farhod va Shirin”ining mavzu tarixida yangi bir hodisa sifatida yuzaga chiqqanligini xarakterli misollarda ko`rsatib bergan. Mavzu bor edi, mavzu tarixida hodisalar yuz bergan edi (Nizomiy “Xusrav va Shirin”), “Farhod va Shirin” yangi bir hodisa bo`ldi. Fitrat o`z tadqiqotida Navoiy dostonining tarkibiy qismlariga murojaat qilgani holda shu haqiqatni oydinlashtirishga harakat qiladi. Shu asnoda uning E.Bertelsning “Navoiy va Attor” maqolasini eslashi, uni Navoiy asarlarining original xususiyatlari haqida bahs etuvchi “Eng foydali birinchi ish” sifatida qayd qilishi juda muhimdir: “Navoiyning Nizomiy, Attor, Xusrav kabi fors shoirlarig`a tarjimachi deb o`ylash hali ham ilm ahli orasidan tamom yo`qolg`an emas. Buning yangilishlig`in, Navoiyning quruq tarjumachi emasligini isbot qilmoq uchun eng foydali birinchi ishni pro`fesso`r Bertels boshladi. Pro`fesso`rning “Navoiy va Attor” ismli asarida bu to`g`rida juda foydali ma`lumot bor. Bu asar 1928-yilda Leningradda bosilg`an.”(116)

Maqolada Firdavsiyning “Shohnoma”sidan keyin Nizomiy “Xusrav va Shirin”ining qisqacha mazmuni keltiriladi. Eronda ko`bdan beri ma`lum bo`lgan bu doston Nizomiyning usta qalami bilan shaklga kirgandan keyin fors shoirlari orasida taqlidlar boshlanadi. O`zini Nizomiyga o`xshatgan, Nizomiy bilan bo`y o`lchamoqchi bo`lgan shoirlar “Xusravu Shirin” dostonini yozib ko`radi. Tabiiy ravishda ular dostonidagi voqeani ozmi ko`pmi o`zgartirishga, ba`zi joylarini kamaytirib-ko`paytirishga urinadi. Ana shunday Nizomiy taqlidchilaridan eng

mashhuri 14-asrning birinchi yarmida yashagan Amir Xusrav Dehlaviydir. U ham dostonini Nizomiy kabi boshlab, shu kabi bitiradi. Fitrat ham ushbu dostonga ko'p to'xtalishni xohlamaydi: "Men Xusravi Dehlaviy va Nizomiy dostonlari orasida bo'lg'an ayrim nuqtalarni, ayrim o'zgarishlarni ko'rsatishga urinmayman, uzoqqa cho'ziladir. Biroq, shu maqola uchun juda kerak bo'lg'an bir nuqtani qayd qilib ketaman. Xusravi Dehlaviyg'a ko'ra, Farhod Chin hoqonining o'g'li bo'lg'an. Saroy toshchilarining ishlariga havas qilib, toshchilikni o'rgangan. Otasi uning bu ishidan xabar olg'ach, uni o'lkadan quvg'an. U g'ariblikda yurar ekan, Shiringa uchrag'an"(114). Deb navbatni XV asrning mashhur chig'atoy shoiri Navoiyga beradi. Navoiy Xusravni yoqtirmaydi. U Farhodni o'ldirishga uringan, qolaversa klassik shoirlarning "ishq majnuni"dan xabarsiz bir odam. U bir kun Maryam, bir kun Shakar, boshqa kun esa Shirin uchun yonadi. Ishq yo'lida podshohlik kuchidan foydalanadi. Bu xususda Fitrat: "Navoiy asarning birinchi daraja qahramoni qilib, Farhod bilan Shirinni oladir. Nizomiyning, aksincha, Xusravi Parvezni 2-daraja bir qahramon qilib, voqeaning o'rta yeriga kirgizadir. Farhodni Navoiy komil bir inson tipida oladir"(116),-deb yozadi. Va maqolada Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoniga kiritilgan o'zgarishlarni aytishga va o'z o'rnida izohlab ketishga harakat qiladi. Navoiy Farhodni Chin hoqonining o'gli, ya'ni shahzoda deb olishini Dehlaviy va Nizomiydan ta'sirlangan deb hisoblaydi. Farhod uchun qurilgan to'rt faslda to'rt qasrni Nizomiyning Mehinbonusidan va bu qasrlarni to'rt xil rangda bo'yalishini Nizomiyning "Haft paykar"idagi Bahrom qasrlaridan ilhom olib yozganligini aytib o'tadi. Shuncha ishdan so'ng ham Farhod qayg'uli, mungli! Xoqon bu holni ko'rgach hayron qoladi, yana boshqa chora ko'radi. Farhodga o'z taxtini topshirib, o'zi podshohlikdan ketmoqchi bo'ladi. Farhodni yoniga chaqirib taxtini taklif qiladi. Farhod ko'b uzrlar aytib, siz tirik ekansiz men bu ishni qilmayman deydi.

Fitrat ushbu voqeaning dostonga kiritilishini quyidagicha izohlaydi: "Navoiyning doston orasida maxsus bunday faslni kirgizishi o'z shahzodalari bo'lg'an Husayn Boyqaro bolalarig'a "Axloqiy bir dars" bermak uchundir. Ma'lumki, temuriylar zamonida o'g'ulning otag'a isyon qilishi, hatto otani o'ldirib

tojini olishi, bo`lib turg`an voqealardan edi. Ayniqsa, Navoiyning hukmdori bo`lg`an Husayn Boyqaroning o`g`ullari navbat bilan otalarig`a isyon ko`tardilar va har daf`asida Navoiy orag`a kirib, sulx qildirg`an edi. Mana shu shahzodalarg`a nasihat bo`lsun uchun Navoiy kitobida shu faslni kirgizadir”(120).

Fitrat doston voqealarini batafsil aytib berishni davom ettiradi va bir o`rinda Navoiy ham Shirinni arman qizi deb hisoblaganini aytib o`tadi:

“Ketur, soqiy, manga ishrat ayog`in,
Ki davron berdi maqsudim so`rog`in.
Meni chun qildi mohi armani zor,
Chekay bir necha sog`ar armanivor.

Mana shu to`rt misrali soqiynoma Navoiyning ham bu dostonning Armanistonda bo`lg`anig`a, Shirinning arman qizi ekaniga ishong`anin bildiradir”(121).

Maqolada bir necha o`rinda Nizomiy “Xusrav va Shirin”i bilan muqoyasali kuzatuvlar mavjud. Shu jarayonda Fitrat Navoiy va Nizomiy dostonlarining muhim bir jihatini ta`kidlab o`tadi. U Nizomiy dostonidagi Bahrom Cho`bin va Navoiy “Farhod va Shirin”idagi vazir Mulkoroning o`g`li Bahrom obrazlari munosabati bilan so`z ochib, “Navoiy o`z dostonini Nizomiynikidan boshqacha shaklga qo`ymoq uchun ko`proq tarixiy asarlarga emas, hayolga tayanadi”, degan juda muhim xulosani bildiradi. Darhaqiqat, Nizomiyning o`zi doston muqaddimasida ham qayd etganidek, “Xusrav va Shirin” afsonasi “nihon” emas edi. Arab va fors tarixchilarining asarlarida, xalq orasida uning bir-biriga yaqin talqinlarini uchratish mumkin edi.

Nizomiy “Xusrav va Shirin” dostoni ustidagi ishida shu manbalardan keng foydalandi. Lekin “Xusrav va Shirin”da qadimgi afsonalarning Nizomiy dahosi bilan katta romantik doston darajasiga ko`tarilganligini alohida ta`kidlash kerak. Nizomiy Sharq dostonchiligida ishqiy-romantik uslubning boshlovchisidir. Shoir dostonchilikka inson ruhiyati talqinlarini olib kirdi va bu uslub keyincha Sharq epik poeziyasining yetakchi xususiyatiga aylanib qoldi. Nizomiy shu bilan birga

syujet va obrazlar tuzilishida qadimgi manbalar bilan ham aloqadorlikni saqlab qoldi.

Tarixda o'tgan Xusrav Parviz va uning xotini Shirin shaxsiyatlari atrofida paydo bo'lgan afsonalarning dastlabki variantlarida hali Farhod obrazi uchramaydi. Farhod "Xusrav va Shirin" afsonasiga keyinroq kelib qo'shildi. Dastlabki manbalarda uning faoliyat doirasi ancha cheklangan edi. Farhod Shiringa sut arig'i qazib berar ekan, uni sevib qoladi. Natijada Xusrav bilan Farhod o'rtasida ziddiyat paydo bo'ladi va bu Farhodning hiyla bilan o'ldirilishi orqali xotima topadi. Demak, Navoiy an'anadan qay darajada bahramand bo'lmasin, o'z dostonida Farhodning mufassal sarguzashtini, uning Shirin bilan munosabati tarixini tasvirlashda yangi bir yo'ldan boradi. Qahramonlarning faoliyat makoni ham, xarakteri ham o'zgaradi. Fitrat "Farhod va Shirin"da Navoiyning o'z g'oyaviy-badiiy qarashlari boshqacha ekanligini ta'kidlab, uni Nizomiyning tarjimachisi emasligini isbotlash uchun ikkala dostonidagi Xusrav va Farhod o'rtasidagi bahsni maqolasida yonma-yon keltiradi va maqsadiga erishadi. Fitrat yuqoridagi fikrlariga asoslanib o'z maqolasini quyidagicha xotimlaydi: "...Navoiydan keyin bu doston O'rta Osiyoda yashagan turklar orasida keng yoyildi, ko'b o'quldi. O'zbek shoirlari bu doston ustida yangidan ishlab, tilini soddalashtirib, yangi asarlar yozdilar. Xalq orasida yoyilgan bu dostonning ta'siri bilan Farhod tog'i, Shirin soyi kabi ismlar chiqdi. So'ng o'zbek shoirlari tomonidan yozilgan "Farhodu Shirin" dostonlarida Navoiy ta'siri ko'brak bo'lsa ham, Nizomiy va Xusrav ta'siri ham bor. Fikrimcha, bu dostonning Erondagi shakli burung'i Eron, Armaniston o'lkalari orasida sosoniy hukmdori Xusravi Parvez zamonida bo'lgan munosabatlarning xalq misolida qolg'an izlari yordamida chig'gan bir afsonadir. "Farhod – Ko'hkan" afsonasi esa, G'arbiy Eronda qasri Shirindan ko'b uzoq bo'lmagan Besutun tog'idagi tarixiy rasmlar haqida tug'ilgan bo'lsa kerak".

Fitratning o'z davrida muhim yangilik sifatida e'tirof etilgan "Farhodu Shirin" dostoni to'g'risida" nomli maqolasi keyingi ishlarga asos bo'lib xizmat

qiladi. Fitratdan keyin bu yo`nalishdagi tadqiqotlar M. Afzalov¹⁷, N. Mallayev¹⁸, S.Erkinov¹⁹ tomonidan davom ettirildi, izlanishlar asosida yangi ma'lumotlar bilan boyitib borildi. Keyingi yillardagi A. Erkinovning "Alisher Navoiy "Xamsa"si talqinining XV-XX asr manbalari", A.Hayitovning "Alisher Navoiy "Xamsa"sini nasriylashtirish: an'ana, tabdil va talqin" kabi tadqiqotlarda ham nasriy bayonlar haqida ma'lumot beruvchi dastlabki manba sifatida ushbu maqolaga tayaniladi.

1.2. Fitratning "O'zbek adabiyoti namunalari" majmuasi hamda ilmiy maqolalarida Alisher Navoiy ijodining o'rganilishi

Fitrat mumtoz adabiyotimiz tarixi haqidagi ilmiy tadqiqotlarida, adabiy mavzulardagi maqola va taqrizlarida adabiyotshunos olim sifatida Alisher Navoiyning ijodini sinchkovlik bilan o'rgandi. Jumladan Fitratning 1928-yilda nashr qilingan "O'zbek adabiyoti namunalari" nomli majmuasida Navoiyning deyarli barcha asarlariga murojaat qilib, milliy adabiyotimizning nodir namunalari jamlaganligi hamda uni keng xalq ommasiga yetkazish ishiga bel bog'laganligi Navoiyning shaxsi va ijodiga yangicha munosabat, yangicha qarashning ilk mahsuli edi. Quyida uning bu xizmatlari barobarida lug'atchilik sohasidagi, ya'ni Navoiy asarlari tilida qo'llangan so'zlarning izohi masalasidagi izlanishlari haqida fikr yuritmoqchimiz. Navoiyning avlodlariga qoldirgan saboqlari bisyor bo'lib, shulardan biri uning til, so'z haqidagi saboqlaridir. Fitrat bu masalaga alohida e'tibor qaratgan holda majmuada "Muhokamat-ul-lug'atayn" asaridagi mutafakkir shoir qo'llagan so'zlarning ma'no, mazmun-mohiyatini yoritishga harakat qiladi, o'sha davr kitobxoni uchun tushunarsiz bo'lgan sof turkiycha, arabcha va forsha so'zlarni sharhlab, izohini havolalar yoki maqola oxirida maxsus lug'at tarzida berib o'tadi. Muallif "Muhokamat-ul-lug'atayn" asaridan namunalar keltirar ekan, Navoiy keltirgan fors tilida muqobili bo'lmagan yuzga yaqin sof turkiycha fe'lni o'ziga xos tarzda sharhlaydi. Masalan, quvarmoq (turli tusda ko'rinmoq), iglanmak

¹⁷ Афзалов М. "Фарход ва Ширин"нинг халқ варианты ҳақида" Филол.фан.номз. ... дисс.-Т.:1950.

¹⁸ Маллаев Н. Алишер Навоий ва халқ огзаки ижодиёти. –Т.:Адабиёт ва санъат, 1974.-Б.223.

¹⁹ С.Эркинов. Алишер Навоийнинг "Фарход ва Ширин" достони ва уни қиёсий ўрганишнинг баъзи масалалари. Филол.фан.номзодлик дисс.-Т.:1974. -339 б.

(mahkamlanmoq), sig`riqmoq (qochmoq), chiqanmoq (oyoq osti bo`lmoq), kunkurdamak (qarimoq), yodamoq (holsiz qolmoq), jirg`amoq (kayf-safo qilmoq), o`sanmoq (bezmoq) kabi fe'llarning “Muhokamat-ul-lug`atayn” asarining Parij, Boqchasaroy, Qo`qon nusxalarida berilishini biri-biriga solishtiradi va ayni paytda matndagi xatoliklarni ham ko`rsatib o`tadi: “...Qiqzamoq: Parij bosmasida shunday yozilg`an. Qo`qon bosmasida “qingramoq” shaklida ko`rsatilgan, to`g`risi shu “qingramoq”dir”...; “...mung`aymoq: “munqlanmoq”. Qo`qon bosmasida “mungg`anmoq” yozilg`an, yangilishdir...”²⁰.

Ko`rinadiki, professor Fitrat matndagi sof turkiycha so`zlar ma`nosi va uning izohiga jiddiy e`tibor qaratgan, chunki bu o`rinda Navoiy asarlari mazmunini o`z holicha keng xalq ommasiga yetkazish vazifasi birinchi galdagi vazifa hisoblansa, o`sha davr, ya`ni XX asr boshlaridagi adabiy tilimiz leksik fondidagi arabcha hamda forsha leksemalarni turkiycha so`zlar bilan almashtirish zarurati, kerakli o`rinlarda mumtoz badiiy asarlarimiz tilidan ular o`rniga sof turkiycha muqobillarini topish vazifasi ham kun tartibidagi masalalardan edi. Shuningdek, muallif so`zlar izohi jarayonida Alisher Navoiy keltirgan turkiycha ish-harakat so`zlarini Mahmud Qoshg`ariyning “Devonu lug`otit turk”, Sulaymon Buxoriyning “Lug`ati chig`atoyi va turki usmoniy” (XIX asr) asarlarida berilgan variant bilan o`zaro muqoyasa qiladi: “...Quvarmoq: “turlicha tusda ko`rinmak”. Shayx Sulaymonning “Lug`ati chig`atoyi”da “quvadmoq” yozilg`an, bu bosmaxona yangilishdir...”; “...Jijchaymoq: anglashilmadi. Shayx Sulaymon lug`atida “qattig` kulmoq” ma`nosida “jirjaymoq” so`zi bor. Balkim buning ham to`g`risi shudir...”²¹.

E`tibor berganimizdek, muallif Navoiy keltirgan turkiycha so`zlarning to`g`ri izohini berishda nihoyatda ehtiyotkorlik bilan ish tutgan, imkon qadar so`zlar ifodalagan to`g`ri ma`nolarni izlab topishga, ba`zida esa ishonchli manbalar asosida ma`lumotlar olishga harakat qilgan.

²⁰ Фитрат. Ўзбек адабиёти намуналари. «Мумтоз сўз» нашриёти, 2013, 290 б.

²¹ Фитрат. Ўзбек адабиёти намуналари. «Мумтоз сўз» нашриёти, 2013, 290 б.

“O‘zbek adabiyoti namunalari”ning ko‘lamli bir bo‘limi temuriylar davr adabiyotini o‘zida aks ettirgan bo‘lib, “savdo sarmoyasi davri”, “chig‘atoy adabiyoti” atamaları ham bevosita mana shu adabiy davrga nisbatan qo‘llanilgan. Temuriylar davri adabiyotining alohida mana shu nom bilan o‘rganilishidan qoniqmagan “munaqqidlar” bu davr o‘zbek proletar adabiyotiga asos bo‘lolmaydi, degan talab bilan mumtoz adabiyotdagi eng sermahsul davrlardan birining adabiyotimiz tarixidan muhim o‘rin olishga qarshi turganlar. Ayniqsa, Boybo‘latov ochiqdan ochiq Fitratga va uning majmuasiga so‘z boshi yozgan Otajon Hoshimga siyosiy ayblar taqash yo‘lidan borgan.²² Bu nohaq tanqidga javoban Fitrat va Otajon Hoshim alohida maqolalar²³ bilan chiqib, temuriylar davri adabiyotining maxsus o‘rganilishi yangi tipdagi adabiyotni yaratish ishiga xalaqit bermasligi, aksincha, yangi adabiyot o‘zbek mumtoz adabiyotining nisbatan boy davri hisoblangan chig‘atoy adabiyotidan oziqlangandagina mazmunan boyishi va rang-baranglashishi mumkin ekanligini ko‘rsatib berganlar. Bu mubohasaga yakun yasagan E.Bertels “chig‘atoy adabiyotidan uzilib qolish, begona namunalarga taqlid qilishni keltirib chiqaradi” degan xulosaga kelgan.²⁴

Fitratning nazarida, temuriylar davri adabiyoti bevosita ulug‘ jahongirning nomi bilan bog‘liq asardan boshlanishi kerak edi. Shuning uchun ham olim yozadiki, “Temuriylar davrining eng birinchi namunasi qilib, Temurning o‘z tilidan balki o‘z tomonidan yozilgan “Tuzuki Timur” yo “Tuzukoti Temuriy” otlari asarlarini ko‘rsatish kerak. Baxtga qarshi bu kitobning asl chig‘atoychasi bizning qo‘limizda yo‘q. Shuning uchun temuriylar davrining eng birinchi asari qilib, Durbekning “Yusuf, Zulayho” kitobini olishdi. So‘ngra qatorlanib Otoy, Luti, Boyqaro, Navoiy, Bobur kabi mashhur chig‘atoy shoirlarining asarlari keladi”²⁵. Bu shoirlarning ijodidan “O‘zbek adabiyoti namunalari”da ayrim parchalarni berish bilan cheklanmagan muallif Navoiy, Husayniy va Bobur haqida bir qator

²² Болтабоев Х. “XX аср бошлари узбек адабиётшунослиги ва Фитратнинг илмий мероси” Филол.фан.номзодлик дисс.-Т.:1996. 33-бет

²³ Ўша манба 33 б.

²⁴ Ўша манба 34 б.

²⁵ Фитрат. Ўзбек адабиёти намуналари. «Мумтоз сўз» нашриёти, 2013, 290 б.

tadqiqotlar yaratgan, nazariy ishlarida bu “chig`atoy” shoirlarining asarlariga murojaat qilgan.

Abdurauf Fitratning ilmiy merosida Navoiy ijodiga doir ko`plab muhim ma`lumotlar mavjud. Uning “XVI asdan so`nggi o`zbek adabiyotiga umumiy bir qarash” maqolasi 1929-yilda “Alanga” jurnalida chop etilgan. 1992-yilda esa, “Navqiron Buxoro” ilmiy va adabiy-badiiy jaridasida (6-son, 18-25-bet) qayta nashr etilgan. Olimning ushbu maqolasi ijtimoiy-tarixiy sharoitning teran tahlili bilan boshlangan. Maqolani mutolaa qilar ekanmiz, muallif ko`z o`ngimizda o`zbek va tojik tillarida yaratilgan adabiyot hamda adabiyotshunoslikning chuqur bilimdoni, iste`dodli she`rshunos olim sifatida namoyon bo`ladi. Fitrat mazkur maqolasida XVI asrdan to milliy uyg`onish davri o`zbek adabiyotining ilk bosqichi (XIX asr oxirlari)ga qadar yashab ijod etgan adiblar, ular tomonidan yaratilgan adabiy-badiiy asarlarning nomlarini qayd etish bilan cheklanmasdan, ayrim asarlarning g`oyaviy yo`nalishi, badiiy xususiyati, uslubi va tilini ham talqin etadi. Maqolada ilk marta “chig`atoy davri adabiyoti”, xususan, Alisher Navoiy ijodi bilan har tomonlama chog`ishtirilgan, ular orasidagi farqlar misollar asosida isbotlangan. Maqola til va adabiyotimiz tarixini o`rganishga bag`ishlangan dastlabki tadqiqot ishlaridan biri sifatida qadrlidir.

O`tgan asr boshlarida millatimizning shunday fidoyilari yetishib chiqdiki, ular kishilarda milliy ruhni uyg`otishda, milliy ongni o`stirishni tilga g`oyat katta ahamiyat berdilar. Negaki, ular millatning mavjudligini tasdiqlaydigan bebaho boylik ona tili ekanligini chuqur anglaganlar. Mana shunday ulug` zotlardan biri Abdurauf Fitratdir. O`zbek tili ravnaqi uchun kurashgan, bu yo`lda jonini ham ayamagan Fitrat ulug` mutafakkir Alisher Navoiyni o`zi uchun bu kurashdagi yorqin mayoq deb bildi, adibning “Muhokamat ul-lug`atayn” asaridan ilhomlanib, hazrat Navoiy kabi o`zbek tilining hech bir tillardan qolishmaydigan boy til ekanini isbotlashga harakat qildi. Tabiiy savol tug`ildi: oradan necha asr o`tishiga qaramasdan, nega Fitrat aynan Alisher Navoiydan andoza olmoqda, u zotni o`zi uchun milliy timsol sifatida tanlamoqda? Albatta, buning o`ziga xos obyektiv sabablari, oradagi o`zaro farq bir necha asrni tashkil qilishiga qaramasdan, o`rtaga

qo'yilgan muammolar, o'zbek tili rivoji uchun mavjud to'siqlar bo'yicha o'xshashliklar mavjud edi. Shuning uchun ham Fitrat o'z ijodida aynan Navoiy izidan bordi, uning tilshunoslikka oid asarlarida mutafakkir ta'sirini bevosita kuzatish mumkin. O'sha davr sotsiolingvistik sharoitiga e'tibor bersak, ayni XV asrdagi kabi badiiy asarlarni fors tilida, ilmiy asarlarni arab tilida yozish an'anasi buzib bo'lmas qonuniyat edi. Ulug' alloma Alisher Navoiy ayni shu qonuniyatga qarshi chiqqan, turkiy tilning cheksiz imkoniyatlarini isbotlab bergan buyuk shaxs sifatida tarix sahnasiga chiqdi. Bu haqda Fitrat "Tilimiz" maqolasida shunday yozadi: "Navoiy turk shoirlarining forsiycha yozishlarig'a ochiqdan-ochiq isyon etdi. Chig'atoychaning adabiy ham boy ekanini bildirmak uchun o'zining Muhokamat ul-lug'atayn degan asarini yozib chiqardi. Navoiy zamoni chig'atoy adabiyotining, chig'atoy tilining eng ko'b yuksalgan, yuqori bosg'an zamoni bo'lib qoldi"²⁶. Olimning "Tilimiz" maqolasi esa "Ishtirokiyun" gazetasida 1919-yil 12-iyun (132-son)da bosilib chiqqan. Alisher Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida o'zbek tilini fors-tojik tili bilan chog'ishtirib, uning fors tilidan qolishmasligini ko'rsatgan bo'lsa, Fitrat esa mazkur maqolasida o'zbek tilini arab tili bilan chog'ishtirib, uning arab tilidan so'z boyligi jihatidan ustun ekanligini misollar asosida dalillashga harakat qilgan. Fitrat maqolasida "dunyoning eng buyuk hakimi Ibn Sino", "ikkinchi Arastu atalg'an Forobiy", "falsafa imomi Rumiy", "arab tilini mangulik tirg'izib kelgan Javhariy", "forsiy adabiyotning payg'ambari Nizomiy"lar turk bo'la turib, o'z asarlarini arab, fors tillarida yozganlaridan chuqur qayg'uradi. Agar ular ilmiy va adabiy asarlarini Alisher Navoiy kabi o'z ona tillarida yozganlarida, "turk ulusining holi" ancha yaxshilangan bo'lar edi deb ta'kidlaydi.

Fitrat "She'r va shoirliq" maqolasida (1919-yil "Chig'atoy gurungi"dasturi yo'nalishida yozilgan) aruz vazni xususida fikr bildirar ekan, Alisher Navoiyning nazmiy asarlarini ham qisman tahlil etishga harakat qiladi. Aruz vazni, Fitrat fikricha, o'zbek adabiyoti va tili rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Uning qat'iy ta'kidiga ko'ra, nazarda tutilgan vazn tufayli o'zbek adabiy tili bilan xalq jonli

²⁶ Фитрат А. Тилимиз. Танланган асарлар. III жилд. Тошкент: Маънавият, 2000, -Б.125

soʻzlashuv tili oʻrtasida katta farq yuzaga kelgan, obrazli tarzda aytganda, ulkan jarlik hosil boʻlgan. Fitratning fikricha, Navoiy oʻzbek mumtoz adabiyoti tarixida aruzda turkiy soʻzlardan oʻrinli foydalangan, ularning shaklini buzmasdan goʻzal asarlar yaratgan yagona shoirdir. Adib Navoiyning buyuk xizmatlarini eʼtirof etish barobarida uning mazkur masaladagi ayrim kamchiliklarini ham koʻrsatib oʻtadi. U shunday yozadi: “Navoiyning sheʼrlarida gavdasi buzilgʻan soʻz oz koʻrinadir. Demak, Navoiy hazratlari bu ishning sovuqligʻini onglamish, biroq oʻzini butun qutqara olmamishdir”²⁷. Navoiyning kamchiligini uning bir bayti misolida koʻrsatib beradi:

“Yuzingni koʻrib, meni ramida”²⁸

Ishq oʻtigʻa boʻlgʻali giriftor.

Shul baytdagi “yuz” soʻzini buzub “yuzz” qilmagʻuncha vazn toʻgʻri kelmaydir”²⁹. Aruz ilmini har tomonlama chuqur, izchil oʻrgangan Fitratning ilmiy-nazariy qarash va xulosalari, bizningcha, toʻla asosli, mantiqlidir.

Fitratning “Adabiyot qoidalari” qoʻllanmasi 1926-yilda yozilgan boʻlib, unda Alisher Navoiy ijodiy merosi ayrim masalalari tahlil jarayonida yoritilgan. Fitrat har bir shoir oʻz uslubiga ega ekanligini taʼkidlar ekan, Navoiyning ham oʻziga xos uslubi borligini, uning “sheʼrda fors uslubigʻa berilib qolgʻan”ligini aytadi. U uslubda aniqlik boʻlishi xususida fikr bildirib, Navoiyning bir maktubidan parcha keltiradi: “Duoyikim, shito qalbida shito qalbidin dilsoʻzroq, va niyoziykim qish aynidin dulpuzroq boʻlgʻay”³⁰. Fitrat mazkur jumlada aniqlik, ochiqlik yoʻqligini quyidagicha izohlaydi: “Parchada birinchi shito qalbi “qish oʻrtasi demakdir. Ikkinchi shito qalbi esa “shito” soʻzining teskarisi boʻlgʻan “otash” demakdir. Birinchi qish ayni “qishning yuzi”, ikkinchi qish ayni “quyosh” demakdir. Demak, bu parchada soflik boʻlmagʻani kabi ochiqlik-da yoʻqdir”³¹. Fitratning Navoiy ijodiga tanqidiy munosabati uning boshqa masalalar tahlilida ham oʻz ifodasini topgan. Chunonchi, u Navoiy koʻplab betakror oʻxshatishlar

²⁷ Fitrat A. Sheʼr va shoirliq. Tanlangan asarlar. Istiqlol qahramonlari. Toshkent: Maʼnaviyat, 2009, 10-bet

²⁸ Hurkkan, choʻchigan.

²⁹ Fitrat A. Sheʼr va shoirliq. Tanlangan asarlar. Istiqlol qahramonlari. Toshkent: Maʼnaviyat, 2009, 10-bet

³⁰ Fitrat A. Adabiyot qoidalari. Tanlangan asarlar. Istiqlol qahramonlari. Toshkent: Maʼnaviyat, 2009, 15-bet

³¹ Oʻsha kitob 17-bet

yaratganligini alohida ta'kidlab, ayrim mantiqsiz, "ko'ngul aynitg'uchi" o'xshatishlar ham qilganligini aytib o'tadi va fikrining dalili uchun quyidagi baytni misol tarzida keltiradi:

Ermash uchug, shakarga yopishmas chibin biri,

Iki labim bila oni olsam dudog'ingdan.

Bayt mazmunidan anglashiladiki, mahbubaning shakardek dudog'iga yopishgan "chibin"ni lirik qahramon lablari bilan olish istagida. Ko'rinib turibdiki, she'rdagi mazkur tashbih o'rinsiz va hech qanday badiiy-estetik qiymat kasb etmaydi. Fitrat alohida qayd etadiki, bu kabi juz'iy kamchiliklar Navoiyning buyuklik darajasini zarracha ham pastga tushirmaydi.

I BOB BO'YICHA XULOSA

- Navoiyning yurt, millat, til, tarix, din, davlat, adabiyot oldidagi xizmatlarini butun miqyosi va mohiyat qirralari bilan mushohada etganligi tufayli ham Fitratning tadqiqotlari navoiyshunoslikning o'ziga xos bir bosqichini tashkil etishi shubhasizdir.

- Fitrat tadqiqotlarining deyarli barchasi, beistisno ravishda, birlamchi manbalar, qadim va yaqin qo'lyozmalar asosida amalga oshiriladi. Tadqiq va tahlil orqali Fitrat aksar o'rinlarda badiiy asarni ilk bor muomalaga olib kiradi va ularni kitobxon mulkiga aylantiradi. So'nggi, taxminan, yetmish yil ichida mumtoz adabiyot tarixi bo'yicha yoritilgan u yoki bu ulkan muammolarning javhari Fitrat tadqiqotlarida yotadi. Shuning uchun XX asrda yetishib chiqqan qator ulkan adabiyot tarixi allomalari uchun Fitrat buyuk ustoz sanaldi.

- Fitratning serqirra ijodiyotini an'anaviylik bilan zamonaviylikning beqiyos uyg'unlashuvi, aniqrog'i, muqobili bag'oyat kam uchraydigan san'atkorlik akademiyasi desa xato bo'lmaydi. Chinakam adabiyotning bugun lablari qaqrab, mavjudligini ko'rsatish ilinjida nimaga va kimga suyanishi ancha mavhumlashib qolgan bir paytda buyuk Fitratga monand badiiy ijod darg'alarining tajribalaridan saboq olish ham qarz, ham farzdir.

- Fitrat Navoiyning ilm va ma'rifat maktabidan saboq olib, uning olimligi, mutafakkir va orifligiga havas qilgan. Chunki Navoiydan keyin yashab ijod qilgan qaysi talantli shoir yoki adibni olmang, u Bobur yo Fuzuliy, Ogahiy yoki Mahtumquliy, hammasining adabiy shaxsiyati va dunyoqarashi ilm, ma'rifat bo'stonida shakllanib, kamol topgan. Fitratda ham xuddi shunday. Ehtimol, u shu boisdan ham o'zbek olimlari orasida birinchi bo'lib Navoiyga bag'ishlab maqola yozib, yangi navoiyshunoslik ilmining asoschilaridan biri martabasiga erishgan edi.

Shu boisdan ham ulug' Navoiyning xolis, zukko tadqiqotchisi sifatida Fitrat hech kimga o'xshamaydi, shuningdek, hech kimni takrorlamaydi. Chunki uning sirtidan oddiy tuyulgan qayd va izohlarida ham shogirdning ustodga qarshi, uning ijodiy tajribalaridan ilhomlanishi sezilib turadi. Darvoqe, navoiyshunoslik ilmi hozirgiga nisbatan yuksalishi uchun ustod Fitrat erishgan maqomga tomon dadil intilishi lozim ya'ni Sharq adabiyotini bir butun holda teran bilish, tarix, din, tasavvuf va eski falsafadan yetarli zaylda xabardor bo'lishdir.

II BOB

SADRIDDIN AYNIIY – NAVOIYSHUNOS

2.1 Sadridin Ayniy tadqiqotlarida Navoiy va tojik adabiyoti masalalariga munosabat

Odatda har bir ijodkor qalbini maftun etgan soha va siymolar, mavzu va muammolar bo'ladi. Dildan joy olgan ana o'sha mavzu ijodkor faoliyatida o'z aksini topadi. Shunday holat Sadridin Ayniyning Navoiyga sadoqati timsolida namoyon bo'ladi. Uning Alisher Navoiy bilan ilk "muloqot"lari olisda qolgan yoshlik yillaridan boshlangan. XIX asrning 90-yillari Ayniy uchun o'shanday damlar edi. Bu xususda uning o'zi shunday yozadi: "O'sha yozda (1895-yilning yozida) men ko'proq adabiyot bilan shug'ullandim. Soyib va Jomiy devonini takror va takror o'qirdim. Navoiyning otam tomonidan ko'chirilgan qisqa bir devoni qo'limda edi. Uni qo'lga

olib turkiy tilni va shu tildagi she'riyatni o'rganish uchun tirishardim"³². Ha o'shanda Sadriddin endigina balog'atga yetgan o'n yetti yoshli yigit edi. Demak, uning Alisher Navoiy bilan jiddiy shug'ullanishi ana o'sha davrdan boshlanib, yetuk adibning so'nggi nafasigacha davom etgan. Sadriddin Ayniy Alisher Navoiyni salkam qirq yil o'qidi, obdon o'rgandi, bezavol mehr qo'ydi. Shundan so'ng u haqida yozishga jur'at qildi. Ayniyning bu yo'ldagi dastlabki qadami "Namunai adabiyoti tojik" bo'ldi. Ushbu asarida ulug' o'zbek shoiri xususidagi ilk mulohazalarini o'z kitobxonlari bilan birga baham ko'radi. Antalogiya mo'ljallangan kitobxonlarni hisobga olgan muallif Alisher Navoiyning fors-tojik tilidagi "Tuhfat ul-afkor" qasidasidan 18 baytni tanlab unga kiritadi. Ana shu qadami bilan Ayniyning navoiyshunoslik sohasidagi faoliyati boshlanadi. 30-yillarning ikkinchi yarmida uning Alisher Navoiy adabiy merosiga munosabati mislsiz jonlandi. Ittifoq hukumatining shoir tavalludiga 500 yil to'lishini nishonlash to'g'risidagi tarixiy qarori navoiyshunoslikning taraqqiyotini tayin etdi. Eng og'ir, mas'uliyatli va sermehnat ishni – Alisher Navoiy "Xamsa"sining qisqartirilgan variantini yaratish va nashrga tayyorlash vazifasini o'z zimmasiga oldi. Bunday ulkan ish ijrochidan katta bilim boyligi, adabiy tajriba, sarg'aygan qo'lyozmalar ustida qunt bilan ishlay olish, fors-tojik va o'zbek klassik adabiyoti faktlarini puxta bilish, xamsachilik ananasi xususida keng tasavvurga ega bo'lish, qadimiy fors va arab tillarini egallash, Sharq xalqlari o'rtasida ommalashgan rivoyatlardan puxta xabardorlikni taqozo qilar edi. Quvonchlisi shundaki, u "Xamsa"ning qisqartirilgan variantini g'oyat qisqa bir muddat ichida yaratdi. Darhaqiqat, Sadriddin Ayniy o'z salmog'iga ko'ra katta va ma'uliyatli ishni uddaladi. Akademik V. Abdullayev to'g'ri qayd qilganidek, S. Ayniy "Xamsa"ning qisqartirilgan variantini hozirlash jarayonida o'zini bilimdon tarixchi, tajribali adabiyotshunos, yetuk shoir sifatida ko'rsatdi, zamondoshlarining sinovidan muvaffaqiyatli o'tdi.

Sadriddin Ayniy tomonidan nashrga tayyorlangan Navoiy "Xamsa"sining qisqartirilgan varianti qisqa davr ichida ikki marta – 1940-yilda va 1947-yilda nashr ettirildi. Ayniy – ikki xalq adibi, ikki adabiyot va adabiyotshunoslikning zabardast

³² Садриддин А. Танланган асарлар. 5-том – Т.:Фан, 1978. -48 Б.

arbohi. Shuning uchun u Alisher Navoiy nomini, uning noyob asarlarini faqatgina o'zbek kitobxonlari o'rtasida targ'ib qilib qolmasdan, balki qardosh tojikistonda ham shu masalada e'tiborga molik ishlarni amalga oshirdi. Yubileyga tayyorgarlik ishlari davom etayotgan 1938-1941-yillarda olimning "Mir Alisher" nomli ilmiy-ommabop maqolasi "Tojikistoni surx" gazetasining 1938-yil 29-30-dekabr sonlarida bosildi.

Ayniy adabiyot va adabiyotshunoslik olamida paydo bo'lgan har bir ishni katta umid va quvonch bilan peshvoz olgan. Ularning fazilatini ko'rsatish bilan birga nuqsonlarini bartaraf qilish payida bo'lgan. Ana shu holatning yorqin misolini biz S.Ayniy va taniqli o'zbek adabiyotshunosi O. Sharafiddinov munosabatlari timsolida oydin ko'ramiz. O. Sharafiddinovning Alisher Navoiyga bag'ishlangan monografiyasini zo'r xushnudlik bilan o'qib chiqqan S.Ayniy olti sahifalik batafsil taqrizida qator xolisona, ish sifatini yaxshilashga ko'mak beruvchi maslahatlarni o'rta tashlaydi³³.

Tojik kitobxonlarini Alisher Navoiy "Xamsa"sidan bahramand etishda ham uning xizmatlari g'oyat kattadir. S.Ayniyning tashabbusi bilan Navoiy "Xamsa"si tarkibidagi bir qator dostonlardan parchalar tojik tilida e'lon qilindi. Alisher Navoiy haqida o'ylash, fikr yuritish, xususan, uning fors-tojik adabiyotiga munosabati va zullisonayn shoir sifatidagi faoliyati borasida mulohaza etish Ayniy ishlarining mag'ziga singib ketadi. Adibning "Alisher Navoiy va tojik adabiyoti" nomli maqolasi bu jihatdan alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqola muallif tomonidan o'zbek tilida yozilgan bo'lib, u dastavval Alisher Navoiy haqidagi bir silsila maqolalarni o'z ichiga oluvchi "Ulug' o'zbek shoiri" nomli yubileyga to'yona to'plamda bosilgan edi. Keyinchalik ushbu maqola Sadriddin Ayniyning o'zbek tilida chop etilgan 8 tomligiga (8-tom, 27 – 41-betlar) kiritildi. "Alisher Navoiy va tojik adabiyoti" maqolasi hajmi jihatidan ixcham bo'lsa-da, unda qamrab olingan va hal etilgan masalalar ko'lami nuqtai nazaridan g'oyat salmoqlidir. Ayniy Navoiy faoliyati va ijodining hali hech kim jiddiy qiziqmagan, shug'ullanmagan tomonlarini qalamga olib, ilmiy jamoatchilik e'tiborini shu muhim muammolarga jalb etgan. Maqolada uch muhim muammoni – Alisher Navoiyning fors-tojik tilidagi ijodi, o'sha tilda qoldirgan

³³ Шарафиддинов О. Танланган асарлар. Тошкент, 1978, 53-Б.

adabiy merosi, tojik qalamkashlarining tarbiyasida u ko'rsatgan jonbozlik; Alisher Navoiy raxbar va raxnamoligida bunyod etilgan ilmiy, badiiy, tarixiy asarlar ustida bahs etishni asosiy maqsad qilib qo'yadi. Tadqiqotchi bevosita birinchi darajali manbalar – Alisher Navoiyning o'z zamondoshlari va shogirdlari asarlariga murojaat qiladi. Ular qalbida Navoiyga nisbatan jo'sh urgan hurmat va ehtiromni o'z tillari bilan aytiradi. Bunday yo'l tutish maqolaning ilmiy qimmatini, unda o'rta tashlangan xulosalarning ishonchli chiqishini ta'minlaydi. Olim o'rta qo'ygan muammolarni o'z navbatida yana mayda-mayda bo'laklarga ajratadi. Bu esa muddaoning o'quvchiga aniq yetib borishi uchun qulaylik yaratadi. Ushbu maqolada Ayniyning e'tibori Alisher Navoiy fors-tojik tilidagi asarlarining mundarijasi, g'oyaviy yo'nalishi, ularda talqin etilgan ilg'or motivlar, o'sha asarlarning badiiy saviyasini belgilashga ham qaratildi. “Alisherning tojikcha g'azallari, – deb yozadi Sadridin Ayniy, – o'zbekcha g'azallari kabi asosan lirik she'rlar bo'lish bilan birga, ularda falsafiy mazmunlar, insonparvarlik g'oyalari ifoda qilinadi, tabiiy manzaralar va hayot lavhalari mohir bir rassom kabi bo'rttirib chiziladi”³⁴. Olim Alisher Navoiyning fors-tojik tilidagi ikki asariga – “Tuhfat ul-afkor” va Abdurahmon Jomiy vafoti munosabati bilan maydonga kelgan tarkiband marsiyasi tahliliga, ayniqsa, keng o'rin ajratadi. Xususan, Ayniyning “Tuhfat ul-afkor” qasidasining paydo bo'lishi tarixi haqida birinchi manbalar shohidligida o'rta tashlangan fikrlari ilmiy asoslanganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniy Alisher Navoiyning fors-tojik adabiyotining mumtoz namoyandasi Nuriddin Abdurahmon Jomiy vafoti munosabati bilan yaratilgan tarkiband-marsiyasini yuksak baholaydi.

Maqolada muallif Alisher Navoiyning fors-tojik tilidagi badiiy merosi bilan bir qatorda, shu tilda yaratilgan ilmiy-adabiy asarlarga ham to'xtaladi. Xususan, bunda muammo janrining qonun-qoidalari yoritilgan “Mufradot”ga alohida e'tobor qaratiladi. Ayniyning yozishicha, Navoiy bu janrni umumlashtirish va yoshlarga o'rgatish yo'lini osonlashtirish uchun muammoning mutaxassislaridan bo'lgan Mavlono Kamoliddin va Mavlono Shamsiddinlarga muammo qoidalariga oid kitoblar yozdirgan. Biroq ular Navoiyni qoniqtira oladigan asar yarata olmaganlar. Xuddi

³⁴ Айний С. Асарлар, 8-том, Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. Тошкент, 1978. 29 б

shunday iltimos bilan Navoiy ustози Abdurahmon Jomiyga ham murojaat qiladi. Jomiy bu mavzuda “Hulyatul-hulal”, “Mutavassit”, “Sag`ir” va “Asg`ar” nomlari bilan to`rt kitob yaratgan. Lekin bu asarlar o`ta ilmiyligi, uslubining murakkabligi uchun oddiy kitobxonning foydalanishi mushkul edi. Nihoyat, Navoiyning o`zi bu ishga qo`l uradi va muammoga oid “Mufradot” asarini yozishga erishadi. Asar o`z bobida shu darajada muvaffaqiyat topdiki, Jomiy o`z o`g`li Ziyouddin Yusufga o`z asarlarini o`qitmasdan, Navoiyning “Mufradot”ini dars kitobi qilib o`qitdi.

Maqolada Sadriddin Ayniy diqqatini jalb etgan masalalardan yana biri Navoiy tashabbusi, ko`magi va maslahati bilan tojik donishmandlari tomonidan yaratilgan asarlar sharhi hisoblanadi. Navoiy taklifi yohud homiyligida yaratilgan fors-tojik tilidagi asarlar turli mavzularda bo`lib, maqola muallifining ko`rsatishicha, ularning umumiy miqdori ellikdan ortiqdir. Jumladan, Hazrati Abdurahmon Jomiy, Mavluni Alishoh, Mirmurtoz, Hoja Abdullohi Marvorid, Kamoliddin Binoiy singari ilmu adab peshvolari tomonidan yaratilgan musiqaga oid qator risolalar, shuningdek, Kamoliddinning “Ravzat ul-ahbob”i, Husayn Voiz Koshifiyning forsiy tafsiri va boshqa ko`p tojikcha ilmiy va badiiy asarlar Alisherning xohishi bilan yozilgan. Shu o`rinda muallif Alisher Navoiyning fors-tojik adabiyoti, ilm-fani, xususan, adabiyotshunoslikka qo`shgan hissasi bular bilan cheklanmasligi, hatto, uning o`zbek tilida yaratilgan asarlarida ham bu sohaga oid qimmatli ma`lumotlar mavjudligi haqida shunday deydi: “Majoli un-nafois” o`zbekcha yozilgan bo`lsa ham, XV asr tojik adabiyoti tarixining birinchi manbai hisoblanadi. Navoiy bunda to`rt yuzdan ortiq shoir, yozuvchi va adabiyot do`stlarini zikr qiladiki, bularning aksariyatini tojiklar tashkil etardilar”³⁵.

Alisher Navoiyning o`sha davr yosh tojik ijodkorlari kamolotida ham o`rni muhimdir. Sadriddin Ayniy maqolada yosh tojik ijodkorlarining katta bir qismi Alisherning moddiy va ma`naviy tarbiyasi soyasida o`sganligini aytib o`tadi. Alisher kamtarlik qilib, bu to`g`rida og`iz ochmasa ham, bizga bu hol boshqa manbalardan va Navoiy zamondoshlarining estaliklaridan ma`lumdir. Misol uchun bunday yoshlardan bir nechasini eslatib o`tamiz, - deydi va bu jumladan Sayfiy Buxoriy, Osafiy, Hiloliy,

³⁵ Айний С. Асарлар, 8-том, Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. Тошкент, 1978. 34 б

Binoiy singari yosh shoirlarning ilm egallashlari va badiiy ijodda nom qozonishida Navoiyning ko'mak va maslahatlari muhim bo'lganligini ta'kidlaydi. Bu xususda "Majolis un-nafois", "Makorim ul-axloq" kabi tarixiy manbalarda berilgan faktlar keltirib o'tiladi.

Sadriddin Ayniyning Navoiyning fors-tojik tilidagi adabiy merosi, ayniqsa, "Devoni Foni", uning nusxalari tadqiqi borasidagi kuzatishlari ham diqqatga sazovordir. Muallif bunda "Foni" taxallusi bilan ijod qilgan shoirlar – Hoja Ahmad Dehdor, kashmirlik Muhsin va ularning uslubiga xos bo'lgan xususiyatlar haqida ham ma'lumotlar beradi. Asl "Devoni Foni"ni qo'lga kiritgan S.Ayniy uslubiga qarab boshqa Foniylarning she'rlaridan Foni-Navoiy she'rlarini ajratib olish kabi g'oyat murakkab va mashaqqatli mehnatni boshlaydi. Ustoz Ayniy kuzatishlariga ko'ra, Toshkentdagi O'zbekiston Davlat markaziy kutubxonasida "Devoni Foni"ning uch qo'lyozma nusxasi bor. Bu devonlar Xorazmda kitobat qilingan, ularning ko'chirilgan davri bir-biriga yaqin, mundarijasi ham aynan birdir. Ammo bu nusxalardagi ko'pchilik she'rlar kashmirlik Muhsini Foniyniki bo'lib, ularning orasida Navoiy-Foni she'rlari ham topiladi. Jiddiy tekshirishlar, mulohazalar asosida S.Ayniy mavjud devonlardagi Navoiy she'rlari 1000 baytdan ortiq emas, degan xulosaga keladi va katta zahmat bilan ajratilgan she'rlardan 711 baytini "Alisher Navoiy" monografiyasiga ilova qilib, ularni tahlil etadi.

Xullas, bayon qilinganlar asosida aytish mumkinki, Sadriddin Ayniyning boshqa tadqiqotlari qatorida "Alisher Navoiy va tojik adabiyoti" maqolasi ham o'zbek va tojik adabiyotlari tarixini o'rganishga, shuningdek, navoiyshunoslikka muhim hissa bo'lib qo'shilgan salmoqli ishlardan biridir. Mazkur maqola xulosasida Sadriddin Ayniy o'sha davrda navoiyshunoslik oldida turgan o'ta muhim vazifalarni shunday bayon qiladi: "Buyuk olim va ulug' mutafakkirning xotirasi hurmati tojik va o'zbek adabiyotshunoslaridan qo'lni qo'lga berib, uning tojikcha asarlarini topib, ilmiy – tadqiqiy yo'l bilan ishlab chiqishni talab qiladi. Shoirning tojikcha asarlari Sharq qo'lyozmalari saqlanmoqda bo'lgan hamma kutubxonalardan izlanishi lozimdir.

Bularni izlagan va ishlagan ilm ahllari ajoyib natijalardan quruq qolmaslar³⁶. Sadriddin Ayniy qalamiga mansub mazkur maqolada ilgari surilgan fikr-mulohazalar adabiyotlararo aloqalar yangi pog`onaga ko`tarilgan bugungi davrda alohida ahamiyat kasb etadi.

2.2. Ayniy – “Xamsa” tadqiqotchisi

Alisher Navoiy o`z “Xamsa”si bilan o`ziga badiiy haykal o`rnatdi, butun Sharqqa tanildi. Uning qalami hadya etgan bu bebaho asarning yuz yillar qa`ridan yetib kelishi ham o`sha umrboqiylikdan yorqin nishonadir. Sadriddin Ayniy esa Alisher Navoiy “Xamsa”sini sharhlashday mashaqqatli va ayni choqda sharaflil mehnati bilan buyuklikka dahldorligini namoyish qildi. Mangulik qasrida o`chmas izlar qoldirdi.

Sadriddin Ayniy Navoiy “Xamsa”sining qisqartirilgan variantini o`zbek shoirining ulug`vor siymosiga tuhfa qilib yaratdi. Garchi mazkur ish juda qisqa bir muddatda ado etilgan bo`lsa-da, uning ilmiy qimmatil, Navoiy adabiy merosini ko`p sonli she`riyat muxlislari o`rtasida targ`ib qilish yo`lidagi ahamiyati va bajarilish sifati nuqtai nazaridan chinakamiga salmoqlidir.

Ma`lumki, Alisher Navoiy “Xamsa”day genial bir asarni g`oyat qisqa muddatda, atigi ikki yilda (1483-1485-yillarda) yozib tugatdi. Ayniy Navoiydagi ijobiy fazilatlarni o`ziga qabul qilib, ijod bilan jiddiy shug`ullandi. Sharq xalqlari madaniyati, xamsachilik an`anasi bilan puxta tanish bo`lgan S. Ayniy besh dostonning qisqartirilgan variantidan iborat ulkan ishni qisqa muddatda sharafl bilan uddalay oldi. “Xamsa”ning qisqartirilgan varianti sharhlovchining so`zboshisi bilan boshlanadi. Ma`lumki, Alisher Navoiy ijodiga bo`lgan qiziqish, uni o`rganish, targ`ib etish an`anasi shoir hayot bo`lgan davrdan boshlangan edi. Oradan yillar o`tishi bilan bu harakatning doira va diapazoni kengayib, uning geografik jihatdan tarqalish ko`lami faqatgina Movarounnahru Xuroson hududida qolmay, Sharqu G`arbga ham borib yetdi. Natijada G`arb sharqshunoslari ham Alisher Navoiy ijodiyotiga qiziqib, o`z fikru mulohazalarini bayon etdilar. XIX asrga kelib Rossiyada M.Nikidskiy Navoiy haqida maxsus ilmiy tadqiqot yaratdi. Keyincha bu ijodiy an`ananing ko`lami yanada

³⁶ Айний С. Асарлар, 8-том, 40-Б

kengaydi. Biroq bu ishlar shoirning ilmiy biografiyasini yaratish, asarlarining o'rganilishini ta'minlash, ularni ommaga tanitish sohasida ma'lum darajada ijobiy rol o'ynagan bo'lsa-da aksariyat tadqiqotchilar buyuk mutafakkirning ijodiy mahsulini baholash bobida bir yoqlamalikka yo'l qo'ydilar. Shoir yaratgan asarlarning originalligini inkor qilgan holda, muallifni fors-tojik adabiyotining quruq taqlidchisi sifatida talqin etdilar. Ana shu holni hisobga olgan Sadridin Ayniy kitob muqaddimasida asosiy e'tibor va diqqatni o'sha g'ayriilmiy qarashlarga zarba berish, buyuk Navoiyning original ijodkor ekanligini isbotlashga qaratadi. Shuning uchun u so'zboshisining birinchi jumlasidayoq Navoiyning shoirlik salohiyatini, uning o'zbek adabiyotidagi buyuk rolini ta'kidlashga kirishadi va shunday deb yozadi: "Alisher Navoiyning "Xamsa"si – Sharq klassik adabiyotining eng go'zal namunalaridan biridir. Alisher o'z "Xamsa"sini yozganda, o'zidan ilgari "Xamsa" yozganlarga – Nizomiy va Xusravlarga shakl jihatidan ergashgan bo'lsa ham, ammo syujet va mundarija jihatdan ulardan ajraladi"³⁷.

Adabiyotshunos e'tiborini jalb qilgan masalalardan yana biri Alisher Navoiyning ustozlariga munosabati hisoblanadi. Alisher Navoiy "Xamsa" yozishga kirishishdan oldin o'zigacha paydo bo'lgan va o'z zamonida vujudga kelayotgan asarlarni qunt bilan o'rgandi. Salafar qalami hadya etgan asarlarning yutuq va kamchiliklarini jiddiy tahlil etdi. Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviylarning cheksiz iqtidorini, yuksak badiiy mahoratini e'tirof qilgani holda, ularning e'tiboridan soqit qolgan o'rinlar, yo'l qo'yilgan nuqsonlar xususida ham mulohaza yuritdi, ustozlarini odilona tanqid qildi. Navoiy tomonidan tanlangan bunday yo'l Sadridin Ayniyga manzur bo'ladi. U Alisher Navoiy "Xamsa"sining g'oyaviy asoslari haqida bahs etib, uning xalq donishmandligi xazinasidan – rivoyatu afsonalardan o'z ezgu maqsadi va g'oyalarini ifodalash uchun bir vosita sifatida keng foydalanganini ta'kidlaydi. Bu yerda unga Alisher Navoiyning:

Men xastaki bu raqamni chektim,

Tahriri uchun qalamni chektim.

³⁷ Навоий А. Хамса. (қисқартириб нашрга тайёрловчи С.Айний). – Т.: Ўздавнашр, 1947. – 432 б. Bundan keyingi iqtiboslar ham shu nashrdan olinadi va sahifalar qavsda ko'rsatiladi.

Yozmoqda bu ishq jovidona,
Maqsudim emas edi fasona.
Mazmuniga bo`ldi ruh mayli,
Afsona edi aning tufayli.
Lekin bu raqamga keldi mazmun,
Afsona anga libosi mavzun (7-bet)

kabi satrlari to`la qo`l keladi va ilmiy umumlashmalarni quvvatlashga xizmat qiladi.

Alisher Navoiy butun ongli faoliyati davomida xalqqa xizmat qilishni oliy maqsad va sharaflı burch deb bildi. Shu ma`noda uning qalamidan chiqqan:

Odami ersang demagil odami
Oniki yo`q xalq g`amidin g`ami

bayti o`z faoliyati va asarlarining mag`z-mag`ziga singib, ijodiy ideali, jamoat va davlat arbobi sifatidagi harakatining so`nmas ufqiga aylangan edi. Alisher Navoiy qayerda bo`lmasin, qanday asar yozmasin, uning xalq uchun qanchalik nafi yetishini bosh mezon sifatida qabul qildi. Zotan, Alisher Navoiy asarlarining 500 yildan ko`proq davr ichida yashashi, e`zozlanishi, umrboqiy ma`naviy merosining o`rganilishi va qayta-qayta nashr ettirilishining siri-hikmati ham ana shu xalqchillikdadir. Sadriddin Ayniy “Xamsa”da bu muammoning qay darajada yoritilishi bilan qiziqib, “Hayrat ul-abror”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab`ai sayyor”, “Saddi Iskandariy” kabi dostonlardan bu fazilatni ravshanlashtiruvchi ko`plab misollar keltiradi. U “Xamsa”da Alisher Navoiy yashagan tarixiy, ijtimoiy-siyosiy muhit nafasining qay darajada ifoda ettirilishi masalasi bilan ham qiziqadi.

“Navoiy “Farhod va Shirin”da Farhodni o`z zamonasidagi shahzodalarga qarshi qo`ygan, - deb yozadi Sadriddin Ayniy o`sha so`zboshisida, - Ulug`bekning o`g`li taxt talashib otasini o`ldirgani holda va Husayn Boyqaroning o`g`li o`z otasiga qarshi isyon qilib, u bilan urushgani holda Navoiyning shahzoda Farhodi otasi yalinib-yolvorsa ham podshohlikni qabul qilmaydi” (9-bet). Ma`lumki, hamma “Xamsa”larda bo`lgani kabi Alisher Navoiy “Xamsa”sida ham ishq-muhabbat masalasining tasviri yetakchidir. Shuning uchun “Xamsa” tarkibidagi hamma

dostonlarda bu mavzu qalamga olinadi va uning ma'lum tomonlari yoritiladi. Bu bebaho xazinada Mehinbonu, Shirin, Layli kabi bokira, pok sevgi egasi bo'lmish xotin-qizlar obrazi zo'r mahorat bilan bilan chizilgan. Asarda qator ijobiy va salbiy tiplar harakat qiladi. Asarga yozilgan so'zboshida Sadriddin Ayniy ana shularga ham o'z munosabatini bildiradi. Tadqiqotchi so'zboshini "Alisher Navoiyning "Xamsa"sida 50ming misradan ortiq she'r bor. Keng o'quvchilar ommasi uchun uni bir butun holda tezda egallab olish ancha og'ir bo'ladi... Navoiy yubileyi komitetining topshirig'i bilan qo'lingizdagi bu tanlanma nusxa vujudga keldi. Bu nusxani o'qib chiqqan kitobxon, Navoiyning "Xamsa"si haqida asosiy tasavvurga ega bo'lar degan umiddamiz. Bu nusxa o'quvchilar ommasiga shu kuzatilgan maqsadni bera olsa, men o'zimni baxtiyor va buning bilan buyuk olim, shoir va mutafakkirning sharaflari besh yuz yillik bayramida kichkina tortiq bilan bo'lsa-da, qatnashgan sanayman" (11-bet) jumlasini bilan yakunlaydi.

Ko'rinadiki, adib "Xamsa" qisqartirilgan nashrining maqsadi, uni yaratishni taqazo etayotgan shart-sharoit va zarurat xususida aniq ma'lumot beradi. Chindan ham, topshirilgan sharaflari, sermehnat vazifani uddalash bilan, birinchidan, u Navoiy yubileyi komiteti topshirig'ini ado etdi va, ikkinchidan, o'zining qalbiga yaqin bo'lgan Alisher Navoiyning besh asrlik to'yiga arzigulik to'yona hozirlashga erishdi. Ayni paytda, adib shu ishi bilan Navoiy ijodiyoti ixlosmandlari olqishiga ham sazovor bo'ldi.

Sadriddin Ayniy qalamiga mansub "Xamsa"ning qisqartirilgan variantini uning akademik yoki ommaviy nashri bilan qiyosiy o'rganish, qaysi boblar tushirib qoldirilganu qaysilari izohlanganligini aniqlash bu yerda ko'zda tutilmaydi. Shu boisdan o'quvchilar ommasiga sharhlovchi amal qilgan qoidalar, **Alisher Navoiyning sermazmun asarlarini imkoni boricha to'laroq yetkazish uchun sarflangan katta ijodiy mehnat xususida bahs etish foydalidir.**

Sadriddin Ayniy bu katta va mas'uliyatli ish jarayonida "Xamsa" dostonlari mazmuni va asosiy syujet chizig'ini saqlab qolishga harakat qilgan. Shuningdek, u obrazlar xarakterini gavdalantirib ko'rsatuvchi, ularning orzu-intilishlarini aks ettirgan satrlarni aynan saqlab qoladi. Ayniy tomonidan qo'llangan bu usul xalq og'zaki ijodi

dostonlarini xotirga keltiradi. Eslatilgan xususiyat birinchi galda “Xamsa” tarkibidagi dostonlarning nazmu nasr qorishmasida berilishida ko`rinadi. Xalq og`zaki ijodi dostonlarida esa tasvir uslubining bunday tus olishi hukmron hodisadir. Aksariyat xalq dostonlarida ma`lum voqealarning bayoni nasrda, unda ishtirok etayotgan obrazlarning nutqi, o`zaro munosabat-muomalasi, savolu javobi esa nazmda beriladi. Sadriddin Ayniy “Xamsa”ni qisqartirishda xalq og`zaki ijodidagi bu formani qabul qilgan. Aytish lozimki, bunday tanlangan yo`l uning uchun har jihatdan qo`l kelgan. Ayni harakat ish oldiga qo`yilgan muddaoning muvaffaqiyatli yakunlanishini ham ta`min etgan. Bildirilgan mulohaza isboti uchun Alisher Navoiy “Xamsa”sining birinchi dostoni – “Hayrat ul-abror”dan mana bu misolni ko`zdan kechiraylik.

Ustoz Ayniy birinchi doston ustidagi ishni boshlar ekan, uning “Hamd”, “Na`t”, “Me`roj” singari an`anaviy boblari borligini birgina jumlada o`quvchilarga ma`lum qilib, so`ng Alisher Navoiyning o`z ustozlari haqidagi fikrlari talqiniga o`tadi. Ular o`sha kirishda Sadriddin Ayniy tomonidan umumlashtirib berilgan.

“Navoiy o`z zamondoshi, do`sti, ustoz va xamsanavislarning biri Jomiy madhiga aytadi:

Ko`ksi haqoyiq duri ganjinasi,
Ko`ngli maoni yuzi oyinasi.
Qasri kalomi chiqib, andoq baland
Kim, anga gardun sola olmay kamand.
Gunbazi hujrosida zoti nihon,
O`ylaki, ko`k gunbazi ichra jahon.
Nazmi aqolimi jahonni tutub,
Nasri dog`i kishvari jonni tutub” (15-16-betlar).

Sadriddin Ayniy butun “Xamsa” sharhi davomida ana shu qoidaga qat`iy amal qiladi va hamma dostonlarni ham shu tarzda sharhlaydi. Shu o`rinda Ayniy tomonidan amalga oshirilgan yana bir muhim holni ham ta`kidlab ko`rsatishga to`g`ri keladi. Aniqrog`i, gap asl nusxadan aynan ko`chirilgan she`riy parchalar ustida boradi. Noshir kitobxonga qulaylik tug`dirish maqsadida sahifalar ostida izohtalab so`z va iboralar sharhini ham berib boradi. Yana xarakterlisi shundaki, “Xamsa”ning

Ayniy variantida o`quvchiga darrov yetib borishi qiyin bo`lgan murakkab tashbehli baytlarning tasviri, ko`zlangan maqsad izohlanadi, hamda nasrda ularning qisqacha mazmuni berib boriladi. Jumladan, yuqorida keltirilgan she`riy parchada shunday sharhtalab baytlar mavjud. Chunonchi:

Gunbazi hujrosida zoti nihon,

O`ylaki, ko`k gunbazi ichra jahon.

Darhaqiqat, bu yerda aytilmoqchi bo`lgan fikr, ko`zlangan maqsad shoir tomonidan o`ta pardali qilib berilganki, uni ilg`ab olish oddiy kitobxongagina emas, hatto ayrim mutaxassislar uchun ham dushvordir. Chunki mazkur bayt mag`zini muallif ko`zda tutgan darajada chaqish uchun, dastlab arab va fors-tojik (o`zbek kitobxoni uchun) tilidan xabardorlik, so`ngra klassik poetikadan chuqur bilimga ega bo`lish talab qilinadi. Ana shu qiyinchiliklarni hisobga olib, Ayniy baytni quyidagicha sharhlab beradi: “Jahon osmon gumbazi ichida yashirinib turganiday, Jomiy ham, o`z hujrasining gumbazi ichida yashiringan demakdir. Bu yerda Jomiy va uning hujrasi kattalikda jahonga o`xshatilgan” (16-bet). Shu parchada “Nazmi aqolimi jahonni tutub” misrasi mavjudki, noshir undagi “Nazmi aqolimi” iborasiga izoh beradi. Uningcha, “nazmi – she`ri butun dunyo iqlimlariga – yer yuziga yoyilgan demakdir”. Xuddi shunday baytlar, iboralar, so`zlar izohi “Xamsa”ning deyarli hamma sahifalarida ko`zga tashlanadi.

Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror”da so`z va uning jamiyatdagi rolini ta`kidlab ko`rsatish maqsadida alohida bob ajratgan. Shoir so`zni yuksak baholaydi. Uning fikricha, so`z gavhardan ham qimmatli.

Lek navo zimnida asrab mahal,

Cheksa Navoiy so`zidin bir g`azal.

Kim anga alfoz o`lub otashfishon,

Bersa ulus ko`ngliga mungdin nishon.

Bazmda ul lahza alolini ko`r,

Ko`yi xarobot aro g`avg`oni ko`r.

Ko`rki nuchukdur yaqa chok aylamak,

O`zni fig`on birla halok aylamak. (18-19-betlar)

Sadriddin Ayniy mazkur she'riy parchadagi so'nggi ikki misrani izohlab yozadi: "Har qanday yaxshi sozanda qancha chalsayu so'zsiz (ashula aytolmasdan) uzoq chalsa, undan aql ahllariga malol yetadi. Agar sozanda mashq orasida Navoiyning olov sochuvchi g'azallaridan birortasini o'qisa, u vaqtda bazmda shovqin-suron qo'zg'aladi, eshituvchilar o'z yoqalarini yirtadilar, ohu voy bilan o'zlarini yo'qotib qo'yadilar". Qarang, qanday batafsil sharh. Ammo, Ayniyni bu izoh ham qoniqtirmaydi. Chunki, asarni o'qigan kitobxon "nima uchun, qaysi ashulani o'qiganda tinglovchilar yoqa yirtadilar" kabi savollar girdobida qolishi tabiiy. S.Ayniy buni oldindan his etgan va kitobxonni ortiqcha tashvishdan qutqazgan. Yuqoridagi savollarga javob topish uchun u Zayniddin Mahmud Vozifiyga murojaat qiladi. Uning "Badoe ul-vaqoe" asaridan shu masalaga tegishli bir hikoyani keltiradi. "Vozifiyning hikoyasiga ko'ra, – deb yozadi Ayniy, – Navoiyning o'z zamonida uning:

Din ofati ul mug'bachayn mohliqodur, mayxorayu bebok,

Kim ishqidin oning vatani dayri fanodur, rastmastu yaqom chok, –

boshlanmali mustazodiga Xoja Abdulla Marvorid nomli musiqa ustodi bir savt bog'lagan. U vaqtlarda Hirotda bu savt o'qilmaydigan uy yo'q edi, – deydi Vozifiy. Vosifiyning gapiga ko'ra, bir bazmda shu "sarmastu yaqom chok" savtini o'qiyotganda butun majlis ahli o'z yoqalarini yirtganlar, bu holni bir tasodif bilan tuynukdan qarayotgan Navoiyning o'zi ham ko'rgan. Navoiy bu yerdagi misralar bilan o'sha savt va o'sha holatga ishorat qiladi". Ana shu tarzdagi mukammal tavsif, shubhasiz, "Xamsa" muxlislariga ma'qul tushadi va ular bu ish ijrochisiga ofarin aytishadi.

Yuqorida ko'rib o'tilgan ayrim faktlar S. Ayniy amalga oshirgan ishning nihoyat ulkanligidan dalolat beradi. Alisher Navoiy "Xamsa"sining qisqartirilgan varianti 40-yillarda buyuk mutafakkir g'oyalarining keng kitobxonlar ommasi o'rtasida tarqalishida qanchalik ijobiy rol o'ynaga bo'lsa, bugungi adabiyot muxlislari uchun ham shunchalik xizmat qila oladi.

2.3.”Alisher Navoiy” monografiyasi – yaxlit tadqiqot sifatida

Jomiy va Navoiy yashagan zamondan besh asr so`ng tojik savet adabiyotining asoschisi Sadriddin Ayniy ulug` o`zbek shoiri Alisher Navoiyning hayot va ijod yo`li ustida to`liq fikr yurituvchi monografiya yaratdi. 1938-yildan buyon e`lon qilingan ilmiy maqolalar, “Xamsa” ustida olib borilgan katta ijodiy mehnat rejasi tuzilgan monografiya uchun mustahkam poydevor vaifasini o`tadi. Yirik adabiyotshunos turli davrlarda yozgan maqolalarida o`rtaga tashlangan qator masalalarni kengroq ilmiy hal etish uchun boy faktlar yig`a boshladi. Natijada uning “Alisher Navoiy” monografiyasi maydonga keldi. S.Ayniyning Navoiy ijodi tadqiqotiga bag`ishlangan salkam chorak asrlik mehnati tojik tilida yozilgan bu salmoqli ilmiy monografiyasi 1948-yilda Tojikiston Davlat nashriyotida bosilib chiqdi. 1967-yilda Toshkent G`afur G`ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyotidan Alibek tarjimasi bilan nashr etildi (qisqartirilgan holatda). Monografiyada Alisher Navoiy nomi bilan bog`liq qiziqarli hikoyalar keltirilgan. S.Ayniy Alisher Navoiy – Foni asarlarining nashr ettirilmaganligini hisobga olib, monografiya oxirida g`azal, musaddas, qasida, marsiya, qit`a, muammo, lug`zlardan namunalar beradi. S.Ayniy monografiyasining nashriyot muharriri taniqli tojik sovet yozuvchisi Abdusalom Dehotiy edi. Ayniyning xatoga nisbatan o`ta shafqatsizligini bilgan Dehotiy kitobni sinchiklab nazardan o`tkazgan. Alisher Navoiy va uning davri, zamondoshlari haqida ilmiy tadqiqot ishlari endigina boshlangan bir sharoitda turli manbalardagi uzuq-yuluq va tarqoq parchalarni bir joyda jamg`arish, ularni ilmiy tahlil etish, kitobxonga yaxlit ma`lumot bera oluvchi yirik monografiya bunyod qilish katta ilmiy jasorat edi. Monografiya an`anaga ko`ra temuriylar haqidagi tarixiy ma`lumot bilan ochiladi. S. Ayniy davr haqida so`z ketganda ixcham, o`ylab va o`lchab jummalarda XV asrdagi siyosiy hayot manzaralarini chizib berishga erishadi. Zamon haqidagi mulohazalar Alisher Navoiy hayoti bilan bog`lanadi. Muhimi shundaki, siyosiy-tarixiy sharoit haqida mulohaza yuritganda ham monografiya muallifi “ilmiy va badiiy manbalarga murojaat etadi”. Jumladan, Abulqosim Bobur zamonida ayshu ishratning avjga chiqqanini ko`rsatish uchun Alisher Navoiy asarlariga nazar soladi. Kitobning “Navoiyning tug`ilishi va uning oilasi”, “Navoiyning bolalik yillari”, “Yoshlik ayyomi va jiddiy tahsil yillari”,

“Alisherning siyosiy hayoti”, “Alisherning vafoti” kabi qismlarida izchillik bilan ulugʻ oʻzbek shoirining hayot yoʻli tadqiq qilinadi. Alisher Navoiy tarjimai holini atroflicha yoritishga jiddiy eʼtibor qilinadi. Maʼlumki, Alisher Navoiy shaxsi, hayoti, ijodi, zamondoshlariga munosabati, siyosiy faoliyati xususida qoʻlyozma manbalarda juda koʻp maʼlumotlar mavjud. Bu lavhalar ichida takrorlar, bir-birini inkor qiluvchi oʻrinlar, baʼzan Alisher Navoiy xususida notoʻgʻri tasavvur paydo qiluvchi nuqtalar ham koʻzga tashlanib turadi. Sadriddin Ayniy oʻsha qoʻlyozma manbalarni sinchiklab nazardan oʻtkazadi, ularda koʻzga tashlanib turadigan xilma-xil maʼlumotlardan Alisher Navoiyning haqiqiy tarjimai holiga rost keluvchi nodir lavhalarni saylab oldi. Monografiya Alisher Navoiy oilasi haqida mushohada yuritish bilan boshlanadi. Bu oʻrinda Alisherlar oilasi va uning temuriylar xonadoni bilan munosabati masalasi Sadriddin Ayniy diqqat markazida turadi. U Alisherning otasi – Gʻiyosiddin Kichkinaning mavqei, Temuriylar saroyida ado etgan vazifasi xususida Mirxond va Xondamr qaydlariga tayangan asosli xulosalarga keladi.

Alisher Navoiyning jismoniy kamoloti bilan birga, uning maʼnaviy balogʻati, yetuk ijodkor sifatida shakllanishida muhim rol oʻynagan shart-sharoitlarni koʻrsatib berishga jiddiy harakat qiladi. Buning uchun Ayniy Alisher Navoiyning oʻz asarlari va uning yaqin zamondoshlari fikrlariga tayanadi. Oʻz xulosalarini buyuk Alisher Navoiy muxlislariga havola etar ekan, qoʻlyozma kitoblarning kafilligi, shohidligini asos qilib koʻrsatadi. Mahoratning ulgʻayishi, kamoloti uchun oila muhitining, shu ijodkorni tuhfa etgan adabiy doiraning roli beqiyos ekanligini Sadriddin Ayniy Alisher Navoiy hayot yoʻli misolida ancha jonli tarzda koʻrsatishga erishadi. Shuning uchun ham u Gʻiyosiddin Kichkinaning sheʼr va shoirlar muxlisi ekani, Alisherning togʻalari – Mirsaid Kobuliy, Muhammadali Gʻaribiylarning shoirligini ham qayta-qayta taʼkidlaydi.

Monografiyada Alisher Navoiyning ijodiy oʻsishida fors-tojik adabiyotining katta maktab rolini oʻtaganligi tarixan aniq va ishonchli faktlar yordamida koʻrsatiladi. Ushbu maʼlumotning tasdigʻi uchun Alisher Navoiyning Shayx Kamol Turbatiy, Shohiy Sabzavoriy, Jomiylar bilan muomala va munosabati haqida gapirib oʻtadi. Muallif Alisher Navoiyning Hirot va Samarqand adabiy muhitlarida tutgan

mavqei, she'r borasida alohida iqtidorini ko'rsatishni ham o'zining muqaddas vazifasi sanaydi. Ana shu maqsadda monografiyada ikki muhim voqea keltiriladi. Hikoya qilinishicha, Hirotida bo'lgan she'riyat bazmlaridan birida Hirotidagi bir hushxon hofiz Amir Xusrav Dehlaviyning:

Misoli qatrai boron sirishki man hama dur shud,

Chunin asar dihad, alhaq, tulo'i chun tu Suhayle! –

baytini ijro etadi. Shunda she'riyat davrasidagilardan biri bu hofizga tanbeh berib, “sirishki man hama dur shud” o'rinda “sirishki man hama xun shud” tarzida o'qish zarurligini aytadi. Alisher Navoiydan boshqa hamma shu fikrga qo'shilishadi. Navoiy esa hofizning “dur shud” iborasini mantiqan ma'qul ko'radi. Bu hol esa davrada munozaraning kuchayishiga sabab bo'ladi. Shunda Navoiy taklifi bilan hakamlilik uchun Hirot shuarosining peshvosi Abdurahmon Jomiyga murojaat qilinadi. Taraflar fikri qog'ozga yozilib (shaxslar nomi emas) hakamga yuboriladi. Jomiy “Suxan “dur” ast, taalluq ba go'shi shoh dorad” tarzida o'z hukmini bildiradi. Shunda davra ahli Alisher Navoiyning she'rshunoslikdagi salohiyatiga yana bir karra tan berishadi.

Shunday munozaralardan yana biri Alisher Navoiy Samarqandda bo'lgan yillarda (1465-1469) o'sha yerdagi adabiy muhitda sodir bo'lgan edi. Bu haqida Navoiyning o'zi “Majolis un-nafois” tazkirasida guvohlik beradi. Unda yozilishicha, Riyoziy Samarqandiyning:

Sitoraest go'shi on hilol abro',

Zi ro'i husn ba xurshed mezanad pahlo'

baytini ko'zdan kechirgan Navoiy uni quyidagicha tahrir etish foydali ekanligini ta'kidlaydi:

Zi ro'i xusn duri go'shi on xilol abro'

Sitoraest, ki bo moh mezanad pahlo'.

Alisher Navoiy tahriri va taklifi davrada hozir bo'lganlarning deyarli barchasiga manzur va ma'qul tushadi. Biroq Riyoziy Samarqandiy esa o'z so'zida turadi va baytning birinchi – o'z variantini ma'qullaydi. Bahsu munozaralardan so'ng Navoiy variant ko'pchilik tomonidan qabul qilinadi. Riyoziy Samarqandiyning bayti bilan bog'liq bu hodisa Sadriddin Ayniyning “Namunai adabiyoti tojik” asarida ham

keltirilgan. Sadriddin Ayniy “Namuna”dagi fikrlarini rivojlantirib yozadi: “Darhaqiqat, Navoiyning bu tanqidi gʻoyat amaliy va ustozona qilingan tanqididir. Navoiyning ifoda uslubida bu ikki misrani bir-biriga bogʻlovchi “ki” qoʻshilishi bilan bilan birga toʻla tashbeh hamda mazmunning haqiqatga yaqinligi saqlangandir”³⁸. Alisher Navoiy oltmish yillik umri davomida yuzlab sheʼrxonlik bahslarida ishtirok etgan, ularning aksariyatida xotiraga qoluvchi holatlar boʻlgan va oʻsha davr manbalarida ularning koʻpchiligi qayd qilingan. Monografiya muallifi oʻshalarni saralagan, Alisher Navoiyning sheʼr ilmining donishmandi ekanligini koʻrsatish uchun shu ikki muhim voqea kifoya deb bilgan. Monografiyaning ikkinchi bobida Sadriddin Ayniy eʼtiborini jalb etgan muammolardan yana biri Alisher Navoiyning siyosiy faoliyati, davlat arbobi sifatida koʻrsatgan oliyjanob xizmatlaridir. Ayniy oʻz oldida Alisher Navoiyni oʻzi yashagan davrning yetuk gumanisti, mamlakat obod va osoyishtaligining jonkuyari sifatida xarakterlash vazifasini qoʻyadi.

Monografiyaning katta boblaridan yana birini Alisher Navoiyning adabiy faoliyati va ijodiyoti xususidagi mulohazalar tashkil etadi. Sadriddin Ayniy oʻzining butun eʼtiborini Navoiy “Xamsa”sining orginalligini, oʻziga xos fazilatlarini koʻrsatishga qaratadi. Ayniy va Navoiy ijodining boshqa tadqiqotchilari oldida ayrim bir yoqlama va gʻayri ilmiy mulohazalarga zarba berish vazifasi turar edi. Sadriddin Ayniy ham ana oʻsha talabni ilgʻab oldi va monografiyasida shu masalani qisqa boʻlsada, hal etishga urindi. Shuning uchun tadqiqot muallifi Navoiy ijodining zullisonaynlik fazilati, uning “Navoiy” va “Foniy” taxalluslari ostida yaratgan lirik asarlari borasida qisqa toʻxtalib, asosiy eʼtiborini “Xamsa”ga qaratadi va u haqda ancha batafsil mulohaza yuritadi. Ayniyning Alisher Navoiy “Xamsa”si haqidagi fikrlari oʻsha oʻlmas asar ijodkori oldida turgan maqsad va vazifani oydinlashtirishdan boshlanadi. Jumladan, muallif shu haqda yozadi: “Navoiy oʻzbek tilida yozilgan oʻz “Xamsa”si bilan Nizomiy va Xisrav “Xamsa”lariga teng kela oladigan asar yaratishni istardi”³⁹.

³⁸ Айний С. Асарлар, 8-том, Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. Тошкент, 1978. 289 б

³⁹ Ўша китоб, 298-б

Muallif Alisher Navoiyning o'z ustozlariga munosabati, ulardan o'rganganligi borasida mushohada yuritgach, uning an'anaviy afsona chorcho'basidan bir vosita tarzida foydalanib, yangi, dilkash bir asar bunyod etishga qaror qilganligini aytadi va Navoiy "Xamsa"si tarkibidagi "Hayrat ul-abror", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sab'ai sayyor", "Saddi Iskandariy" kabi dostonlarni alohida-alohida tahlil qilar ekan, asosiy e'tiborni Navoiy "Xamsa"siga kirgan asarlarning originalligini, ular shunchaki tarjima yohud taqlid emasligini bo'rttirib ko'rsatishga qaratadi. Munaqqid o'z muddaosini kitobxonga ochiqroq yetkazish niyatida muqoyasadan foydalanadi. O'zni-o'zni bilan Nizomiy va Xusrav dostonlaridagi voqealarga, obrazlarga, ularning talqiniga dahl qiladi, ularni Navoiy tasviridagi qahramonlar bilan qiyosiy o'rganadi. Bunday yo'l tutish har jihatdan ma'qul. Birinchidan, Navoiy "Xamsa"sining Nizomiy va Dehlaviy "Xamsa"laridan farqli tomonlari, shuningdek, ulug' o'zbek shoiri asarining originalligi yaqqol ko'zga tashlanib qoladi. Ikkinchidan monografiya o'quvchilari har uchchala "Xamsa" haqida tasavvurga ega bo'ladi. Sadriddin Ayniyning Navoiy "Xamsa"si haqidagi fikrlarining qimmatli tomoni yana shundaki, unda muallif bu asarning ijtimoiy qimmatini ochiq-oydin qilib ko'rsatishga harakat qiladi. Alisher Navoiy – XV asrning donishmand, ilg'or va insonparvar farzandi. Uning dilida tukkan niyatlari Ayniy ta'kidlaganidek quyidagilardan iborat: "Alisher Navoiy tabiatan insonparvar edi. Buning ustiga u hamma taraflama komil tarbiya ko'rib, olim, mutafakkir, san'atkor, faylasuf va yetuk siyosiy arbob bo'lib yetishdi. U mamlakatda yuz berayotgan vayronagarchilikka barham berish, uning o'rnida obod va madaniy davlatni vujudga keltirish, markazlashgan davlat tuzishni orzu qilardi. Kuchli va markazlashgan davlatda adolat tantanasi, ilm-fan, maorif, adabiyot va san'atning taraqqiy qilishini istardi"⁴⁰. Ana shu ezgu niyatlarni ro'yobga chiqarish uchun Alisher Navoiy katta mehnat sarf etadi. Xususan, muhrdorlik, vazirlik, hokimlik (Astrobod hokimi) lavozimlarida bo'lgan yillarida bu yo'lda cheksiz zahmat chekadi. Afsuski, zulm hukmronligi zamonida yolg'izgina nurafshon yulduzning yog'dusi qorong'ulikka barham berishdan ojizlik qildi. Lekin, Navoiy sochgan erk va adolat, ilm va ma'rifat nuri garchi zim-ziyo zulmat hukmronligida xiralashgan bo'lsada,

⁴⁰ Ўша китоб 304 б.

butunlay soʻnib ketmadi. Bu nur asrlar davomida erkparvar avlodlarni ezgulikka chorlab keldi, ularning qalbiga yaxshilik urugʻini sochdi. Navoiy umr boʻyi amalga oshirishga intilgan, lekin ularning tantanasini koʻrishga muyassar boʻlolmagan gʻoyalaridan butkul voz kechmadi, aksincha soʻnggi nafasigacha ularni qalbida eʼzozladi. Shoir idialidagi shoh va shahzoda, markazlashgan davlat, uning boshidagi odil hukmron, ishq-muhabbat bobidagi tenglik, shaxs erki singari masalalar silsilasining “Xamsa” tarkibidagi dostonlar magʻziga singdirilganligi ham shundan yorqin nishonadir.

Monografiyadagi yana bir fazilat sifatida “Xamsa” dostonlari tahlilining asar yaratilgan davr voqealari bilan chogʻishtirma tarzda olib borilishini koʻrsatish mumkin. Ayniy Navoiy asarlaridagi shoh va shahzodalarning nojoʻya hatti-harakatlari xususidagi voqealar ustida bahs etar ekan, ularning prototipini Abu Said Mirzo va yoki Sulton Husayn Boyqaro hamda ularning oʻgʻillarida koʻradi. Tahlil uslubidagi bunday yoʻlni faqat maʼqullash mumkin. Chunki, tahlildagi bunday yoʻl, birinchidan, Alisher Navoiy dostonlaridagi voqealar islomgacha boʻlgan davrdagi afsonalarning qayta hikoya qilinishi boʻlmay, balki ular orqali buyuk mutafakkir yashagan davr kartinalarining ifodalanganligini, “libosi mavzunga” oʻralgan jarohatlarini koʻrsatsa, ikkinchidan, ulugʻ oʻzbek shoiri yashagan zamon, muhit, tuzum borasidagi tasavvurni boyitishga, toʻldirishga xizmat qiladi.

Monografiyaning mazkur bobida Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy”, “Majolis un-nafois”, “Xamsat ul-mutaxayyirin”, “Mahbub ul-qulub”, “Lison ut-tayr” kabi asarlarining qisqacha bayoni va buyuk mutafakkir adabiy merosining toʻla roʻyxati beriladi. Muallifning mazkur asarlar xususidagi mulohazalarini, asosan, maʼqullash mumkin. Monografiyada Navoiy ijodiyoti haqidagi mulohazalarning shoir lirik asarlarining tahlilidan boshlanmaganligi, umuman, lirik asarlar tahliliga kam oʻrin berilganligini esa maʼqullash qiyin. Bu xususda ustozimiz professor Rahim Vohidov “Navoiy ijodi-ilhom manbai” nomli risolalarida quyidagicha fikr bildiradilar: “Gapni toʻgʻri “Xamsa”dan boshlash shoirning ijodiy evolyutsiyasini koʻrsatishga birmuncha futur yetkazadi. Chunki Navoiy ijodini “Xamsa” yozishdan boshlagan emas. Balki u 9 – 10 yoshidayoq gʻazallar yaratgan. “Xamsa” paydo

bo'lgunga qadar esa (1483-1485) uning qator devonlari vujudga kelgan va bu asarlarning muallifi yetuk shoir sifatida zamondoshlari tomonidan keng e'tirof qilingan edi. Ko'rinadiki, Alisher Navoiy badiiy ijod bobida tajriba paydo qilgandan so'nggina, "Xamsa" yozishdek sharaflı ishga qo'l urgan. Fikrimizcha ana shu xususda ham gapirilganda, Alisher Navoiyning hayoti va ijodi borasida yaxlit va mukammal ma'lumotga ega bo'lgan ilmiy monografiyaning fayzi, fazilati yana oshgan bo'lur edi.⁴¹.

Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy peshvolik qilgan XV asr adabiy muhidda lirikaning bir talay janrlari – g'azal, ruboiy, tuyuq mislsiz rivojlandi. Bu davrda muammo janriga ko'pgina shoirlar murojaat qildilar. Bu janrni nazariy jihatdan asoslash, amaliy rivojlantirishda buyuk Alisher Navoiyning ham xizmati kattadir. Uning besh yuzdan ortiq muammosi va hatto bu janrni ilmiy asoslashga qaratilgan risolasi shundan dalolat beradi. Sadriddin Ayniy ana shuni hisobga olib, monografiyada muammo janri, uning paydo bo'lishi, taraqqiyoti, yechilishi yo'llari xususida muhim ma'lumot bergan.

Alisher Navoiy haqida gap ketganda, kitobxon ko'z o'ngida ko'p qirrali talant sohibi namoyon bo'ladi. Sadriddin Ayniy esa ana shu yuksak talantning barcha olmos qirralarini ilmiy jihatdan asoslab ko'rsatishni o'z ilmiy tadqiqoti oldidagi muhim vazifa deb bilgan va uni hal etish yo'lidan borgan. To'g'ri, Alisher Navoiy siymosidagi bu dilbar fazilatlar haqida Sadriddin Ayniyning qator ilmiy ishlarida, xususan, "Alisher Navoiy va tojik adabiyoti" nomli yirik maqolasida bahs ketadi. "Alisher Navoiy" monografiyasida esa o'sha xulosalar yanada mukammallashtirilgan va bo'sh qolgan nuqtalar to'ldirilgan. Monografiyaga kiritilgan "Alisherning shogirdlar yetishtirishi", "Navoiy tashabbusi bilan tavsif topgan ilmiy-badiiy kitoblar", "Navoiy tomonidan ilmu adabiyot, umuman, omma manfaati uchun qurilgan binolar", "Alisher Navoiy va nafis san'atlar", "Alisherning sarf-xarajatlari", "Alisherning xususiy hayoti" singari bo'limlar ulug' o'zbek shoiri siymosini yaxlit ko'rsatishga xizmat qiladi. Xususan, monografiya muallifining Alisher Navoiyning sarfu xarajatlari va ularning manbai, buyuk mutafakkirning ijodiy ish jarayoni va ijod

⁴¹ Вохидов Р.Ж. Навоий ижоди – илхом манбаи Т.: Фан, 1981. –Б.66

psixologiyasi bobidagi mushohadalari katta estetik va tarbiyaviy mohiyat kasb etadi. Shunisi muhimki, Alisher Navoiy haqida fikr yurituvchi, unga doir biografik ma'lumot beruvchi deyarli hamma qo'lyozma manbalarda shoirning otasi vafotidan to Sulton Husayn Boyqaro saltanatida muhrdorlik lavozimiga ko'tarilgunga qadar (1469) bo'lgan davr ichida moddiy jihatdan nochor ahvolda (Samarqandda bo'lgan yillarida hatto so'nggi bir tangasini ham gadoga berganini eslang) yashagani qayd etiladi. Shoir hayotining so'nggi yillari haqida bahs etgan Xondamir o'zining "Makarim ul-axloq" asarida esa Navoiy mablag'i bilan qurilgan xonaqoh va shifoxonalar borasida gapiradi. O'sha asarda yuzlab beva-bechoralarning Alisher Navoiy mablag'i evaziga kiyim-bosh va oziq-ovqat bilan ta'minlanganligi qayd etiladi. Mana bu ikki bir-biriga qarama-qarshi manzara Navoiy ijodi muxlislarini ikkilanishga solib qo'yishi mumkin. Masalaning ana shu nozik tomonini inobatga olgan Sadriddin Ayniy o'sha murakkab holatlarni oydinlashtirib beradi. Alisher Navoiy hayotining iqtisodiy manbalarini asoslab ko'rsatish uchun tadqiqotchi XV asr hayoti, feodalizm idora usuli, undagi qoidalarni tarixiy manbalar ko'magida qayta tiklaydi va shularga tayangan ravishda qat'iy mulohazalarni o'rta tashlaydi. Jumladan, Alisher Navoiyning iqtisodiy jamg'armasining manbai haqida gapirib Sadriddin Ayniy yozadi: "Alisher Sulton Husayn saroyiga xizmatga kirib, o'z mansabiga yarasha maosh oldi. Bundan tashqari, feodalizm odatiga ko'ra, hamma yerda, Sulton Husayn Boyqaro saltanatida ham saroy mansabdorlari lavozimiga qarab podsholikka qarashli yerlardan suyurg'al berilardi. O'sha yerlardan kelgan daromadlarini mansabdor shaxsning o'zi olib, ma'lum qismini tirikchiligiga sarflar, qolganini jamg'arar edi"⁴². Muallif hamisha qiyosiy usulda ish ko'rganidek, bu bo'limchada ham shu yo'lni davom ettiradi. Alisher Navoiyning daromad va xarajatlarini Sulton Husayn Boyqaroning boshqa amaldorlari sarfu xarajati bilan muqoyasa qiladi. Zayniddin Mahmud Vosifiy guvohligiga tayanib, Sulton Husayn Boyqaro amaldorlaridan biri bo'lgan Shohvalining boshqa boyliklaridan tashqari, o'n sandiq to'la kumush, tilla va zabarjatlardan iborat shaxsiy xazinasini bo'lganligini ta'kidlaydi. Shuningdek, Hoja Majididdin va shoh oshpazi Hoja Pirlarning

⁴² Ўша китоб, 267-Б

isroforona ziyofatlari haqida o'quvchilarni ogohlantiradi. Ularning "o'ta sahiylik" bilan qilgan harakatlari xususida mushohada yuritib bo'lgandan so'nggina Alisher Navoiyning turmush zayli, xarajatlari ustida to'xtalib yozadi: "Ammo Alisher turmushda ortiqcha isroforlik qilmadi, kiyinish va yeyishda mehnatkash ommadan deyarli farq qilmasdi, hatto xotin olmadi, ro'zg'orida katta xarajati yo'q edi. Saroy maoshi, o'ziga berilgan yerlar dehqonchiligidan keladigan daromadlarni ilmu adabiyot va san'at ahli tarbiyasi uchun sarflardi"⁴³. Bu tarzda hayotiy faktlar asosida chiqarilgan ilmiy xulosalar har jihatdan kitobxonni qanoatlantiradi va adabiyotshunosning baland malaka hamda ko'nikmasidan dalolat beradi.

Monografiyaning "Navoiy zamonida hajv-satira va yumor", "Ilova" kabi qismlarida ham g'oyat muhim muammolar qalamga olingan. Sadridin Ayniy tezis holida bo'lsa-da, XV asr adabiyotida satira va yumorning qay ahvoldaligi, Alisher Navoiyning zamondoshlariga va zamondoshlarining unga munosabati kabi masalalar ustida mushohada yuritadi. Donishmand adabiyotshunos o'zining dastlabki fikrlarini o'rta tashlagan holda, adabiyotshunoslik e'tiborini buyuk mutafakkir faoliyatining ana shu muhim sohalariga qaratadi. Bugungi kunda o'zbek va tojik adabiyotshunoslari Sadridin Ayniy tomonidan o'rta tashlagan qator masalalarni bahamjihat hal etishda katta mehnat sarf etdilar va etmoqdalar. Jumladan, Sadridin Ayniy e'tiborini o'ziga qaratgan Darvesh Dehakiyning ham adabiy meroslari izlab topildi va marksistik metodologiya asosida ilmiy o'rganildi. Ularning fors-tojik va o'zbek adabiyoti tarixi taraqqiyotida tutgan o'rinlari belgilandi. O'zbek adabiyotshunosi Abdurashid Abdug'afurov esa "Alisher Navoiy satirasi" mavzusida katta tadqiqot yaratdi. Uning ko'p yillik ilmiy izlanishlari "Navoiy satirasi" nomi bilan ikki kitob holida O'zbekiston SSR "Fan" nashriyotida chop etildi. Bu faktlar Sadridin Ayniy xulosalarining ilmiyligi va hayotiy zarurat sifatida tug'ilganligini yana bir karra isbotlaydi.

Sadridin Ayniy monografiyasida Alisher Navoiyning fors-tojik tilidagi merosi masalasi ham yetakchi o'rinni egallaydi. Ushbu kitobning so'nggi qismida "Alisher Navoiy – Foniyning fors-tojikcha she'rlaridan namunalar" sarlavhasi ostida buyuk

⁴³ O'sha asar 271 b.

o`zbek mutafakkirining fors-tojik tilida ijod etgan asarlaridan namunalar keltiriladi. Mazkur bo`limning o`zi kirish, Navoiy – Foniylar asarlaridan namunalar, fors-tojik tilidagi g`azallarning tahlili va xotimadan tarkib topgan. Bo`limning kirish qismida mazkur ish oldida turgan maqsad va vazifa xususida gap boradi. Ta`kidlash zarurki, Sadriiddin Ayniy Alisher Navoiyning fors-tojik tilidagi adabiy merosining ham ilk tadqiqotchisi hisoblanadi. Masalaning yana murakkabligi shundaki, asrimizning qirqinchi yillari sovet navoiyshunosligining shakllanish pallasini edi. Hali Alisher Navoiy qoldirgan adabiy meros ilmiy tahlil etilib nashr qilinmagan, bu sohadagi qizg`in ilmiy-ijodiy ish endi boshlangan damlar edi. Xuddi shu gapni Alisher Navoiyning fors-tojik tilidagi merosining o`rganilishi masalasida ham aytish joizdir. Sadriiddin Ayniy Alisher Navoiyning fors-tojik tilidagi merosi ustida bahs yuritilgan ekan, ish oldida turgan qiyinchiliklarni his etgan va qayta-qayta ta`kidlagan. Monografiyaga ilova tarzida berilgan namunalar Alisher Navoiy – Foniylarning mukammal devonidan olingan bo`lmay, tadqiqotchi ularni turli to`plamlardan, devonlardan izlab topgan. Shu bilan birga, tadqiqotchining o`zi ham Navoiy – Foniylar she`rlariga shu taxallusdagi boshqa shoirlarning ayrim she`rlari aralashib qolishi mumkinligini odilona qayd qilgan. To`g`ri, Sadriiddin Ayniy o`z monografiyasida Alisher Navoiy – Foniylar g`azallari bilan bir qatorda boshqa Foniylar taxallusli shoirlarning she`rlarini qorishtirish hollari ham uchraydi. Monografiya so`nggida namuna sifatida keltirilgan 97 g`azaldan atigi oltitasi Alisher Navoiy – Foniylar g`azallari ekanligi ulug` o`zbek shoirining o`n ikki ming misradan ortiqroq fors-tojik tilidagi asarlari kulliyoti – “Devoni Foniylar” topilgandan so`nggina aniqlandi.

Alisher Navoiyning fors-tojik tilidagi asarlariga bo`lgan qiziqish keyingi yillarda davom etdi. Sadriiddin Ayniy tomonidan boshlangan olijanob ishni o`zbek va tojik adabiyotshunoslari davom ettirdilar. Navoiy – Foniylarning fors-tojik tilidagi adabiy merosini izlab topish, nashrga tayyorlash va ilmiy tahlil etish sohasida adabiyotshunos olim Hamid Sulaymonovning xizmatlari kattadir. Shuni muhimki, bu olim Navoiy – Foniylar merosini o`rganishning to`ng`ich namoyandasi bo`lgan Sadriiddin Ayniy xizmatlarini zo`r qoniqish bilan qayd etadi. “Navoiyshunoslikdagi bu mushkul ahvolni, – deb yozadi Hamid Sulaymonov, – ma`lum darajada bartaraf qilish

niyatida shoirning fors-tojik tilidagi asarlarini birinchi boʻlib jiddiy oʻrganishga kirishgan shaxs davrimizning atoqli adibi va olimi, sharq adabiyotining mashhur bilimdoni ham tadqiqotchisi Sadriddin Ayniy boʻldi⁴⁴.

Shu tarzda Sadriddin Ayniyning “Alisher Navoiy” monografiyasi masalalarning qamrovi va ularning chuqur hamda har tomonlama tadqiq etilishi bilan katta ilmiy ahamiyat kasb etadi.

II BOB BOʻYICHA XULOSALAR:

- Sadriddin Ayniy - ikki qoʻshni qardosh xalq adabiyotining taraqqiyotida oʻz oʻringa ega boʻlgan adabiyotshunos olimdir. Fors-tojik adabiyotining oʻnlab namoyondalari haqida koʻplab ilmiy maqolalar muallifi boʻlgan bu bilimdon adib oʻzbek adabiyotining tadqiqotchisi sifatida ham tanildi. Sadriddin Ayniyning bu sohadagi faoliyatining fazilati shundaki, adib oʻzbek adabiyoti tarixi va birinchi navbatda ulugʻ shoir Navoiy ijodining tadqiqotchisi, ayni paytda uning tojik muxlislari orasidagi targʻibotchisi sifatida harakat qiladi.

- Sadriddin Ayniyning oʻzbek adabiyoti tarixi uning namoyondalariga mehr-muhabbati u tuzgan “Namunai adabiyoti tojik” antalogiyasidayoq namoyon boʻlgan edi. Oradan yillar oʻtdi. Bu davr ichida adibning Navoiy, Gulxaniy, Muqimiy haqidagi qator maqolalariyu monografiyalari yuzaga keldi.

- Alisher Navoiy merosini tojik kitobxoni oldida keng targʻib etish ishtiyoqi uni tarjimonlikka ham undadi. Ayniy Alisher Navoiy 500 yillik yubileyini oʻtkazuvchi respublika hukumat komiteti faoliyatida aktiv ishtirok etdi. Umrining oxirigacha oʻzbek va tojik adabiyotiyu adabiyotshunosligining yangi yutuqlari ishtiyoqi bilan yashadi.

- 1948-yili “Alisher Navoiy” tadqiqoti asosida Leningrad universitetining Ilmiy kengashi Sadriddin Ayniyga filologiya fanlari doktori degan ilmiy darajani berdi. Bu tadqiqotning ahamiyati juda katta. Masalan, XV asrning ikkinchi yarmida Xuroson va Movarounnahrdagi madrasalar va ulardagi maʼnaviy muhitni, shoirning

⁴⁴ Хамид Сулаймонов. Навоийнинг «Фоний девони»// «Шарқ юлдузи», 1965, 9-сон, 151-бет.

zamondoshlariga munosabatini, xususan, Navoiy bilan bo'lgan uchrashuvlarni tadqiqotchilardan hech kim Sadriddin Ayniychalik butun murakkabligi bilan yoritmagan. Bu esa Navoiyning qanday moddiy va ma'naviy qiyinchiliklar bilan tahsil olgani, buyuk ijodkor bo'lishiga erishish bilan birga, keyinchalik davlat, mamlakat ishlarini donolik bilan olib borishga qodir arbob bo'lib yetishganini to'g'ri tasavvur etishimizga yordam berdi.

- Sadriddin Ayniyning shoirning forsiy merosi – “Devoni Foni”ni, o'rganish bilan bog'liq tadqiqotlari ham o'ziga xos ahamiyatga ega. Keyinchalik bu sohada maxsus tadqiqotlar olib borgan Hamid Sulaymonovning quyidagi fikrlari e'tiborga molik: “Navoiyning forsiy she'rlarini tekshirish yuzasidan ish olib borgan olimlar o'rtasida Sharq adabiyoti va qo'lyozma yodgorliklarining mashhur bilimdoni prof, S. Ayniyning tadqiqotlari alohida diqqatga sazovordir. “Devoni Foni”ning asl nusxasi qo'l ostida bo'lmaganligiga qaramay, Ayniy bir necha yil davomida Navoiyning forsiy she'rlarini juda ko'p qo'lyozma manbalardan izlagan, o'nlab nusxalarni til va uslub jihatidan harfma-harf muqoyasa qilgan, g'oyat serdiqqat ish olib borgan. Alisher Navoiyning forsiy she'rlarining birinchi tadqiqotchisi Ayniy bo'ldi”⁴⁵.

Xullas, ustoz Ayniy zamonaviy navoiyshunoslikning rivojiga fundamental tadqiqotlari bilan katta hissa qo'shgan adabiyotshunos olim bo'lib, biz uchun uning badiiy ijodi qanday qimmatli bo'lsa, ilmiy merosi ham shunchalik qadrlidir.

⁴⁵ Алишер Навоий. Асарлар. 15 жилдлик. 1-жилд. Тошкент, 1963. 48 б.

III BOB

OLIM SHARAFIDDINOV – NAVOIY IJODI TADQIQOTCHISI

3.1. Alisher Navoiy biografiyasi va poetikasiga doir munosabatlar

Olim Sharafiddinov talqinida

Taniqli navoiyshunos olim 1903-yilda Toshkent shahrida tug'ildi. Eshonzodalar avlodidan bo'lganligi tufayli boshlang'ich ma'lumotni oilada diniy ilmlarni o'rganishdan boshlab, arab va fors tillarini ham egalladi. 1918-1920-yillarda o'zbek bilim yurtida o'qidi. 1921-1925-yillarda Ozarbayjon Oliy pedagogika institutida tahsil oldi. Samarqanddagi O'zbekiston Davlat ilmiy-tadqiqot instituti, Toshkentda ish boshlagan Madaniy qurilish ilmiy tadqiqot instituti, O'zbekiston Davlat Universiteti, Toshkent Davlat Pedagogika instituti, O'zbekiston fanlar qo'mitasi huzuridagi Til va adabiyot ilmiy tekshirish instituti, O'zbekiston hukumati huzurida tuzilgan Navoiy yubileyini o'tkazish qo'mitasi (1938-1941)da ilmiy hodim, dotsent, sho'ba va kafedra mudiri lavozimlarida faoliyat ko'rsatdi.

Uning ilmiy merosi – mashhur monografiyasi, katta tadqiqot maqolasi, taqrizlari, darsliklar uchun bitilgan jajji portretlari – nari borsa ikki jildga jo bo'ladi. Vaqt atalmish hakam qanchadan-qancha taqdirlarni, ilm-ijod namunalarini unutilishiga mahkum etdi. Lekin biz bitishga jazm etganimiz olimning asarlari hanuz tirik, filologu adiblar xotirasidan o'chib ketmagan. U yaratgan asarlarda kashfiyot, mutaxassislarni lol qoldirgan yangiliklar uncha ko'p emasdi. Lekin uning Navoiy haqidagi maqolalarida pokiza ruh, harorat bor edi. Hanuz marhum olim, uning “Alisher Navoiy” monografiyasi haqida gap ketsa, “Yaxshi olim edi”, “Navoiy haqida harorat, iymon bilan yozgan edi” – degan gaplarni eshitamiz. Uning maqolalari, adabiy portretlari, hatto Cho'lpon she'riyatini noxolis, soxta ijtimoiylik asosida yoritgan maqolasida ham harorat, olimning chin qiyofasini yoritib turgan samimiylilik bor. Bu xususda Abdug'afur Rasulov “Nurli nigoh” maqolasida quyidagi fikrlarni yozadi: “Olim Sharafiddinov ijodi bilan qiziqib

qolganimni, ammo “O`zbek shoirlari. Cho`lpon” maqolasi meni o`ylantirib turganini Ozod Sharafiddinov domlaga aytganimda:

- Yozing. Olim Sharafiddinovni yangi avlod bilishi kerak. Yaxshi, halol olim edi. Cho`lpon haqidagi maqolani 23 yoshida yozgandi, zamon, firqa siyosatiga ishonar edi. O`sha sharoitda boshqacha yozish mumkin emas edi, – dedilar.

Men Olim Sharafiddinov asarlarini shoshilmasdan o`qidim, qizi, 87 yoshli singlisi, qarindoshlari bilan suhbatlashdim. Klara Alimovna – olimning ikkinchi qizi, o`qimishli, madaniyatli ayol, Elyor va Gulsanam degan ajoyib farzandlar onasi, taniqli adabiyotshunos Erik Karimovning rafiqasi – ota-onasi, opa-ukasi, ajdodlari haqida gapirib berdi, otasi o`qigan, yozgan kitoblarni, fotosuratlarini, O`zbekiston Fanlar akademiyasining muxbir a`zosi ekanligi haqida Olim Sharafiddinov nomiga to`ldirilgan 15-sonli guvohnomani ko`rsatdi”⁴⁶.

Olim Sharafiddinov farzandlari kamolini ko`rmadi. Qarangki, u kishining ikkila kuyovi – fan doktori, professor marhum qaynotalariga mehribon bo`ldi. Katta kuyov – Lolaxonning turmush o`rtog`i Rais Tuzmuhammedov, garchi iqtisodchi bo`lsa-da, asarlarining birida qaynotasi haqida iliq gaplarni bitdi. Adabiyotshunos Erik Karimov Olim Sharafiddinovning 1978-yilda chop etilgan “Tanlangan asarlar”ini to`pladi, nashrga tayyorladi. Jumladan, “To`pladi, nashrga tayyorladi” iborasiga diqqatingizni tortmoqchiman. Gap shundaki, Olim Sharafiddinovning “Alisher Navoiy hayoti va ijodi” monografiyasi besh bor: 1939, 1948, 1967, 1971, 1978-yillarda nashr qilingan. Shulardan 1978-yilgi nashr mukammal. Taniqli olim To`ra Mirzayevning hikoya qilishicha, Hodi Zaripov Olim Sharafiddinovning yaqin do`sti bo`lgan. Olim Sharafiddinov frontga ketish oldidan qo`lyozmalarini do`sti Hodi Zaripovga topshirgan. 1966-yilda Hodi Zaripov marhum do`sti oilasi, farzandlariga omonatni – o`ziga topshirib ketilgan qo`lyozmalarni egalariga qaytardi. Erik Karimov avvalgi nashrlarda tushirib qoldirilgan o`rinlarni “Alisher Navoiy” monografiyasiga kiritadi. Maqolalardan zamonaboplarini tanlab-tanlab oladi. Demoqchimizki, 1978-yildagi “Tanlangan asarlar” Olim Sharafiddinov ijodi

⁴⁶ Расулов А. Нурли нигоҳ//Жахон адабиёти, 2004, 6-сон, 160-бет.

haqida birmuncha keng ma'lumot beradi. Ishonch borki, XXI asrda Olim Sharafiddinov monografiyasi, maqolalari chop etiladi.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, hozircha Olim Sharafiddinov hayoti va ijodi haqida juda kam yozilgan. Shoir Mirtemirning olim haqidagi xotirasi, Haydarali Uzoqovning "Muhrlangan lahzalar" badiasi, Elyor Karimovning "U jang maydonidan qaytmadi" (1986) maqolasi, Abdurasul Abdug'afurovning "Nurli nigoh" (2004) maqolasi va Homil Yoqubov 1978-yildagi "Tanlangan asarlar"ga "Adabiyotshunosligimizning zabardast pioneri" kirish so'zini yozgan edi.

Olim Sharafiddinov Cho'lpon haqida, A. Qodiriy to'g'risida yozdi. U har ikki san'atkor haqida shunchaki emas, ularning buyukligini, ulug'ligini, yoshlar ularga ergashayotganini sezib turgan holda yozdi. Cho'lpon haqidagi maqolasida shoirning shirali tili, tirik tuyg'usi haqida so'zladi. Mana shu o'rinlarda Olim Sharafiddinov qalbidagi mohiyat aks etgan, harorat ko'ringan. Lekin zamon pishiq-puxta ishlangan quyushqonni unutmaslikni, soxta ijtimoiylik oynagini taqqan holda ish ko'rishni taqozo qilardi. Ayn – navqiron Olim Shrafiddinov zamon zayliga bo'ysundi. Uning o'tli maqolasi katta bahsning boshlanishiga turtki bo'ldi. Ayn qaytib bahsga aralashmadi: na Oybek, na Usmonxonni qo'llab-quvvatlamadi. Olim qalbida iztirob, javobsiz savol bor edi. U hayotni kuzatdi, ko'p o'qidi, izlandi. Olim Sharafiddinov rus, qadimgi yunon, ingliz, olmon adabiyotini o'qiydimi, ilmiy ish qiladimi, yoshlarga dars beradimi, asosiy diqqati Navoiyga kelib taqala boshladi. U nafaqat Navoiy asarlarini, nafaqat fors-tojik, turkiy adabiyotni, balki tarixiy asarlarni qunt bilan o'rgandi. Olim ruhida ro'y berayotgan o'zgarishlar, mumtoz adabiyotimiz, xususan, Navoiy ijodi haqidagi bilimi teranlashib, oydinlashib borayotganligi, Navoiy haqida yaratilayotgan asarlarga munosabatida aniq-tiniq ko'rina boshladi. "Navoiy ijodining xato talqinlariga qarshi" maqolasi olim ijodida tishli-tirnoqliligi, aniq-puxta yo'nalishga egaligi bilan ajralib tutadi.

Bizga ma'lumki, XX asr boshlarida o'zbek adabiyotshunosligida mumtoz merosga munosabatda ikki yo'nalish mavjud edi: 1) vulgar sotsiologik ruhdagi hamda mumtoz merosni inkor etuvchi qarshlar bo'lib, bu xususiyat J.Boybo'latov,

Oltoy, Z. Bashir, Z. Said, Yu. Latif singari adabiyotchilar chiqishlarida ko'p uchraydi; 2) ma'rifiy-ilmiy yo'nalish bo'lib, – bu tamoyil Fitrat, Vadud Mahmud, Oybek, A. Majidiy, Olim Sharafiddinov, Sadridin Ayniy, Olimiy, Otajon Hoshim, Botu kabi adib va adabiyotshunoslar ijodiga xos edi.

Ana shunday bir paytda Navoiy ijodiga qarshi turgan olimlarimizga javob qaytarish maqsadida Ayn “Navoiy ijodining xato talqinlariga qarshi” maqolasini quyidagicha boshlaydi: “Ulug' o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiyning hayoti va ijodi haqidagi noto'g'ri qarashlarni hozirgi paytda butunlay yo'qolgan deb bo'lmaydi. Ular ayrim hollarda haliga qadar yashab kelmoqda. Hatto Navoiyga yopishtirilgan turli tuhmatlar shu choqqacha jiddiy tanqid va zarbaga uchragan emasdir. Navoiy yubileyi munosabati bilan zararli va reaksiyon fikrlarning ba'zi “o'zgarishlar”ga uchrab yangidan takrorlanishi, Navoiy ijodiyotini qalbaki izohlashning davom etishi ham mumkin. Shuning uchun adabiy tanqidning vazifalaridan biri ulug' shoir ismiga yopishtirilgan har qanday tuhmat va bo'htonlarni fosh etish, uning nomiga dog' solmaslik va ijodini soxtalashtirmaslikdan iboratdir”⁴⁷.

Alisher Navoiy ijodiyotini qalbakilashtirishning bir namunasi Abdurahmon Sa'diyning 1932-yilda bosilib chiqqan “Simvolizm to'g'risida” nomli asaridir. Bu asar umuman Navoiy ijodiyotini tekshirishga bag'ishlangan bo'lsa ham, unda Navoiy “Sharq simvolizmining yirik vakili sifatida” talqin etilib, bu haqda anchagina fikrlar aytilgan. Buning ustiga Sa'diy o'z kitobida Navoiy haqida aytgan fikrlarini 1937-yilga qadar oliy maktablarda studentlar va ziyolilarga uqtirib kelgan. Bu xususan Ayn: “Shu e'tibor bilan prof. A. Sa'diyning Navoiy va uning ijodiyoti to'g'risidagi fikrlari ancha “populyarlashgan” hisoblanadi”, deb yozadi.(187-bet)

Boshdan-oyoq A. Sa'diyga xos bo'lgan vulgar sotsiologizm bilan sug'orilgan va marksizm-leninizmning tarixiy hodisalarni o'rganish haqidagi ta'limotiga, fanga qarshi bo'lgan bu kitob – Navoiy va uning ijodiyotiga kishini

⁴⁷ Шарафиддинов О. Танланган асарлар. Тошкент, 1978, Б-181. Bundan keyingi iqtiboslar ham shu nashrdan olinadi va sahifalar qavsda ko'rsatiladi.

hayratlantiradigan darajada tuhmat qiladi va butunlay noto'g'ri sharhlar beradi. Sa'diy Navoiyni Sharq simvolizmining katta vakili sifatida taqdim qilib, uning ijodiyotini shu asosdan chiqib tekshirish lozimligini ilgari suradi. Zamonasining katta siyosiy arbobi bo'lgan, o'sha zamonda davlatni keng xalq ommasining intilish va orzulariga muvofiq reforma qilishni talab etgan, madaniyatni ko'tarish yo'lida kurashgan, xalq manfaati uchun muhim ishlar qilgan Navoiy, A. Sa'diy fikricha, siyosatdan uzoq, ijtimoiy masalalarga dushman bir darvesh emish va Navoiy poeziyasining ma'nosi – tasavvuf, ilohiy ishq, jamiyatga dushmanlik, aqlni inkor qilish va shunga o'xshashlar emish. Sa'diy shoirning ijodiyotini qalbakilashtirish bilan cheklanmadi. Navoiy shaxsiyatini ham qoraladi. Uni saroy shoiriga aylantirishga urindi. Uning o'z sinfi xurofotlarini sindirib, unda juda baland ko'tarila olganini inkor etdi.

Olim Sharafiddinov o'z maqolasida quyidagicha fikr bildiradi: "Ulug' Alisher Navoiy o'zining ijodiyotini Husayn Boyqaro va uning atrofini o'rab olgan mansabparast, madaniy qiziqishi o'lgan saroy aristikratiyasining zarbalari ostida og'ir kechirmalar ichida yaratdi, ularga qarshi nafrat va g'azabini bayon qildi. Navoiyning faoliyati va yaratgan dohiyona asarlari o'z zamonasi uchun juda katta progressiv ahamiyatga ega edi. Biroq, A.Sa'diy Alisher Navoiy faoliyatidagi mana shu progressiv tomonlarni butunlay yo'qqa chiqarish uchun urinadi. Uni saroy aristikratiyasi qarashlaridan nari keta olmagan shoir deb tushuntiradi"⁴⁸. Ayn Navoiy ijodiga baho berishda xolis yondashadi. U Sa'diyning Navoiy ijodi haqidagi sayoz, betayinroq qarashlarini mazkur maqolasida keskin tanqid qiladi. Muhimi, shu maqolada Aynning millatparvarligi, o'zbeklik g'ururi, Navoiy ijodiga hurmati mukammal aks etgan: "Sa'diy faqat Navoiyga emas, balki o'zbek xalqiga, uning o'tmishda yaratgan madaniyati, adabiyotiga ham shu past nazar bilan qaradi va tuhmatlar yog'dirdi. Chunki uning fikricha, o'zbek adabiyoti tarixi faqat tasavvuf va simvolizm tarixidan iborat. A.Sa'diyning fikricha, o'zbek xalqi o'z turmushini badiiy aks ettirgan va zamonasining progressiv ideyalarini kuylagan shoirlar, yozuvchilar yetishtira olmagan"(187-bet).

⁴⁸ Шарафиддинов О. Танланган асарлар. Тошкент, 1978, 186 б.

Sa'diyning Navoiy ijodiyotini qalbakilashtirishdan iborat bo'lgan tanqidiy ishlari Navoiyga bag'ishlangan keyingi tadqiqotlarida ham juda ochiq davom etdi. Uning "Adabiyot olimi ham tanqidchi sifatida Mir Alisher Navoiy" sarlavhali maqolasi bunga yaqqol misol bo'la oladi. A. Sa'diyning bu maqolasida har narsadan ilgari ko'zga tashlangan fikr Navoiyni hali ham Husayn Boyqaro saroyining "o'ng qanoti" sifatida ta'riflashi va Navoiyning o'z sinfi xurofotlari ramkasini sindirib, undan juda baland ko'tarila olganini, o'z zamonasining xalqchil, gumanist yozuvchisi ekanini inkor qilishdir. Sa'diy fikricha, Navoiyning estetik qarashi, keskin satrlarni ya'ni darajali olimlardan, hukumat xodimlaridan keskin kuluvchi satrlarni qabul qilmagan emish. Olim Sharafiddinov Sa'diyning ushbu fikrlariga qarshi chiqadi, albatta: "Navoiy hech vaqt darajali odamlardan va hukumat xodimlaridan keskin kuluvchi satrlarga qarshi bo'lmagan va "azizlar, mutadayyin" odamlarga qarshi yozilgan satrlarga yuqori baho bergan".(186-bet) Va o'z fikrini isbotlash uchun "Majolis un-nafois"ning ikkinchi majlisida keltirilgan astrobodlik Sayid Abdulhaqning viloyat qozisi va mamlakat sadriga aytgan keskin bir satirasini juda yuqori baholaganini keltirib o'tadi. Voqea shunday bo'lgan: Bir mulla Quchon viloyatiga qozi bo'lmoqchi bo'lib, mamlakatning sadri yoniga kiradi, ammo sadr uni qozi qilishga unamaydi. So'ngra mulla sadrga bir eshak pora berib, qozi mansabini sotib oladi. Aynan shu hodisani Sayid Abdulhaq forsha shunday deb hajv qiladi:

Hami gasht dar shahr shaxsi zi Qo`chon,

Ki, Qozi shavad sadr rozi namishavad.

Xari dod dar sadru qozi shud oxir,

Agar xar name bud, qozi namishshavad (189-bet).

Shoir Abdulhaq o'zning san'atkorona yozilgan bu hajvida pora berib qozi bo'lgan mullani ham, pora olib qozi qilgan sadrni ham eshak deb ataydi. Ushbu satrlar borasida Ayn: "...bunday satrlarni yuqori baholaganini ko'rsatuvchi faktlar "Majolis"da juda ko'p" deydi va Navoiy bunday satrlarga yuqori baho berish bilan chegaralanmasdan, bu kabi go'zal namunalarni o'zi ham yaratganligini aytib o'tib, Navoiyning "Hayrat ul-abror"idan bir necha misollar keltirib o'tadi.

Xo'sh, Sa'diy nima uchun Navoiyni "azizlar" va "mutadayyin" odamlarga qarshi yozilgan satrlarning dushmani sifatida baholaydi. Bunga asos nima? Bunga asos Navoiyning o'z "Majolis"ida mavlono Abdulvose Ahmad Mujallod va Darvesh Mashhadiylarning hajvlariga baho bera olmaganini emish! Bu kishilar "azizlar" va "mutadayyin"larga qarshi o'tkir satirachi emishlar! Sa'diy bu asossiz da'vosini quvvatlash uchun Navoiyning "Majolis"da yuqoridagi shoirlar to'g'risida yozganlaridan keltiribdi, ularni o'z subyektiv qarashiga muvofiqlashtirib sharhlaydi: "Navoiy tanqidchi sifatida, umuman, hajviy asarlar haqida ham juda ehtiyotli munosabat ko'rsatadi, keskin satrlarni ma'qullab qabul qila olmaydi..."(190-bet) Bunday noo'rin gaplarga Olim Sharafiddinov o'z maqolasida quyidagicha javob qaytaradi: "Navoiyning hajviy asarlarga munosabatini shu tarzda ko'rsatish faqat Navoiy zamonidagi hajvchilikning xususiyatlarini bilmaslik natijasigina emas, balki A. Sa'diyning Navoiy haqidagi no'to'g'ri qarashlarining hozirgi kunga qadar davom etishi natijasi hamdir. Bo'lmasa u Navoiyning qanday hajvlarni yoqtirmaganini surishtirmay shu da'voni qilarmidi? Navoiy "azizlar" va "mutadayyin" odamlarga qarshi keskin yozilgan satrlarga emas, balki ijtimoiy ahamiyati bo'lmagan, birovning shaxsiga qarata "beandisha so'kish"dan iborat bo'lgan "satira"larga qarshi edi"(191-bet).

Sa'diy "keskin satirachi" deb maqtagan yuqoridagi hajvchilarni Navoiy "habis sheva", "badzabon" bo'lgani uchun yoqtirmaydi. Biz bu yerda Sa'diy tomonidan keskin satirachi deb ko'rsatilgan Abdulvose to'g'risida biroz izoh beramiz. Abdulvose bir vaqtlar Husayn Boyqaroga vazir bo'lib yuzini kuydirgan Majididdinning xususiy qiziqchisi edi. Uning hajvchiligi (xoh yozma bo'lsin, xoh og'zaki) tilga olib bo'lmaydigan beadab so'zlar bilan odamlarni haqoratlashdan iborat edi. Bunday "so'kishlar"ni u katta mahorat va hozirjavoblik bilan bajarar edi. Bu "so'kish"larning hech qanday ijtimoiy ahamiyati, xalqqa foydasi yo'q edi. Aksincha, ular kishilarning ahloqini buzishga olib boruvchi ijtimoiy zararli narsalar edilar. Shuning uchun Navoiy Abdulvosening hajvlarini tanqid qiladi. Bu borada Olim Sharafiddinov Vosifiyning "Badoye ul-vaqoye" asaridan dalillar keltiradi: "Bu faktlar ko'rsatadiki, Navoiy o'sha chirigan muhitning ahloqini,

buning natijasi o'laroq so'kish, qoloqlik, madaniyatsizlik bilan sug'orilgan ijtimoiy-zararli hajvlarni yoqtirmas edi. Sa'diy maqtangani yuqoridagi hajvchilar ham xuddi shunday "satiralar" yaratganlari uchun Navoiy ularni "Habis sheva", "badzabon" deb tanqid qilgan edi"(191-bet).

Olim Sharafiddinovning A. Sadiy, Miyon Buzruk Solihov kitoblari haqidagi tadqiqotlarida vulgar sotsiologizm ruhi, markscha qarash asosida fikr yuritish belgilari sezilsa-da, ulardagi harorat, jonli mulohazalar kishini befarq qoldirmaydi. Yuqorida maqolasida ham harorat, jonlilik, oydinlik yaqqol sezilib turadi. U Navoiy ijodini xolis o'rganadi va uning buyukligini xalq ham bilishini istaydi. Sa'diy fikrlarini inkor etgan holda maqolasini quyidagicha tamomlaydi: "Sa'diy hali Navoiy to'g'risida o'zining eski qarashlaridan, xato "nazariya"laridan qutula olmagan. Biz Navoiy asarlarini xalqqa to'g'ri tushuntirish yo'lida olib borgan ishlarimizni yuqori saviyaga ko'tarish uchun Navoiyni va uning ijodiyotini buzib ko'rsatishlarga qarshi kurashishimiz kerak".

1939-1941-yillarda Olim Sharafiddinov ilmiy, adabiy-tanqidiy, o'quv-metodik asarlar yozdi. Shu yillarda u Navoiy poetikasi to'g'risida tadqiqot yaratgan. Maqola aslida katta bir tadqiqotning debochasi bo'lgan. "Alisher Navoiy poetikasining ba'zi xususiyatlari to'g'risida" nomli maqolasi 1968-yilda "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalida nashr etilgan. Ushbu maqolasida masalani keng ko'lamda, teran olganligi ko'rinib turadi. Olim Navoiy poetikasi haqida gapirganda avvalo, o'sha zamon nuqtai nazaridan qarash kerakligini aytib o'tadi: "Alisher Navoiyning poetikasi haqida so'zlar ekanmiz, dastlab uning zamonasida hukmron bo'lgan poetik qanoat to'g'risida izoh berish zarurligi kelib chiqadi. Chunki o'zbek adabiyoti va poetik tilini voyaga erishtirgan Navoiy arab, fors adabiyotining go'zal namunalari va o'sha zamon adabiy qanoatining ta'sirida tarbiyalandi. Navoiyning fikr-qarashlari, uning poetikasining xususiyatlari, shubhasiz, o'zidan ilgarigi meros va zamonasidagi adabiy traditsiyani tanqidiy egallash asosida, shu bilan birga turmushni chuqur o'rganish, sinchiklab mushohada qilish negizida mustahkamlandi va shakllandi"(156-bet).

Zotan, Navoiy o`zining “Mezon ul-avzon” nomli asarida: “Ajam shuarosi va fors fusahosi har qaysi uslubdakim, so`z arusiga jilva namoyish berib erdilar, turk tili bila qalam surdim va har nechuk qoidakim, mani afgoriga zeb va ziynat ko`rguzib erdilar, chig`atoy lafzi bila raqam urdim”, deb arab va fors adabiyotida o`rinlashgan nazariya orqasidan borganini ochiq so`zlaydi.

Olim o`zbek adabiyotshunosligidagi poetikaga oid nodir asarlar haqida fikr yuritadi. Tadqiqotchi Aristotel, Platon singari yunon olimlarining so`z san`atiga oid asarlarining arab dunyosiga kirib kelishi, tamaddundan muhim o`rin egallaganligi haqida to`xtaladi. Ma`lumki, adabiyotni anglash va uning qonun-qoidalari to`g`risida, arab va forslar orasida hukmron bo`lgan tushunchada qadim Gretsiyaning ta`siri zo`r edi. Miloddan IV asr ilgari o`tgan, qadim Gretsiyaning ulug` mutafakkiri Aristotel tomonidan yaratilgan “Poetika” arabchaga tarjima qilingan edi. Uning o`zidan ilgarigi va zamonasidagi adabiy materialga asoslanib, adabiyot uchun belgilangan umumiy formalardan foydalanib, arab, fors poetikasi yuzaga keldiki, buni Navoiy chuqur egallagan edi. Olim Sharafiddinov poetikaga oid tadqiqotlar yaratgan Xalil Ibn Ahmad, Nizomiy Aruziy, Shamsqays Xo`ja Nasr, Ibn Xaldun singarilar nomi Alisher Navoiy asarlarida uchrashini aytib ular borasida quyidagicha fikr bildiradi: “Bu adabiyot nazariyotchilari uchun deyarli umumiy xarakterli xususiyat – adabiyotni o`zlari chizgan bir qancha tor doira ichida harakat qilishga majbur etish edi. Ular shoirlarni eski, buyuk shoirlarning asarlaridan chiqargan qoidalarini talqin qilib, eski ustodlar (masalan, Firdavsiy, Nizomiy va boshqalar)ning namunalaridan tashqariga chiqmaslikka chaqiradilar. Natijada, adabiyot, she`r o`zining haqiqiy mohiyatini yo`qotib, turmushdan ajralib oddiy so`z o`yiniga aylana boshlagan edi...”(157-bet).

Anglashiladiki, Olim Sharafiddinov mazkur olimlar asarlarini o`qigan, biladi. U Nizomiy Aruziyning “Chahor maqola”, Ibn Xaldunning “Muqaddima” asarlaridan iqtibos, fikr keltiradi. Olim Sharafiddinov o`z tadqiqoti yaratilayotgan davr siyosati, adabiyot qoidalaridan kelib chiqib, Ibn Xaldunning poetikaga oid qarashlarida formalizm borligini, ular adabiyotning o`sishiga to`siq bo`lishini ta`kidlab o`tadi: “Navoiydan yarim asr burunroq o`tgan mashhur tarixchi Ibni

Xaldun o'zining "Muqaddima"sida arab va fors tili adabiyoti mutaxassislarining fikr va qarashlarini xulosa qilib, adabiyotga formalistik qarashning asosini soldi. U shakl va mazmun to'g'risida "Nazm va nasrda badiiylik ma'noga oid emas, balki so'zlarning shakllanishiga oiddir. Ma'no shunga ergashadi. Ma'no emas so'z asldir. Nutq so'zlardan iborat, ammo ma'no ko'ngildagi narsa bo'lib, u har kimda bor. Har fikr egasi u ma'nolarni o'zi istagancha aylantira oladi. Bu san'atga muhtoj emas" – deydi. Adabiyotni stilistik priyomlardan iborat deb talqin qilgan Ibni Xaldun o'zining bu fikrlari bilan adabiyotda formalistik foksrlarning avj olishiga kata yo'l ochdi va yuqoridagi taqlidchilik zehniyati bilan qo'shilib, adabiyotning o'sishiga to'sqin bo'ldi"(158-bet).

Chindan ham XIV-XV asrlardagi xoh fors, xoh o'zbek adabiyotiga qarasak, bu nazariyalarning adabiyotga qanchalik zararli ta'sir ko'rsatganini ravshan ko'ramiz. Ayn o'z maqolasida Navoiy davrida hukmron bo'lgan poetik qanoat va klassik adabiyotimizda o'rinlashgan an'analar, shoirlar uchun majburiy hisoblangan poetik formalarga baho berishga urinadi va bu suhbatda Navoiy uslubining umumiy prinsplarini ko'proq ifodolovchi ayrim poetik o'rinlari to'g'risida umumiy tasavvur berishni ko'zda tutadi: "Navoiy, shubhasiz, klassik poetikaning butun formalarini o'z asarlariga muvaffaqiyatli tadbiiq qilgan ajoyib shoir edi. Biroq u shu zehniyatining asiri emas edi. Uning adabiy faoliyatini ko'zdan kechirganlarga ma'lumki, Navoiy bu ramkalardan chiqib, bu qarashlardan juda yuqori ko'tarila oldi".

Olim mumtoz adabiyotshunoslik namoyandalari asarlarini nozik tahlil qilib turadi-da, ulardagi xalqchillikka, xalqona san'atga yot tomonlarni tanqid qilib qoladi. Kitobxonda Olim Sharafiddinovning tanqidiy qarashlari emas, mumtoz she'riyat poetikasini nozik tushunishi qiziqish uyg'otadi.

3.2. “Alisher Navoiy hayoti va ijodi” monografiyasining navoiyshunoslikdagi ahamiyati

Olim Sharafiddinovning qisqagina ilmiy ijodiy yoʻli, negadir, Muqimiyning “Oʻzim har joydaman, koʻnglim sendadur” degan mashhur satrini yodga soladi. Ayn adabiy hayotda, oʻzbek tanqidchiligida koʻrinib turdi, lekin uning fikri yodi mumtoz adabiyotimizda, xususan Navoiy ijodini chuqur, mukammal oʻrganish, oʻzlashtirishda edi. Olim butun borligʻi, iymonu-eʼtiqodi bilan Navoiyning daho ijodkor ekanligiga, uning asarlari oʻzbek xalqining bitmas-tuganmas maʼnaviy boyligiga aylanganligiga ishonadi. Boshqacha aytganda, 20-yillar oxiridan 30-yillar pirovardigacha Ayn oʻz ijodining shoh asarini – Alisher Navoiy hayoti va ijodi haqidagi asarini yozishga tayyorlandi. Buni fors-tojik, turkiy mumtoz adabiyotlari bilimdonlari Sadriddin Ayniy, Yevgeniy Bertels bilan doʻstona aloqaga kirishuvida, Vasiliy Bartold asarlarini qunt bilan oʻqishida bilish mumkin edi. Intilganga tole yor, deganlariday, 1938-yilda Alisher Navoiy yubileyini oʻtkazish boʻyicha Oʻzbekiston hukumatining maxsus qaror qabul qilishi koʻngildagiday ish boʻldi. Ustiga-ustak Olim Sharafiddinov yubiley oʻtkazuvchi hayʼat tarkibida ilmiy xodim boʻlib ishlay boshladi. Omadning kulib boqishi boʻlsa kerakki, Oʻzbekiston Respublikasi Ministrlar Sovetining 1938-yil 15-dekabrdagi qarorining bir bandida Alisher Navoiy hayoti va ijodi haqida monografiya yozish Olim Sharafiddinovga yuklatilishi taʼkidlangan, risola ham rus, ham oʻzbek tillarida chop etilishi lozimligi koʻrsatilgandi. Mazkur farmoyishga Oʻzbekiston hukumati boshligʻi Abdujabbor Abdurahmonov imzo chekkan edi.

Olim Sharafiddinov hukumat buyurtmasini muddatidan ilgariyoq sharaf bilan uddaladi: 1939-yilda “Alisher Navoiy hayoti va ijodi” monografiyasi bir yoʻla rus va oʻzbek tillarida chop etildi. Olimning orzusi ushaldi. Lekin monografiyaning Sotti Husayn masʼul muharrirligida chop etilgan birinchi nashriga Ayn Sharafiddinov yozgan materialning hammasi kirmagan edi. Olim Sharafiddinov frontga ketar ekan, Navoiy haqidagi monografiyaning toʻliq qoʻlyozmasini doʻsti Hodi Zaripovga ishonib topshirdi.

Monografiya juda keng qamrovli bo'lib, kirish qismi bilan boshlanadi va dastlab Navoiy hayoti va ijodi o'rganilishi masalasiga e'tibor qaratiladi. Alisher Navoiyning hayoti va ijodi to'g'risida ko'p qimmatli ma'lumotlar Navoiyning zamondoshlari tomonidan bizga yodgor qilib qoldirilgani va uning nomi XV-XVI asrlarda yozilgan barcha tarixiy asarlar, tazkiralarga kirganligi aytib o'tiladi. Jumladan Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro", Xondamirning "Makarim ul-axloq", Boburning "Boburnoma", Zayniddin Muhammad Vosifiyning "Badoe ul-vaqoe", Lutf Alibek Ozarning "Otashkada", Som Mirzoning "Tuhfai Somiy", Rizo Qulixon Xidoyatning "Majma ul-Fusaho" nomli asarlariga Olim Sharafiddinov birma-bir to'xtalib o'tadi. Shundan so'ng G'arbiy Yevropa va Rossiyada Navoiy hayoti va ijodini o'rganish sohasida qilingan ishlar bilan o'quvchini tanishtiradi. Erbeloning "Sharq to'g'risida qomus", Hammerning "Eron nafis adabiyotining tarixi", P.S.Melioranskiyning "Turk shevalari va adabiyoti", Mixail Nikitskiyning "Amir Nizomiddin Alisher, uning davlat ishida va adabiyot sohasidagi ahamiyati" nomli magistlik dissertatsiyasi va fransuz diplomati Belenning "Alisher Navoiy haqida, avtorning asarlaridan namunalar bilan biografik va adabiy qaydlar" kabi asarlar haqida ma'lumot berib o'tadi va ular yo'l qo'ygan kamchiliklar va chalkashliklarni bartaraf etishga harakat qiladi jumladan: "Belenning so'zlariga ko'ra Navoiy "Hayrat ul-abror" va "Mahzan ul-asror" nomli ikki asar yozgani anglashiladi. Biroq "Mahzan ul-asror"ning Nizomiy Ganjaviy asari yoki shu asarning XV asrda Haydar Xorazmiy tomonidan qilingan tarjimai ekani juda aniqdir", – deb ta'kidlaydi⁴⁹. Olim Sharafiddinov o'z davrida Navoiy ijodiyotini o'rganish juda yomon ahvolda ekanligini ko'rsatish maqsadida bunga o'xshash faktlarni keltirib o'tadi va bu ishga o'zi jiddiy yondashadi.

Olim Alisher Navoiyning bolalik yillari haqida gapirar ekan, uning qachon, qanday oilada tug'ilganligi, otasi G'iyosiddin Kichkina Abulqosim Boburning saroy xizmatchilaridan bo'lib, keyin Xurosonning kichik shaharlaridan Sabzavorga hokim bo'lganligi, barchamizga ma'lum bo'lgan Eron shoiri Qosim Anvorning

⁴⁹ Шарафиддинов О. Танланган асарлар. Тошкент, 1978, 54 б.

she'rlarini kichkina Alisher yodlab har yerda aytib yurgani, jumladan dastlab o'rgangan bayti "Rindemu oshiqemu..." deb boshlanuvchi bayt ekanligi haqidagi ma'lumotlarni aniq manbalarga tayanib keltiradi. "Tarixi Rashidiy" ma'lumotlariga tayanib Alisherning maktabga borganligi va u yerda kelajak podshohi Husayn Boyqaro bilan birga o'qishi, chinakam do'stlik ana shu maktabdoshlikdan boshlanishi biroq bu do'stlik uzoq cho'zilmay Shoxrux mirzo vafotidan so'ng Alisherning otasi o'ziga qarashli yoshlar va ulug'larni olib Xurosondan Iroqqa ko'chishga majbur bo'lishi va shu yo'lda Alisherning Sharafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashuvi haqidagi ma'lumotlarni ham to'liq ko'rishimiz mumkin. 1451-yilda mamlakatda tartib o'rnatilgach, Alisher oilasi Iroqdan Yazd cho'li orqali Xurosonga qaytadi. Yo'lda Alisher bilganimizdek, boshidan ajoyib voqea o'tkazadi, ya'ni yo'lda charchab otidan yiqilib karvondan qolib ketadi. Aynan shu voqea borasidagi aniq faktlarni Olim Sharafiddinov Xondamirning "Makarim ul-axloq" asariga tayanib to'liq hikoya qiladi. Shundan so'ng tadqiqotchimiz Alisher Navoiyning o'z asari bo'lmish "Lison ut-tayr"ga tayanib yosh Alisherning Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" asarini katta zavq bilan o'qib, bu ajoyib kitobni boshdan oyoq yod qilgani va ota-onasi bundan qo'rqib qanday chora ko'rishgani va boshqa ma'lumotlarni ham so'zlab beradi. Monografiyaning "Alisherning bolalik yillari" qismi so'ngida Alisher 1456-yilda shoir Said Hasan Ardasher bilan tanishib qolishi va u bilan bog'liq bo'lgan hodisalarni "Holoti Said Hasan Ardasher" nomli asarga tayanib ma'lumot beradi.

Monografiyaning Alisherning yigitlik chog'lari qismida bir qancha qiziq ma'lumotlar keltiradi, jumladan Alisherning shoir Shayx Kamol Turbatiy bilan tanishuvini xarakterli hisoblaydi: "Qurbon bayrami edi. Alisher kasal bo'lib, bir hujrada yotar edi. Mashhadni ziyorat qilishga kelgan kishilardan bir to'dasi odat bo'yicha musofirlar turadigan hujralarni ziyorat qilish vaqtida Alisherning hujrasiga ham kiradilar. Shunda devorga yozilgan bir baytni o'qib, ma'nosini ustida talashadilar. She'r ma'nosini turlicha izoh qiladilar. Bir ulug' kishi bu she'rning mazmuni haqida o'z fikrini jamoatga ma'qul qiladi. Alisher yengilgan tomonning fikrini quvvatlaydi. Tortishuv yana kuchaydi, janjalga aylandi. Kasal yigitning

so'zi ma'qul bo'lgach, boyagi ulug' kishi fikridan qaytib, Alisherning fikriga qo'shiladi. Bu kishi zamonasining atoqli shoir va adibi Shayx Kamol Turbatiy edi. Shayx Kamol yosh yigitni surishtirib, uning Alisher ekanini biladi. Ko'pdan beri Alisher bilan ko'rishish havasida yurgan shoir bu uchrashuvdan juda xursand bo'ladi. Bu tasodif, ularning adabiy musohabalariga, do'stona munosabatlariga yo'l ochadi. Navoiy xuddi shuning singari mashhur hattot va shoir Xoja Muhammad Astrobody bilan ham tanishadi. Bu tanishuvlar Navoiyning fikriy o'sishiga, qarashlarining mustahkamlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi"(71-bet). Alisher 1464-yilda Mashhaddan Hirotga qaytadi. Bu choqlarda Hirot Abu Said mirzo qo'lida bo'lib, go'zal Hirotning hayotida katta o'zgarish paydo bo'lgan edi. Olim Sharafiddinov bu davr haqida "Holoti Said Hasan Ardasher", "Makarim ul-axloq" kabi asarlar asosida chuqurroq ma'lumot berishga harakat qiladi. O'sha davrlarda Alisher ikki yarim yilcha Hirotida yashasada, buyuk ijodiy ishlarga berilishni orzu qilgan Alisherni bu yerdagi tanishuvlar, suhbatlar qanoatlantira olmasdilar. Shuning uchun u sevgan vatanida o'zini begona, kimsasiz his eta boshladi va Hirotni tark etish fikriga tushdi. Abu Said Mirzo Alisherni Samarqandga badarg'a qilish bilan uning bu niyatiga erishuvini ancha "osonlashtirdi".

Abu Said Mirzoning Alisherga bunday yomon munosabatda bo'lishining sabablarini Olim Sharafiddinov quyidagicha izohlaydi: "Sulton Husayn Temur merosiga ega bo'lish uchun 1457-yillardan boshlab Abu Said mirzoga qarshi kurishadi. Uning bu kurashlarida Alisherning tog'alari va boshqa qarindosh-urg'lari qatnashdilar. Alisherning katta tog'asi Mir Said Husayn Boyqaroning eng yaqin kishilaridan edi (uni o'zining dushmanlaridan hisoblagan Abu Said mirzo 1461-yilda Sarhasda o'ldirdi). Shuningdek, Alisherning kichik tog'asi Muhammad Ali ham Husayn Boyqaro tomonida turib Abu Said mirzoga qarshi kurashgan edi (u keyinroq Samarqandga borganida Abu Said Mirzo tomonidan o'ldiriladi). Buning ustiga Alisherning o'zi ham Abu Said mirzoning dushmani Husayn Boyqaroga yaqin turadi. Mana bular Abu Said mirzoning Alisherga iltifotsiz qarashning bosh sababi edi..." shu voqea bilan bog'liq bo'lgan boshqa tafsilotlarni

ham bir qancha keltirib o'tadi va fikrini dalillash uchu "Boburnoma"dan bu haqidagi faktlarga tayanadi. Tadqiqotchi Alisherning Samarqanddagi hayoti, kimlar bilan tanishgani, shu yerda turib ham Husayn Boyqaro tomonida kurashib, Abu Said mirzo va uning o'g'li Sulton Ahmad mirzoga asir tushganlarni o'limdan qutqarish uchun harakat qilgani, "Hasbi hol"ning yozilish sabablarini va moddiy tomondan og'ir hayot kechirganligini, xullas, 1469-yil, aprel oyida Hirotga kelib, ramazon bayrami munosabati bilan Husayn Boyqaroga bag'ishlab "Hiloliya" nomli qasidasini yozishigacha bo'lgan voqealarni yoritishga harakat qiladi.

Olim Sharafiddinov keyingi qismga Alisher Navoiy – davlat arbobi deb nom beradi va oldingi qismdagi voqealarni davom ettiradi. Dastlab, Husayn Boyqaro va Alisher Xurosonda temuriylardan Yodgor Muhammadga qarshi kurashib turgan paytlarida Hirotida feodal ekspluatatsiyasiga, og'ir soliqlarga, zolim, yirtqich amaldorlarga qarshi xalq qo'zg'oloni bo'lgani va Alisher buni tinchitib, shu yo'l bilan xalq o'rtasida tanilishi va amaldorlarni o'ziga dushman qilganini bayon etadi. Bu qo'zg'olon Husayn Boyqaroning soliq siyosatiga, uning amir va beklar zulmiga qarshi xalqning g'azabi va nafrati edi. Qo'zg'olon ko'tarilgani xabari podshohga yetgach, bu ishni tekshirish va xalqni tinchlantirish uchun Alisherni tezda Hirotga jo'natadi. Ammo Alisher nohaq soliqlar bekor qilinsagina, qo'zg'olonni tinchitishni o'z zimmasiga olishini bildiradi va Boyqaroni bunga ko'ndiradi. Alisher taklifi bilan bu qo'zg'olonga sababchi bo'lgan vazir va amaldorlarni qamoqqa olish to'g'risida podshoh farmon beradi. Bunday voqealar ko'plab sodir bo'lganligi bois Husayn Boyqaro Alisherni o'ziga juda yaqin oladi, ammo bu amirlar va beklarning unga raqiblik rashki bilan qarashlariga va unga qarshi Husayn Boyqaroni aynitishga harakat qilishlariga sababchi bo'ladi. Alisher 1476-yilda saroy ig'volariga, adolatsizlikka qarshi nafrat sifatida vazirlikdan bo'shadi. Bu bilan bog'liq ma'lumotlarni Olim Sharafiddinov "Badoe ul-vaqoe" va "Tazkirat ush-shuaro" kabi asarlardan dalillar keltirib asoslaydi. Alisher saroydan uzoqda tursa ham har doim xalq foydasi uchun ish tutadi. Tadqiqotchi shu xususda bir voqeani chiroyli bayon etadi: "Sulton Husayn saroydan ketgan Alisherni har bir ishidan xabardor bo'lish uchun bir kishini navkar tariqasida Alisher xizmatiga

yuboradi va bu navkar har bir ishdan podshohni xabardor qilib turdi. Alisher sezgirlik va farosat quvvati bilan bu sirni payqagan edi ammo bu ta'qibdan qo'rqmadi, aksincha xalq foydasiga ishladi. Sulton Husayn Muhammad Valibek nomli amirga Hirot shahrining dorug'alik mansabini topshirgan edi. Uning Xojai Muhammad Chinor nomli yaqin bir odami bor edi. Muhammad Valibek o'z tomonidan unga shahar dorug'aligini havola qildi. Xojai Chinor mayxo'rliqi, axloqsizligi bilan Hirotida mashhur bo'lib, xalq uning zulmidan bezor bo'lgan, hech kim o'z chiroyli o'g'lini uning dastidan ko'chaga chiqara olmas edi. Muhammad Valibekdan qo'rqqanidan hech kim bu to'g'rida shikoyat qilishga botina olmas edi. Bu voqea Alisherga eshitildi. Alisher bu voqeani podshohga bildirish yo'lini topdi. Bir kuni Alisherning qoshiga bir kishi kelib kirdi. U tortiq qilib bir kitob, kamon va bir kalla qand keltirgan edi. Alisher undan kimligini va bu hadyalarni nima maqsad bilan keltirilganini so'radi. U kishi shunday dedi:

- Otam bu oliy dargohning xizmatchilaridan edi. Men ham bu ostonada xizmat qilib, bahramand bo'lgani keldim.

- Ey yigit, – dedi Alisher, – menga loyiq xizmat qilib, har kuni bu eshikda yurganingda, mendan ko'nglingdagidek daromad qilolmaysan. Lekin senga bir yo'l ko'rsataman. Har kuni eng ozi yuz tanga topasan.

- Oliy fikringiz hokim, – deb yigit Alisherning aytganlariga ko'nishini bildirdi.

- Bu keltirilgan tortiqni bozorda yuz yigirma tangaga oladi. Ularni sot, yigirma tangasiga toboni baland chok, ellik tangasiga futai zarbafta yazdi, o'n tangasiga arabi tugmalar, yana o'n tangaga yak ovoz pichoq, yigirma tangasiga jingili mo'y qora bag'o taqiya olib kiy. Qo'linga bir qizil tayoq ushlab, bozor boshida tur. Qay tomonda chiroyli xo'jazoda, mahzumzoda o'tsa, yoniga borib, mirshabdek qo'lidan ushlab ayt: “Sizni Xojai Chinor chaqiradi. Ul bola qo'rquvidan yig'lab sening oyog'inga o'zini tashlab yalina boshlaydi. Sen “Mening vazifam shu, boshqa so'zni bilmayman”, de. U bola zorlanib shunday deydi: “Ey pahlavon, agar o'zingni bilmaslikka solib, meni Xojai Muhammad Chinor oldiga olib bormay, balodan saqlasang, nima bo'ladi. Ruxsat bersang

obro'yim bilan qaytay, kiyimlarim va nimaiki naqd narsam seniki". Uning chakmoni va kiyim boshi eng ozida yuz tanga bo'ladi. Bu yo'l bilan kunda besh kishini tutsang, muroding hosil bo'ladi"(83-bet).

Alisherga navkar sifatida yurib, Husayn Boyqaroga ma'lumot tashuvchi josus bu so'zlarning birini qoldirmay yozib oldi va podshohga yetishtirdi. Bu voqeadan xabardor bo'lgan Husayn Boyqaro Muhammad Valibekni chaqirtiradi va unga g'azab qilib: "Agar huquqing va ajdoding mone bo'lmasa edi, kulingni ko'kka sovrardim. Tez izinga qaytib, ul haromzodani shahardan quv", dedi. Muhammad Valibek Xojai Chinorni chaqirtirib oldi. Uni yotqizib yuz tayoq urdirdi va shahardan badarg'a qildi."(84-bet) Alisher Navoiy o'ta zukkoligi bilan Hirot xalqini bir katta gazandadan qutulishiga yordam beradi.

Olim Sharafiddinov bu kabi Alisherning shaxsiyatini yuksakka ko'taruvchi voqealarni ko'plab keltirishga urinadi. Shu o'rinda u Alisher Navoiyning obodonchilik, quruvchilik ishlariga ham katta ahamiyat beradi. U qurdirgan madrasa, hammom, kasalxona, kutubxona va eski binolarni tuzatganligi borasida birma-bir to'xtalib o'tadi. Bundan tashqari Alisher Navoiy ismiga bag'ishlangan ilmiy-tarixiy asarlarning ko'pchiligini ko'rsatib, ular haqida ham bir qacha ma'lumotlar berib o'tishga harakat qiladi.

Barchamizga ma'lumki, Alisher Navoiyning ulug' maqsadlaridan biri o'zbek tilini dunyoning madaniy va siyosiy tillari darajasiga ko'tarish edi. Navoiyga qadar o'zbek tilining ovozi zaif edi. Arab tili ilmiy til, fors tili adabiy va davlat tili hisoblanardi. Monografiyaning keyingi "Alisher Navoiyning qizg'in ijodiy yillari" qismida Alisher mana shu qoloqlikni yo'qotish uchun kurashga bel bog'lagani haqida so'z boradi. Navoiy o'zbek tilini madaniy va davlat tili darajasiga ko'tarish uchun katta kuch sarf qildi. Tadqiqotchi Navoiy turk tilida benazir "Xamsa" yaratganligini aytadi. Navoiy "Xamsa"sining paydo bo'lishi o'zbek adabiyoti tarixida eng ulug' hodisa bo'ldi. Chunki o'zbek badiiy adabiyotining baland cho'qqisi, Alisher qudrati va mahoratining eng go'zal namunasi edi. Monografiyada Navoiyning do'sti va hamroxi buyuk shoir Abduraxmon Jomiy ham bu "Xamsa"ning san'at mo'jizasi ekanini tasdiqlab, o'zining "Iskandarnoma"

dostonining oxirida Navoiyni quyidagicha taqdirlashi keltirilgan: “Ey Navoiy... sening “Xamsa”ng turkiy tilda ajoyib bir naqsh bo’ldiki, sehrli nafaslarining lablariga muhr urdi. Bu go’zal naqshlarni yaratgan qalamga falakdan ofarinlar bo’lsin. Mo’jizali tizilgan bu she’rning mezonini bilan o’lchaganda Nizomiy kim bo’lardi-yu, Xisrav kim. Ofarin sening talantiga, ey so’z ustodi! Sening qalamining kaliti bilan so’z xazinasini ochildi. So’z ravnaqdan tushib, egar-jabdug’ini xo’rlik burchagiga qo’ygan edi, sen unga ikkinchi marotaba obro’y berib, so’z maydoniga tortding. Ey, Navoiy, so’z sening istaging nuridan soflik va sening navong lutfidan quvvat oldi!”

Ulug’ shoir Jomiy fors adabiyoti xazinasining qimmatbaho durdonalari bilan Navoiy ijodini taqqoslash natijasida “Xamsa”ni bunday yuksak baholagan edi. “Alisher Navoiy hayoti va ijodi” monografiyasi olim ijodining cho’qqisidir. Navoiy haqida XX asrda ko’plab taqdirdorlar birmuncha tillarda yaratildi. Olim Sharafiddinov tadqiqoti o’z uslubi, qiyofasiga egaligi bilan farqlanadi. Bu asar dissertatsiyalardan, sof ilmiy tadqiqotlardan soddaligi, ravonligi, tushunarligi bilan ajralib turadi. Olim monografiya yozishda ilmiy muammo qo’ymagan, buyuk Navoiy haqida xalqona til, usulda gapirib berishni niyat qilgan. Ta’kidlash zarurki, Navoiy hayoti va ijodi haqida yozish fikri olimda birdan tug’ilgan emas. Olim Sharafiddinov ongli hayoti davomida hamisha Navoiyni o’qigan, uning asarlarini mutolaa qilgan. O’qiyverish, berilib mutolaa qilaverish uqish darajasiga olib chiqadi. Uqish – adib hayoti-yu asarlari ildiz-ildiziga kirib borishdir. Uqish – yozuvchi ruhida holatlarni, jarayonlarni o’zida jonlantirish. Uqish – teran his qilish. Olim Sharafiddinov Navoiy haqidagi ilmiy-tarixiy asarlarni qunt bilan o’rgangan. Tarixiy asarlarda hayotning kata voqealari qatori ikir-chikir tomonlari tasvirlanadi. muarrixlar Navoiy yashagan ijtimoiy muhit, shoirning amaldor adiblar bilan shaxsiy munosabatlari, amalga oshirgan muhim ishlari haqida yozganlar. Olim Sharafiddinov Navoiyga oid materiallarni uqish darajasigacha o’zlashtirgan. Navoiy hayoti va ijodini uqish – buyuk san’atkor turmushi, asarlarini turli rakurslardan aniq, tiniq ko’rishdir. Olim Sharafiddinov buyuk Navoiy hayoti va ijodini soxtalashtirmagan, haqiqatni buzmaganda uni XX asrning o’rtalaridagi

muhitga moslab talqin, targ'ib, tahlil qilgan. Olim Navoiyning oddiy xalq, hunarmandlar bilan munosabatini, haddan oshib ketgan soliqlarni, elga jabr qilayotgan amaldor-to'ralarni fosh qilganini tasvirlaydi. Shunday taassurot paydo bo'ladi, Navoiy xuddi ilmiy komunizm tarafdorlarilgari surgan g'oyalarni tasdiqlagan. O'ylab ko'rilsa, daho ijodkorning asarlari, misoli, ulkan xazina: undan turli maqsadlarda donishmandlik bilan foydalanish mumkin. Olim Sharafiddinov buyuk Navoiyni yangi rakursdan namoyon etdi. Muhimi, olimning talqinlari tuzum yetakchilariga, dahshatli mafkura boshqaruvchilariga ma'qul keldi. To'g'ri, Olim Sharafiddinov Navoiyning tasavvuf kishisi ekanligini, uning sof islomiy asarlarini bayroq qilib ko'tarmadi. Navoiy "Xamsa"sini tahlil qilar ekan, olim dostonlardagi "an'anaviy kirish"ga urg'u bermadi. Aslida an'anaviy kirishda, munojotda Navoiy mohiyati aniq-tiniq ko'rinadi.

Olim Sharafiddinov sho'ro davlati va kommunistik firqaning beayov qilichitinimsiz harakatlanib turgan qaltis vaziyatda Navoiy hayoti va ijodini yangicha ko'rsata oldi. Mazkur qarashning ijobiy, yetishmovchi tomonlari, tabiiyki bore di. Muhimi, Olim Sharafiddinov qaltis bir vaziyatda Navoiy merosini saqlash, targ'ib, tahlil qilishning o'ziga xos yo'lini topa bildi.

Uqish, chuqur o'zlashtirish sinchiklab o'qish orqali amalga oshiriladi. Olim Sharafiddinov monografiyasida Navoiy hayoti va asarlarini sinchiklab tahlil qilish ko'zga tashlanadi. Navoiy dostonlarini, xususan, "Farhod va Shirin"ni o'qigan aksariyat kitobxonlar uvoq obrazlarga e'tibor bermaydilar. Olim Sharafiddinov "Farhod va Shirin" dostonidagi asosiy qahramonni asir etgan Firibgar bilan uni o'ldirgan Yosuman boshqa-boshqa odamlar ekanligini ko'rsatadi. Olim Sharafiddinov kitobida Navoiy dostonlari yaxshi tahlil qilingan, ayniqsa, "Sab'ai sayyor", "Saddi Iskandariy" dostonlari tahlili nozik, tiniq. Alisher Navoiy Nizomiy, Dehlaviyning "Xusrav va Shirin" dostonlari haqida to'xtalar ekan, ularda Bahromning "ishq moyasi" yetarli isbotlanmaganligini aytadi. Qarangki, Alisher Navoiy o'zining 4-dostonini ishq moyasining mantiqi, tarixi, badiiy tahliliga bag'ishlagan. Aniqrog'i, Navoiy dostonidagi Bahrom ishq iztirobiga muhtalo bo'ladi. Butun asar davomida shu ishq Bahromni qiynaydi, toblaydi, chiniqtiradi.

Dostonda tasvirlangan so`nggi hikoyada Bahrom Diloromning tirikligi haqidagi xabarni biladi. Asar bosh qahramonning botqoqqa g`arq bo`lishi bilan yakunlanadi. “Saddi Iskandariy” chin ma’noda falsafiy doston: u bahs bilan boshlanadi, bahs bilan yakunlanadi. Bahslar turli mavzularda. Lekin ular mohiyatida bitta masala o`zak vazifasini o`taydi: inson qanday yashamog`i joiz. Iskandar olimlar davrasida yashadi, aslzodalar tarbiyasini ko`rdi. Uning quruqlikda, dengizlarda o`tkazgan umri ma’no-mazmun, ibratga to`liq bo`ldi.

Olim Sharafiddinov hayot bo`lganida XXI asr tongida 113 yoshga to`lgan bo`lardi. U qirchillama qirq yoshida halok bo`ldi. Ammo, u qoldirgan haroratli kitob, bir necha maqola hanuz yashamoqda, qalblarda iliqlik, hayotbaxsh ruh ato etmoqda.

III BOB BO`YICHA XULOSA

- Hamisha zamon bilan hamnafas bo`lgan, qaynoq adabiy jarayon ichida voyaga yetgan Olim Sharafiddinovning ilmiy-adabiyotshunoslik va navoiyshunoslik faoliyati 30-yillarda va 40-yillar boshida, ayniqsa, sermahsul bo`ldi. U birinchilardan bo`lib o`rta va oliy o`quv yurtlari uchun darslik va xrestomatiyalar tuzar ekan, o`zbek mumtoz adabiyotining mashhur namoyandalari hayoti va ijodini sinchkovlik bilan o`rgandi, ularning asarlarini mustaqil ravishda tahlil etishga va baholashga jur'at etdi.

- Zahmatkash, izlanuvchan va talabchan olim o`z faoliyatining eng ko`p qismini ulug` shoir va mutafakkir Alisher Navoiy hayoti va ijodini tekshirishga bag`ishladi. Bu tekshirishni birinchi adabiy manbalar – Navoiyning qo`lyozma va chop etilgan asarlari hamda zamondoshlarining kitoblarini obyektiv ravishda halollik bilan o`rganishdan boshladi. Olimning bu ishga jasorat bilan kurashishiga VKP Markaziy Komitetining 1932-yil 23-aprelda “Adabiy-badiiy tashkilotlarni qayta tuzish to`g`risida” chiqargan qarorining amalga osha borishi va 1937-yil may oyida Moskvada o`tkazilgan o`zbek san`ati va adabiyoti dekadasiining yakunlari munosabati bilan “Правда” gazetasida “O`zbek san`atining tantanasi” nomli bosh maqolaning e`lon etilishi ayniqsa ruhlantirdi. Zotan mazkur tarixiy qaror xoh badiiy adabiyotda va xoh adabiyotshunoslikda katta o`rin tutgan vulgar sotsiologizmni tugatishni ham nazarda tutgan bo`lsa, bosh maqola o`zbek xalqining o`tmishda yaratgan boy adabiy merosidan keng foydalanish zarurligini ta`kidlagan edi.

- Olim Sharafiddinov Navoiy davri, hayoti va ijodiga doir materiallarni va tadqiqotlarni tanqidiy ko`z bilan qaytadan qarab chiqdi. Mirxondning “Ravzat us-safo”, Xondamirning “Habib us-siyar”, Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro”, Boburning “Boburnoma”, Vosifiyning “Badoe ul-vaqoe” va yana talay manbalarni sinchiklab o`rgandi. M.Nikitskiy, Belin, N.Ilminskiy, V.Bartold, E.Bertels, A.Semyonov va boshqa sharqshunoslarning ishlarini takror ko`zdan kechirdi.

- Shundan so'ng Olim Sharafiddinov "Alisher Navoiyning yorqin hayotiga, uning xalq manfaati yo'lida olib borgan keng faoliyatiga" doir o'sha vaqtda qo'lga kiritgan ma'lumotlarga suyanib, o'zbek xalqining ulug' shoiri va mutafakkiri haqida ancha keng va yaxlit tasavvur bera oladigan birinchi jiddiy ilmiy-ommabop asar yaratdi.

- O'ziga talabchan Olim Sharafiddinov bu asar ustida ishlashni, Navoiy merosini o'rganishni davom ettirdi. U yangi manbalardan, jumladan, avval qo'lga kiritishga ulgurmagan Xondamirning "Makarim ul-axoq" asaridan unumli foydalandi, Navoiy "Xamsa"sini klassik xamsanavislarning asarlari bilan qiyoslab chiqishga, yana ba'zi bir tuzatishlar kiritishga muvaffaq bo'ldi.

UMUMIY XULOSALAR

Alisher Navoiy o'zbek adabiyoti tarixida katta mavqega ega buyuk siymodir. U o'zining butun hayoti va faoliyati davomida o'z xalqining adabiyoti va adabiy tilini himoya qilish, rivojlantirishdek juda katta va muhim masalani ko'tarib chiqdi hamda umrining oxirigacha o'zbek adabiy tili va adabiyotini yuksak darajaga ko'tarish uchun kurashdi. Aslida Navoiy nazdida milliy adabiyot uchun kurash adabiy til rivoji uchun kurash edi. Bu yo'lda u o'zining qator asarlari bilan ona tilini adabiy til darajasiga ko'tarish, adabiyot uchun yagona til yaratish ishida tinimsiz harakatlar qildi va o'zidan boy she'riy, nasriy va ilmiy meros qoldirdi. Alisher Navoiy ijodini yangicha adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan o'rganish XX asr boshlarida ijod qilgan jadid yozuvchilari va olimlari faoliyati bilan bog'liqdir. Bu o'rinda, albatta, Abdurauf Fitrat, Sadridin Ayniy va Olim Sharafiddinov xizmatlarini alohida ta'kidlash lozim bo'ladi. Ular mumtoz adabiyotimiz tarixi haqidagi ilmiy tadqiqotlarida, adabiy mavzulardagi maqola va taqrizlarida adabiyotshunos olim sifatida Alisher Navoiyning ijodini sinchkovlik bilan o'rgandi. Uch adabiyotshunosning zamonaviy navoiyshunoslikning rivojiga fundamental tadqiqotlari bilan katta hissa qo'shgan adabiyotshunos olim bo'lib, biz uchun ularning badiiy ijodlari qanday qimmatli bo'lsa, ilmiy meroslari ham shunchalik qadrlidir.

Magistrlik ishida XX asr boshlarida navoiyshunoslikning tamal toshini qo'ygan olimlar – Fitrat, S. Ayniy va O. Sharafiddinovlarning faoliyatini kuzatish va tahlil qilish asnosida ishning boblaridagi fikrlarga tayanib, quyidagi xulosalarga kelindi:

- Fitrat Navoiyning ilmiy-badiiy merosini har tomonlama chuqur va xolisona tadqiq etgan, uning o'zbek adabiyoti rivojida tutgan o'rnini to'g'ri belgilagan va unga “eng buyuk san'atkor shoir” sifatida aniq baho bergan. Olimning shoir asarlari bo'yicha bildirgan asosli fikrlari fanimiz uchun hamisha ahamiyatli bo'lib qoladi. Aytaylik, Navoiyning mutasavvifligini u, eng avvalo, ruhoniylar hayot zavqi va imkoniyatlari zaminiga asoslanib baholagan uchun buyuk shoir va mutafakkirning so'fiylikka munosabatini belgilashda xatolikka yon bermagan. Chunki tasavvuf tarixi, tasavvufiy adabiyot bosqichlarini qancha chuqur bilsa, adabiyotdagi tasavvuf jarayonlarini Fitrat yanada mukammal anglagan. Turkiy adabiyotda dunyoviy, hayotiy sevgi bilan ma'naviy, ilohiy ishq-muhabbatni eng yuksak, eng go'zal shakllarda uyg'unlashtirgan ilk san'atkor Alisher Navoiy ekanligiga Fitratda hech qanaqa ikkilanish bo'lmagan.

- Sadriddin Ayniy ilmiy-ijodiy faoliyatida uning matnshunoslik borasidagi xizmati muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. U buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy “Xamsa”sining qisqartirilgan tanqidiy matnini tayyorlashdek ulkan ishga qo'l uradi. Mazkur nashrda olim Alisher Navoiy “Xamsa”si ayrim o'rinlarini nasriy shaklda bayon etadi va sahifalar ostida sharhlar hamda asarning she'riy qismlaridan parchalar keltiradi.

- Ustod Ayniy o'zining ko'p yillik sermahsul navoiyshunoslik faoliyatida bu sohaning bir emas, bir necha sohalari bo'yicha ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar olib bordi. Ustozning ulug' shoir hayoti va faoliyati bo'yicha 30-40-yillar davomida olib borgan izlanishlari “Alisher Navoiy” nomli monografiyasini yaratish bilan yakunlangan edi.

- Sadriddin Ayniyning navoiyshunoslikka qo'shgan ikkinchi xissasi shoirning forsiy merosi – “Devoni Foni”ni, avvalo matnshunoslik nuqtai nazaridan, qolaversa, g'oyaviy-badiiy jihatdan o'rganish bilan bog'liq bo'ldiki, bu devonning asl

qo'lyozma nusxalari o'sha davrda Ittifoq hududidagi biror mamlakatda yo'q edi. Asl nusxalar 60-yillardan keyingina Eron, Fransiya kitobxonlaridan topildi. Ayniy domla O'zbekiston va Tojikistonda mavjud o'nlab qo'lyozmalarni bir-biriga qiyoslab chiqqan. Foni taxallusli shoirlar esa ko'p bo'lgan. Shunday qiyinchiliklarga qaramay, ustoz o'sha davrda ulug' shoirning bir necha forsiy she'rini aniqlay olgan edi.

- Olim Sharafiddinov o'zbek adabiyotshunosligi sohasiga yot nazariyalarning suqulib kirishiga, adabiyot tarixi va ulug' Navoiy ijodiyotini soxtalashtirishga qarshi qat'iy kurash olib bordi. U "Navoiy ijodining xato talqinlariga qarshi" sarlavhali maqolasida adabiyotshunos A. Sa'diyning "Simvolizm to'g'risida" degan kitobini tahlil qilib, uning Navoiy ijodiyotining tasavvufiy-mistik qarashlardan, simvolizmdan iborat qilib talqin etishini, ulug' shoir yaratgan obrazlarni "ilohiy ishq" simvoli qilib ko'rsatishga urinishini ro'yiost ochib tashlaydi.

- Izlanuvchan tadqiqotchi O. Sharafiddinov Navoiy asarlari va birinchi manbalar ichiga chuqur kirib borgan sari, ulug' mutafakkir ijodini kamsitib, uni ozarbayjon, fors-tojik klassik shoirlarining taqlidchisi qilib ko'rsatuvchilar, uning obrazlarida allaqanday mavhumiylik, "ilohiy ishq", tasavvuf qidiruvchilar, ulug' shoir ijodiga ne-ne tuhmatlarni to'nkab, uning asarlarini haqoratlash darajasiga yetib, shoirga hokim tabaqalar maddohi, aysh-ishrat, may-mahubub kuychisi deb qarovchilar naqadar nohaq ekanliklari tadqiqotchiga besh panjaday ayon bo'ldi. U navoiy ijodining mazmuniga, obrazlarining mag'iz-mag'iziga gumanizm, adolatparvarlik, ezgulik g'oyalari, oddiy kishilarga xayrixohlik, mehr-muhabbat tuyg'ulari, parchalanib ketgan yurtini birlashtirish, xalqini zulm va sitamlardan ozod etish orzusi singib ketganiga to'la ishonch hosil qildi.

Adabiyotshunoslik fani taraqqiyotining hozirgi bosqichida navoiyshunoslik beqiyos ulkan yutuqlarga erishdi. Alisher Navoiyning deyarli barcha adabiy, poetik va ilmiy asarlari nashr etilib ommalashtirildi, qayta-qayta chop etildi. Navoiyning

hayoti, faoliyati, adabiy merosi haqida qator ilmiy monografiyalar yaratildi, nazariy va metodologik muammolar ishlandi, yetuk navoiyshunos olimlar yetishdi. Ammo navoiyshunoslikning ilk qadami, shakllanish yo'li g'oyat mashaqqatli, hatto xatarli bo'ldi, xatolar bilan kechdi. Navoiyshunoslikning tarkib topishida uning poydevoriga mustahkam g'isht qo'yganlardan Fitrat, Sadridin Ayniy va Olim Sharafiddinov bo'ldi. Bular o'z davrida o'zbek navoiyshunosligining peshqadam pionerlari sifatida Navoiy merosiga bo'lgan nigilistik munosabatni, boshi berk ko'chaga kirib qolgan vulgar sotsiologik xatolarni yengib, navoiyshunoslikda sinfiylik, partiyaviylik prinsiplarini tom ma'nodagi xalqchillik masalalari bilan chambarchas bog'langan holda tog'ri hal qilishga mardona ulush qo'shdilar.

Keyingi yillarda ulug' ustozlarimiz orzulari amalga oshdi. "Xamsa" va boshqa qator asarlarning ilmiy-tanqidiy matnlari nashr etildi. Fitrat, Ayniy, Ayn tadqiqotlari o'zlaridan keyin yaratilgan barcha ishlarda fundament bo'lib xizmat qildi. Maqsud Shayxzodaning Alisher Navoiy poetik san'atkorligiga doir turkum tadqiqotlari, Izzat Sultonning "Navoiyning qalb daftari", A.Hayitmetovning "Alisher Navoiyning adabiy-tanqidiy qarashlari", "Navoiy lirikasi", "Navoiyning ijodiy metodi vazifalari", A. Qayumovning "Alisher Navoiy", A. Abdug'afurovning "Navoiy satirasi", N.Mallayevning "Alisher Navoiy ijodiyotining xalqchillik negizi", "Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti" kabi kitoblari navoiyshunoslikning faxridir.

Bu muazzam ijodni o'rganish, tadqiq va talqin etish Navoiyning hayotligi davrlaridayoq boshlangan bo'lib, o'tgan besh asr davomida so'z san'ati bilan shug'ullanadigan ko'plab olim va ijodkorlar turli shaklda Navoiy merosini o'qib-o'rganish va boshqalarni ham bahramand qilishga harakat qilganlar. Mamnuniyat bilan aytish kerakki, Navoiy ijodini bor bo'y-basti bilan, xolislik va ilmiylik mezonlariga mos holatda o'rganish va o'rgatish imkoniyati istiqlol sharofati bilan yanada kengaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Тошкент: «Маънавият», 2008. 176 б.
2. Karimov I.A. Buyuk kelajak sari. – T.: O'zbekiston, 1999. – 686 b.
3. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'zbekiston, 2011. – 432 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent – "O'zbekiston" – 2017. 50 bet.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.-T.: "Adolat", 2017. -25-b.
6. Ш.Мирзиёев. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2016. 156 б
7. Ш.Мирзиёев. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. 145 б

II. Asosiy adabiyotlar:

1. Ilmiy adabiyotlar

8. Айний замондошлари хотирасида. Гафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. Тошкент, 1978. 216-217 б.
9. Aliyev A. Ma'naviyat, qadriyat va badiiyat. – T.: Akademiya, 2000. 630 b.
10. Baldauf Ingeborg. XX asr o'zbek adabiyotiga chizgilar. – T.: Ma'naviyat, 2001. 70 b.
11. Boltaboyev H. Fitrat va jadidchilik. Ilmiy-tadqiqiy maqolalar. – T.: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. 285 b.
12. Boltaboev H. Fitratning ilmiy merosi. T.: "Fan", 1996. 210 b.
13. Boltaboev H. Fitrat - adabiyotshunos. T.: "Yozuvchi", 1996. 220 b.

14. Валихўжаев Б. Садриддин Айний шеърятти поетикасини салохияти Барҳаёт шеърят. Бухоро – 2004. 159 б.
15. Воҳидов Р., Маҳмудов М. Устод Айний сабоқлари. Ўзбекистон: Фан, 2004. 210 б.
16. Воҳидов Р.Ж. Навоий ижоди – илҳом манбаи. – Т.: Фан, 1981. 66 б.
17. Vohidov R., Eshonqulov H. O`zbek mumtoz adabiyoti tarixi.– Т., 2006. 528 б.
18. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. – Т.: O`zbekiston, 2008. 532 б.
19. Каримов Н. ва б. XX аср ўзбек адабиёти тарихи (Олий ўқув юртлари учун дарслик). – Т.: Ўқитувчи, 1999. 456 б.
20. Karimov N., Nazarov B., Normatov U., Yo`ldoshev Q. Adabiyot (Darslik). – Toshkent: O`qituvchi, 2004. 284 б.
21. Mallayev N. O`zbek adabiyoti tarixi. Birinchi kitob. – Toshkent: O`qituvchi, 1976. 664 б.
22. Маллаев Н. Алишер Навоий ва халқ оғзаки ижодиёти. –Т.: Адабиёт ва санъат, 1974. 223 б.
23. Назаров Б., Расулов А., Ахмедова Ш., Қахрамонов Қ. Ўзбек адабий танқиди тарихи. – Тошкент: «Tafakkur qanoti», 2012. 396 б.
24. Fitrat. Eng eski turk adabiyoti namunalari. – Т.: Mumtoz so`z, 2008. 124 б.
25. Fitrat. Tanlangan asarlar. I jild. Darslik va o`quv qo`llanmalari, ilmiy maqola va tadqiqotlari. – Toshkent: Ma`naviyat, 2009. 208 б.
26. Fitrat. Tanlangan asarlar. II jild. Ilmiy asarlar. – Toshkent: Ma`naviyat, 2000. 208 б.
27. Qosimov B. Maslakdoshlar: Behbudiy, Ajziy, Fitrat. – Т.: Sharq, 1994. 156 б.
28. Qosimov B., Abdurauf Fitrat Milliy uyg`onish: jasorat, ma`rifat, fidoyilik. – Т.: Ma`naviyat, 2002. 373 б.
29. Qosimov B., Yusupov Sh., Dolimov U., Rizayev Sh., Ahmedov S. Milliy uyg`onish davri o`zbek adabiyoti. Darslik.– Т.: Ma`naviyat, 2004. 462 б.
30. To`rayev U., Saidjonov Y. Dunyo dinlari tarixi. – Т.: Toshkent Islom universiteti, 2002. 176 б.

31. Yoʻldoshev Q., Qodirov V., Yoʻldoshbekov J. Adabiyot (Darslik). – Toshkent: Yangiyoʻl Poligraph Service, 2006. – 400 b.
32. Шарафиддинов О. Танланган асарлар. – Тошкент, 1978, 298 Б.

2. Ilmiy maqolalar.

33. Атаниёзова М. Олим Шарафиддинов - навоийшунос.//Ўзбек тили ва адабиёти. 2010 й. 3-сон
34. Болтабоев Ҳ. Алишер Навоий мероси Фитрат талқинида. //Ўзбек тили ва адабиёти. 1992 й. 1-сон.
35. Валихўжаев Б. Устоз Айний мероси. //Ўзбек тили ва адабиёти. 2003 й. 5-сон.
36. Hayitmetov A. Alisher Navoiy ijodini oʻrganishning metodologik asoslari haqida // Oʻzbek tili va adabiyoti. Toshkent, 2001. 2-son.
37. Ҳайитметов А. Забардаст навоийшунос.//Ўзбек тили ва адабиёти. 2003 й. 5-сон
38. Еркинов С. Фитрат – навоийшунос.//Ўзбек тили ва адабиёти. 1990 й. 3-сон
39. Еркинов С. Фитратнинг «Фарход ва Ширин» достонига оид тадқиқоти ҳақида.//Ўзбек тили ва адабиёти. 1993 й. 1-сон.
40. Qosimov B. Fitrat (chizgilar).//Sharq yulduzi, 1992, 10-son.
41. Qosimov B. Fitrat. //O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 1991, 10-son.
42. Расулов А. Олим Шарафиддинов.//Ўзбек тили ва адабиёти. 2004 й. 5-сон
43. Расулов А. Нурли нигоҳ//Жаҳон адабиёти, 2004, 6-сон, 160-бет.
44. Sarimsoqov B. Folklor va yozma adabiyot munosabatlariga doir izlanishlar // Oʻzbek tili va adabiyoti. – 1976. – № 5. – B.85
45. Мирзаева З. И. Абдурауф Фитрат фаолиятининг урганилиши: узиға ҳос ёндашув ва қарашлар. Ўзбекистан тарихининг долзарб масалалари ёш олимлар тадқиқотларида: асосий йуналишлар ва ёндашувлар.//Республика ёш олимларининг анъанавий иккинчи илмий конференцияси материаллари туптами. - Тошкент: Фан, 2010. - Б. 187.

46. Мирзаев Т. С. Айний ижодини ўрганишнинг айрим масалаларига доир.// Ўзбек тили ва адабиёти. 2003 й. 5-с

3. Dissertatsiya va avto referatlar.

47. Афзалов М. Фарход ва Ширин”нинг халқ варианты ҳақида: Филол. фан. номз. ... дисс. – Т.:1950.

48. Boltaboev H. XX asr boshlari o'zbek adabiyotshunosligi va Fitratning ilmiy merosi. F.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. ... aftoref. – Т.: 1996

49. Болтабоев Ҳ. “XX аср бошлари Ўзбек адабиётшунослиги ва Фитратнинг илмий мероси” Филол. фан. номз. ... дисс. – Т.:1996. 188 б.

50. Эркинов. С. Алишер Навоийнинг “Фарход ва Ширин” достони ва унинг қиёсий ўрганишнинг баъзи масалалари. Филол. фан. номз. ... дисс. – Т.:1974. 339 б.

51. Saidov Y.S. Fitrat badiiy asarlari leksikasi: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Т., 2001. 75 б

4. Lug`at va ensiklopediyalar.

52. Adabiyotshunoslik terminlari lug`ati. – Т.: О‘qituvchi, 1967. 300 б.

58. Сулаймонов Ш., Тўхсанов Қ. Адабиётшунослик атамаларининг қисқача изоҳли луғати. – Бухоро, 2009. 160 б.

53. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-жилд. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2002.

54. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 7-жилд. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2004.

55. Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – 364 б.

III. BADIY ADABIYOTLAR:

56. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma tomlik. 14-tom. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: Fan, 1998. 304 b.
57. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma tomlik. 18-tom. Devoni Foni. – Toshkent: Fan, 2002. 541 b.
58. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma tomlik. 19-tom. Devoni Foni (davomi). – Toshkent: Fan, 2002. 600 b.
59. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma tomlik. 20-tom. Devoni Foni (davomi). – Toshkent: Fan, 2003. 568 b.
60. Навоий А. Хамса. (қисқартириб нашрга тайёрловчи С.Айний). – Т.: Ўздавнашр, 1947. – 432 б.

INTERNET SAYTLARI:

61. <http://www.ziyouz.com> materiallari.
62. Google.uz.
63. ZioNet.uz
64. Xurshid Davron kutubxonasi.uz
65. Turklib.uz
66. Wikipediya.uz

MUNDARIJA

KIRISH. ISHNING UMUMIY TAVSIFI.

I BOB. FITRAT TADQIQOTLARIDA NAVOIY IJODIGA MUNOSABAT

1.3. Alisher Navoiyning forsiy devoni va Farhodu Shirin dostoni to'g'risida Fitrat qarashlari

1.4. Fitratning "O'zbek adabiyoti namunalari" majmuasi hamda ilmiy maqolalarida Alisher Navoiy ijodining o'rganilishi

I bob bo'yicha xulosa

II BOB. SADRIDDIN AYNIIY – NAVOIYSHUNOS

2.1. Sadriddin Ayniy tadqiqotlarida Navoiy va tojik adabiyoti masalalariga munosabat

2.2. Ayniy – "Xamsa" tadqiqotchisi

2.3. "Alisher Navoiy" monografiyasi – yaxlit tadqiqot sifatida

II bob bo'yicha xulosa

III BOB. OLIM SHARAFIDDINOV – NAVOIY IJODI TADQIQOTCHISI

3.1. Alisher Navoiy biografiyasi va poetikasiga doir munosabatlar Olim Sharafiddinov talqinida

3.2. "Alisher Navoiy hayoti va ijodi" monografiyasining navoiyshunoslikdagi ahamiyati

III bob bo'yicha xulosa

UMUMIY XULOSALAR

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI